

**M.X.BAYBAYEVA, A.SH.MUXSIYEVA**


**OLIV VA  
PROFESSIONAL  
TA'LIMDA  
MUTAXASSISLIK  
FANLARNI O'QITISH  
METODIKASI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI

M.X.BAYBAYEVA, A.SH.MUXSIYEVA

**OLIY VA PROFESSIONAL  
TA’LIMDA MUTAXASSISLIK  
FANLARNI O‘QITISH  
METODIKASI**



931623

TOSHKENT-2022

*Ushbu darslik Institut Ilmiy Kengashining «\_\_» \_\_2022 yilda bo'lib o'tgan \_\_ sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.*

Oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri zamonaviy ta'limiy-kasbiy dastur va o'qitish metodikasi asosida yuqori samarali ta'lim jarayonini va malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash hisoblanadi. Ushbu darslik oliy va professional ta'limda maxsus fanlarni o'qitish metodikasi kursining fanlar tizimida tutgan o'rni, mazmuni, maqsad va vazifalari, ta'limi tamoyillari, oliy va professional ta'limining davlat ta'lim standarti, o'quv jarayonida o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning imkoniyatlari kabilar o'rin olgan.

Mazkur darslik oliy va professional ta'lim o'qituvchilari, magistrleri bakalavriyat yo'nalishi talabalari, uchun mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:** **M.X.Baybayeva** – dotsent, p.f.n.  
**A.Sh.Muxsiyeva** – dotsent, p.f.n.

**Taqrizchilar:** **Z.Choriyev** – TIQXMMI, p.f.d.professor  
**M.B.Urazova** – professor, p.f.d.

© Nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti 2022y

## KIRISH

Bugungi kunda oliy va professional ta'limda yangi metodlarni qo'llash, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashga asoslangan yangi, malakali mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirishda mavjud bo'lgan tashkiliy va uslubiy shakllarni tubdan isloh qilishga qaratilgan zamonaviy konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sifati va o'qish metodikasiga alohida e'tibor berilayotgan bir paytda bu fanning dolzarbligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi masalalarni amalga oshirishda esa bo'lajak kadrlarni yetuk mutaxassis qilib tayyorlash taqozo etiladi.

Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fani magistratura yo'nalishi talabalarining kasbiy bilimlarini rivojlantiruvchi ta'limga asoslangan bo'lib, ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi. O'z navbatida ta'limga tadbiiq etilayotgan yangi metodlar, tshkiliy shakllar va ta'lim mazmunining markazida ta'lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub'ekti va ob'ekti bo'lgan ta'lim oluvchi shaxs turadi.

Hozirgi kunda ko'pgina ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitadigan malakali pedagog kadrlarga talab juda kattadir. Bunday pedagoglarni tayyorlashda, ularni kasbiy shakllantirishda maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmuasini yaratish, o'qitishning yangi metod va shakllarini tartbiq etish zarur.

Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining asosiy maqsadi - talabalarni har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, oliy va professional ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlarni jadal suratlarda amalga oshiradigan ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni bajarishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs-kasb ta'limi o'qituvchisi sifatida shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida kasbiy bilimlarni tadbiiq etish; bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; oliy

va professional ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatishdan iborat.

Talabalar oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fani o'rganish jarayonida quyidagilarni bilishi va bajara olishi lozim:

– kasb-hunar kollejlariida mutaxassislar tayyorlash jarayoni; kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim jarayonini uzviyligi va o'zaro bog'liqligi; o'quv moddiy-texnik ta'minotini tashkil etilishi (o'quv materiallari va moslamalar bilan ta'minlanishi); kasbiy tanlov bo'yicha tashhis markazlarining faoliyatini yo'naltirishni bilishi;

– tayyorlov yo'nalishining asosiy fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish; o'quv jarayonini rejalashtirish; tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish; o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash bo'yicha turli testlardan foydalanish; ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha Davlat ta'lim standrtlarni mazmunini; kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; kasb-hunar kollejlariida o'quv jarayonini tashkil etishni; o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash; ta'lim muassasalari va turli sohasidagi tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatish malakalariga ega bo'lishi;

– o'qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini, o'qitishning pedagogik va axborot texnologiyalarini; ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan, ma'ruza o'qishni amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishni; ta'lim jarayonida texnik vositalar va axborot texnologiyasi vositalarini qo'llashni; oliy va professional ta'limni mazmuni, maqsad va vazifalarini; oliy ta'lim mazmunini ishlab chiqish mezonlarini; shaxs, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining xususiyatlarini; kasb-hunar kollejlari o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar; oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilishi va qo'llay olishi;

– kasbiy faoliyatda ilmiy tajriba va ishlab chiqarishni boshqara olishi; ilmiy-pedagogik yoʻnalishda ish olib borishi oʻquv dasturi va rejleri tuzishni; kasb-hunar kolleji va ulardagi boʻlinmalarni boshqarishni; oʻquvchilarning mustaqil bilim olishlarini tashkil etishni; umumkasbiy fanlarni oʻqitish sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan koʻnikmalarga ega boʻlishi.

– Oliy va professional taʼlimda mutaxassislik fanlarni oʻqitish metodikasi oʻz mohiyatiga koʻra oʻquv rejasida koʻrsatilgan koʻplab fanlar bilan uzviy bogʻlangan boʻlib, u talabani kelajakdagi taʼlim jarayoniga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu borada fanning pedagogika, psixologiya, kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, taʼlim texnologiyalari, taʼlimda axborot texnologiyalari, kasbiy taʼlim metodikasi, axborot texnologiyalari, kasbiy taʼlim metodikasi, magistrlik mutaxassisliklari boʻyicha maxsus fanlar, kasb taʼlimi fanlari, texnika xavfsizligi va boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu fan tanlov fan sifatida oʻrganilib, kelajakda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shugʻullanish uchun ishlab chiqarishning ajralmas boʻgʻini hisoblanadi.

Oliy va professional taʼlimda mutaxassislik fanlarni oʻqitish metodikasi fanini oʻzlashtirishlari uchun oʻqitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni oʻzlashtirishda darlik, oʻquv va uslubiy qoʻllanmalar, maʼruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual slaydlardan foydalaniladi. Maxsus fanlarni oʻqitish metodikasi fanini oʻrganish jarayonida quyidagi yangi texnologiyalar qoʻllaniladi: muammoli maʼruzalar oʻtkazish, interfaol metodlar, bahs va debat darslari, vaziyatli masalalarni qoʻllash, axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar. Maʼruza va amaliy mashgʻulotlarda ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

O'quv maqsadi



*Talabalarda oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari, o'rni to'grisida nazariy bilimlarni shakllantirish*

**REJA:**

1. Mutaxassislik fanlari turkumi va ularning vazifalari.
2. Pedagogikaning mutaxassislik fanlari tizimida tutgan o'rni.
3. Pedagogik turkum fanlarni o'qitishga innovatsion yondashuvlar.
4. Asosiy pedagogik tushunchalar.



**Mavzuga oid tayanch iboralar:**

*Mutaxassislik fanlari, innovatsion yondoshuv, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish metodikasi, metodika, fan, tarmoq, tamoyil, ta'lim, kasb, hunar, tamoyil, maxsus fan, ixtisos, mutaxassis, pedagog, ta'lim, tizim, standart, nazorat, baholash, texnologiya, tavsifnoma, dastur*

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi, o'zining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo'lini belgilashi kadrlar tayёрlash tizimi va mazmunini qayta ko'rib chiqish, bu borada qator choralar ko'rish zaruratini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan, eng avvalo, ta'kidlash lozimki, ikkita juda muhim hujjat qabul qilindi: ta'lim sohasida davlat siёsatining asosiy tamoyillarini, respublikada ta'lim tizimi va turlarini belgilab bergan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga doir qabul qilindi. Bugungi kunda Dasturning uchinchi bosqichi amalga oshirilmoqdaki, u quyidagilarni ko'zda tutadi:

- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazasini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jaraёnini eng yangi o'quv-metodik komplekslar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to'liq ta'minlash;- milliy (elita) ta'lim

muassasalarining tiklanishi va rivojlanishi, ularning mustaqilligi va o'z-o'zini boshqarishini ta'minlash;

- ta'lim jaraeni axborotlashtirishni ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini dunë axborot tarmoqlariga chiqish imkoni bo'lgan kompyuter axborot tizimlari bilan to'liq qamrab olish.

Bo'lajak mutaxassislarni kasb ta'limi sohasidagi bilimlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari, kasbiy-pedagogik faoliyatning tashkiliy asoslari, kasb ta'limining mazmunini nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bo'lajak pedagoglarni kasbiy ta'limning nazariy asoslari, O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limi rivojlanishi, ta'lim tizimi islohatlari, uzluksiz, kasb-hunar ta'limi tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining o'rni va ahamiyati, kasbiy ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlari, kasbiy ta'lim va ta'lim berish mazmuni, kasb ta'limining usul, shakl va vositalari bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni o'rganishda "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani alohida o'rin tutadi.

Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi – maxsus fanlari bo'yicha rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishning yo'l va vositalari bilan tanishtirish va ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish mahoratini shakllantirishdir. Magistrnlarni har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, kasb-hunar ta'limida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadal suratlarda amalga oshiradigan ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni bajarishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs-kasb ta'limi o'qituvchisi sifatida shakllantirishdir.

Fanning asosiy vazifalari –O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi islohatlarini, uzluksiz ta'lim tizimida ta'limining o'rni va ahamiyatini, maxsus fanlarini o'qitishda asosiy o'quv me'yoriy hujjatlarni, maxsus fanlarini o'qitishda ta'lim maqsadlarini belgilashni, maxsus fanining o'qitish metodikasini ishlab chiqish yo'llarini o'rgatishdan iborat. magistrnlarga umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayonida kasbiy

bilimlarni tadbiq etish; bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; kasb ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatishdan iborat.

“Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi» fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- maxsus fanlarini o'qitishda asosiy o'quv me'yoriy hujjatlarni; maxsus fanlarini o'qitishda ta'lim maqsadlarini belgilashni; maxsus fanining o'qitish metodikasini ishlab chiqish yo'llarini; maxsus fanini o'qitishda ta'limning faol usul va texnikalarini bilishi;

- maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmali qurol va texnik vositalardan foydalanish; maxsus fanlarni o'qitishda talabalar bilimini baholash; dars o'tish jarayonida ma'ruza va seminar (amaliy) mashg'ulotlari loyihalashtirish va rejalashtirish; oliy ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi;

- o'quv jarayonida maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti metodlarini qo'llash; kasb ta'limining zamonaviy metod, vosita va tashkiliy shakllaridan samarali foydalanish to'g'risida aniq malakalarga ega bo'lishi kerak.

Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi - o'quv jarayonining zamonaviy vazifalaridan kelib chiqib, uning asosiy maqsadi - nazariyalarni bilishga bo'lgan pedagogik jarayonni boshqarishning umumiy tushuncha va elementlarini qo'llashni talabalarga o'rgatish, o'quv jarayonining asosiy shakllarida (ma'ruzalar, seminarlar, mustaqil ishlar, bilimlarni tekshirish) talabalarining fikrlash faoliyatini uslubiy yo'llar yordamida faollashtirish, talabalarga o'quv mashg'ulotlarining uslubiy ishlanmalarni tayyorlashga yordam berishdan iborat.

Kasbiy pedagogik ta'lim tizimida tayyorlanayotgan, pedagogik xodimlar ichida, eng muhim o'rinni kasb ta'limi o'qituvchisi egallaydi. Malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha, kasb-hunar ta'limi oldida turgan muhim va ma'suliyatli vazifalarni bajarish unga bog'liq bo'ladi. Kasb ta'limi o'qituvchisi ikki yoqlamali mehnat predmetiga ega bo'ladi. Uni bir tomondan insonlar bilan o'zaro munosabat, boshqa tomondan- aniq kasbiy sohadagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar

tashkil etadi. Uning kasbiy-pedagogik tayyorgarligining darajasi va sifati, kasb hunar ta'limida o'quvchilarni tayyorlash sifatini ma'lum miqdorda aniqlanadi.

Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi fanini o'rganish jarayonida quyidagilarni bilishi va bajara olishi lozim:

ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash jarayoni; kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim jarayonini uzviyligi va o'zaro bog'liqligi; o'quv moddiy-texnik ta'minotini tashkil etilishi (o'quv materiallari va moslamalar bilan ta'minlanishi); kasbiy tanlov bo'yicha tashhis markazlarining faoliyatini yo'naltirishni bilishi;

tayyorlov yo'nalishining asosiy fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish; o'quv jarayonini rejalashtirish; tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish; o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash bo'yicha turli testlardan foydalanish; ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari mazmunini; kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayonini tashkil etishni; o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash; ta'lim muassasalari va turli suv xo'jaligi sohasidagi tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatish malakalariga ega bo'lishi;

o'qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini, o'qitishning pedagogik va axborot texnologiyalarini; ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan, ma'ruza o'qishni amaliy (seminar), laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishni; ta'lim jarayonida texnik vositalar va axborot texnologiyasi vositalarini qo'llashni; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni, maqsad va vazifalarini; oliy ta'lim mazmunini ishlab chiqish mezonlarini; shaxs, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining xususiyatlarini; kasb-hunar kollejlari o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar; oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilishi va qo'llay olishi;

kasbiy faoliyatda ilmiy tajriba va ishlab chiqarishni boshqara olishi; ilmiy-pedagogik yo'nalishda ish olib borishi uchun pedagogika, psixologiya fanlari qishloq xo'jalik gidrotexnik melioratsiyasi, suv xo'jaligi va melioratsiya, gidromeliorativ tizimlardan foydalanish, gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish,

yer tuzish va yer kadastri, geodeziya va kartografiya hamda boshqa fanlarni o'qitish metodikasini amaliy qo'llay olishi, o'quv dasturi va rejleri tuzishni; kasb-hunar kolleji va ulardagi bo'linmalarni boshqarishni; o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini tashkil etishni; umumkasbiy fanlarni o'qitish sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lishi.

“Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi” fani o'z mohiyatiga ko'ra o'quv rejasida ko'rsatilgan ko'plab fanlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, u talabani kelajakdagi ta'lim jarayoniga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu borada fanning pedagogika, psixologiya, kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'lim texnologiyalari, ta'limda axborot texnologiyalari, kasbiy ta'lim metodikasi, axborot texnologiyalari, kasbiy ta'lim metodikasi, magistrlik mutaxassisliklari bo'yicha maxsus fanlar, o'quv ustaxonalarida amaliy ishlar, kasb ta'limi fanlari, texnika xavfsizligi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogikada ma'lumot olish va o'qish - o'qitish muammolari bilan didaktika - ta'lim va ta'lim berish nazariyasi bo'limi shug'ullanadi.

Ta'lim olish – bu bilim, ko'nikma va malakalar tizimini egallash jarayonidir, ya'ni bunda shaxsning ijodiy faoliyatining jihatlari, dunyoqarashi va o'zini tutish sifatlari tashkil topadi, hamda bilish qobiliyatlari rivojlanadi. Inson ma'lumotli bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib, o'zida fikrlar tizimini shakllantiradi.

Ta'lim olish vazifalari turli yo'llar bilan hal qilinadi. Ulardan eng asosiysi o'qitish hisoblanadi. O'qitish – bu ta'lim oluvchilarga yangi o'quv axborotini taqdim etish, uni o'zlashtirishni tashkillashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan, muntazamli tashkiliy jarayondir. O'qitish jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida o'zaro harakat yuzaga keladi va uning samardorligi o'qituvchi va talabani hamkorligiga bog'liq bo'ladi.

O'qish-o'rgatish - bu ta'lim oluvchilarga yangi o'quv axborotini taqdim etish, uni o'zlashtirishni tashkillashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan, muntazamli tashkiliy

jarayondir. O'qitishning asosiy natijasi – bu talabalar tomonidan o'zlashtirilgan *bilim, ko'nikma va malakalar*, ularda shakllangan *bilish ehtiyojlari va qobiliyatlaridir*.

*Bilimlarda* haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganadilar va u ularning yutug'i bo'ladi.

O'qitish jarayonining eng muhim natijasi – bu *ko'nikmadir*.

*Ko'nikma* – egallagan bilimlar asosida o'zgaruvchan sharoitlarda birorta faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Pedagogik amaliyotda ko'nikma **aqliy** va **amaliy** ko'nikmalarga bo'linadi.

Aqliy ko'nikma fikrlovchi avzifalarni amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Bular ijodiy faoliyat va ishlab chiqaruvchi faoliyat uchun muhim hisoblanadi.

Amaliy ko'nikmalar aniq amaliy harakatlarni bajarishga yo'naltirilgan, ya'ni ishlab chiqarish topshiriqlarini yechish, hisob ishlarini bajarish, ish rejasini tuzish va b. Amaliy ko'nikmalar aqliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi, bilimlarga tayanmasdan turib topshiriqlarni yechish, hisoblash, reja tuzishni amalga oshirib bo'lmaydi.

O'qitishning natijalaridan yana biri bu *malakalarni* egallash hisoblanadi.

**Malakalar** – bu, ko'p marta takrorlash natijasidagi mashinal (beixtiyoriy), harakatlardir. Kasbiy faoliyatda malakalar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular kuch, vaqt, e'tiborni tejaydi.

O'qitish o'zining asosiy (didaktik) vazifasidan tashqari boshqa vazifalarni bajaradi:

*Rivojlantiruvchi vazifani* mohiyati- o'qitish jarayonida shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy rivojlanishi, bilishga bo'lgan intilishlarini va ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Rivojlantiruvchi vazifa rivojlantiruvchi prinsipga asoslanib, uning mohiyati, o'qitish jarayonini shunday murakkab darajada tuzish kerakki, bunda talabadan ham aqliy ham irodaviy kuchlarni sarf qilsin. O'quv jarayoni talabada qoniqish, bilish quvonchini, hayron bo'lish, ya'ni u nimanidir bajara olishi hissini uyg'otishi zarur. Shu bois o'quv materiali juda ham sodda bo'lmashligi kerak va talaba faqat uni qaytarib qolmasdan, balki bilimlar asosida topshiriqlar zanjirini yecha olishi kerak.

**Tarbiyalovchi vazifa** –o‘qitishni tarbiyalash prinsipiga asoslanadi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari o‘zviy bog‘liqlikda bo‘ladi. Ularning umumiy maqsadlari-bo‘lg‘usi mutaxassilikning mohiyatini va ijtimoiy muhimligini tushunuvchan, o‘z mehnatining natijalariga kasbiy ma‘suliyatga ega bo‘lgan mutaxassisni shakllantirishdan iborat.

O‘quv jarayonida tarbiya o‘qitish mazmunini amalga oshirish yo‘li orqali, uni to‘g‘ri tashkillashtirish va zarur usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

O‘quv dargohi o‘qituvchisi o‘zining bilimi, o‘zining tutishi, ishga bo‘lgan munosati o‘quv faniga, maxsuska va mehnat faoliyatiga, hayotga bo‘lgan ayrim munosabatni aniqlab beradi. O‘qituvchini ta‘siri ko‘gina tarbiyalanuvchilar uchun o‘rnak bo‘ladi, shuningdek shunday yutuqlarga yo‘naltirilgan shaxsiy intilishlarini, ular o‘z o‘qituvchilarida ko‘radilar.

Ta‘lim berish vazifalarining yana bir yo‘li bu *mustaqil o‘qish* hisoblanib, bunda talabalarda mustaqil o‘qish uchun ularda qiziqishni uyg‘otish, bilish ehtiyojini paydo qilishda ularga yordam berish, mustaqil aqliy mehnatning ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi.

**Kasb** – bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo‘lib, u nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalarni bo‘lishini talab qilmay, balki bir xil bo‘lgan umum kasbiy bilimlarni ham bo‘lishini talab qiladi.

**Mutaxassis** – mavjud kasb doirasidagi aniq mehnat faoliyatining aniqlashtirilganligi.

Umumiy va shaxsni kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan, kasbiy ta‘lim, tarbiya, ta‘lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladigan kasbiy mustaqil o‘qish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini o‘qitish murakkab jarayon, *bo‘lg‘usi mutaxassisni kasbiy shakllanishini* bildiradi.



### **Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar**

1. Oliy va professional ta‘limda mutaxassilik fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalarini idrok xaritasi orqali yoritib bering.

2. Mutaxassilik fanlarni o'qitish metodikasi fanining asosiy tarmoqlari, fanlar tizimidagi o'rni va boshqa fanlar bilan aloqasini izohlab bering..



### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar**

1. Mutaxassilik fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

2. Mutaxassilik fanlarni o'qitish metodikasi fanining asosiy tarmoqlari haqida nimalar bilasiz?

3. Mutaxassilik fanlarni o'qitish metodikasi fanining fanlar tizimidagi o'rni va boshqa fanlar bilan aloqasi?

4. Mutaxassilik fan o'qituvchisining tayyorgarlik yunalishi deganda nimani tushunasiz?

## 2

### **MUTAXASSISLIK FANLARI O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA.**

#### **O'quv maqsadi**



*Talabalarni mutaxassislik fanlarni o'qitishda o'quv jarayoni yaxlit tizim ekanligi bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish*

#### **REJA:**

1. Pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalarining tahlili.
2. Mutaxassilik fanlarini o'qitishga tizimli yondashuv.
3. Mutaxassilik fanlarini o'qitishda pedagog shaxsi va uning metodik kompetentligi.



#### **Mavzuga oid tayanch so'zlar:**

*Jarayon, o'quv jarayoni, mutaxassislik, pedagog shaxs, yondoshuv. Tizimli yondoshuv, maqsad, pedagogic jarayon*

**1. Mutaxassilik fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim tushunchasi va mohiyati.** Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli

usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi roli talabalarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rinadi.

Ta'lim o'qituvchining talabalar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U talabalarga o'quv materialini mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va talabaning faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda talabaning o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqachai aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Mutaxassilik fanlarini o'qitish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro muloqot yuzaga keladi. "Muloqot" tushunchasi "ta'lim" tushunchasidan ko'ra keng ma'noga ega.

Ta'lim talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Ta'lim va pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni (didaktik jarayon) sinonim tushunchalar emas. Jarayon bu yaxlit pedagogik hodisa, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimining muayyan holatini o'zgartirish hisoblanadi. Jarayon mohiyatini V.P.Bespalko tomonidan taklif etilgan quyidagi formula asosida to'laqonli anglash mumkin:

$$DJ = M + Tf + B$$

Bu erda; DJ – didaktik jarayon;

M – talabalarning o'qish (ta'lim olish) motivatsiyasi;


Tf – talabalarning o'zlashtirish faoliyati;

B – talabalarning bilish faoliyatlarini boshqarish.

**Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifi.** Pedagogik fanlarini o'qitish jarayonining “yaxlitligi” “tizimliliigi” va “majmuaviyligi”ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, pedagogik fanlarni o'qitish jarayonining yaxlitligi uning tizimliliigi bilan uzviy bog'liq.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, pedagogik fanlarni o'qitish yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va talabalarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida quyi-dagicha namoyon bo'ladi (1-chizma):



1-chizma. Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayoni tuzilishining andozasi (modeli)

Barcha tarkibiy qismlarning o'zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo'luvchi pedagogik fanlarni o'qitish jarayonining negizini o'qituvchi va talabalarning ta'limiy faoliyatlari tashkil etadi.

**2. Mutaxassilik fanlarini o'qitish funksiyalari.** "Funksiya" tushunchasi "mutaxassislik fanlarini o'qitish vazifalari" tushunchasiga yaqindir. Mutaxassislik fanlarini o'qitish funksiyasi mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa mutaxassislik fanlarini o'qitishning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Metodika mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta'lim berish funksiyasi mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonining talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mutaxassislik fanlarini o'qitish natijasi sifatida bilimlarning to'raligi, chuqurligi, tizimligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

*Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.*

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilar kiradi.

Mutaxassilik fanlarni o'qitishning rivojlantiruvchi funksiyasi mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talabani rivojlanishi sodir bo'lishini ko'rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emosional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan

ta'lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o'qituvchi va talabani shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o'zaro munosabatlarida rivojlantirish funksiyasi yanada samaraliroqdir.

Ta'limning talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifoladanadi. XX asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi.

Bularning hammasi fanlarni o'qitishni tashkil etish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, talabani har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, ob'ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi.

Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik ob'ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va boshqalar)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Tarbiyalash funksiyasi. Tarbiyalash funksiyasi mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida etakchi o'rin tutadi.

Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Mutaxasilik fanlarini o'qitishning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, pedagogik fanlar mazmunida aks etadi.

Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va talabalarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, talabalarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e'tirof etadi. Bu usul pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida talabalar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish-istaklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi.

**3. O'qituvchi va talabalarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi.** Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayonida talabaning faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi talabalarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) rejalashtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (rag'batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi talabalarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, mashg'ulot olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

Talabalar faoliyatini tashkil etish talabalar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

**Mutaxasilik fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning faoliyati.** Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. **Bilim olish** borliqni idrok etish, o'rganish, mashg'ul qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni, ta'limiy

xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti **o'quv harakatlari** (operasiyalari) sanalaib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiradi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» - eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda talabalardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab etish talab etadi. Pedagogik jarayonda talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini etarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavflidir.

Talabalarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to'la tushungan holda o'zlashtirish shartlari bilan tanishtirib, ularga o'zini o'zi nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O'zini o'zi nazorat qilishda talabalar ular qo'llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o'z mehnati natijalarini baholashi kerak.

**Natijalarni baholash, nazorat qilish va tahlil etish** o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida talaba tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini analiz qilishni amalga oshirish o'qituvchining shunga o'xshash o'rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish talabalarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

**Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi.** Talabalar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish

jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, talabalar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilish zarur: idrok etish, o'quv materialini anglab etish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.

Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. SHuning uchun birinchi navbatda talabalarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. SHu asosida o'quv materialini bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich talaba qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida etarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib etganda yakunlanadi.


Ikkinchi bosqich – o'quv materialini anglab etish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmuni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialini xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda talaba eng asosiy. ikkinchi darajali hamda qo'shimcha. tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. Talaba o'quv masalasini echish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab etsa, ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi talabalar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab etmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida talabalar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni

bajarish, masalani echish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab er maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin. Bilimlarni egallab olish bosqichlari sxematik ko'rinishi quyidagichadir:

#### Bilimlarni egallash bosqichlari



**4. O'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajalari.** 1. Reproduktiv faoliyatda o'zlashtirilgan (HMA) uning algoritmlari va qoidalari faqat har xil ko'rinishlarda qayta ishlab chiqiladi (ta'limda aynan qayta gapirib berishdan tortib, o'xshash vaziyatlarda bir oz o'zgartirib aytishgacha), o'quv predmetida dastlab bilib olingan ma'lumotlarga talaba faoliyat davomida biror yangi axborot qo'shmaydi. Algoritmik harakatlar, ya'ni yaxshi tanish sharoitlarda va aniq tasvirlangan qoidalarga binoan harakat qilish reproduktiv faoliyat uchun xarakterlidir. Masalan, talaba umumiy ta'lim, ixtisoslik predmetlari bo'yicha o'quv qo'llanmalarida barcha masalalar (vazifalar)ni ilgari o'zlashtirilgan (bilingan) qoidalar va algoritmlarga binoan echadi, talabaning bunday faoliyati reproduktivlik doirasidagi harakatlardir.

2. Mahsuldor faoliyat jarayonida o'quvchi har doim o'quv predmetidan o'zlashtirib olinganiga nisbatan yangi harakat – (HMA) yaratadi, ya'ni o'quv qo'llanmasining mazmunidan farq qiladigan yangi axborotni yuzaga keltiradi. Yangi axborotni yaratish ham doimo izlanuvchanlik faoliyatida oldingi tajribaga tayanadi.

3. Reproduktiv va mahsuldor faoliyatlar o'zaro bog'langan bo'lib, bilim egallashdagi ikki bosqichdir. Talaba ham reproduktiv, ham mahsuldor faoliyatga doir harakatni har bir masalani echish jarayonining elementi sifatida bajaradi. Psixologik-pedagogik fanlarda masala deganda ma'lum harakat yordamida bajarish mumkin bo'lgan ma'lum bir maqsad tushuniladi. SHunday qilib, maqsad vaziyat va harakat masalaning komponentlari hisoblanadi. Reproduktiv va mahsuldor faoliyatni qo'llash komponentlari masalalarda ko'rsatilgan varinatlarga bog'liq bo'ladi.

4. **Bilimlarni o'zlashtirishning 1-darajasi.** 1-daraja (A I). Agar masalada uning echishning ma'ysadi, vaziyati va harakati ko'rsatilgan bo'lsa, talabadan bu uchala komponent masalaning tuzilishidagi barcha komponentlarga mos kelishi haqida xulosa chiqarishgina talab etiladi, bu bilish faoliyati hisoblanadi. Talaba uni ob'ektlar, jarayonlar yoki harakatlar haqidagi ilgari o'zlashtirilgan axborotni qayta idrok qilgandagina bajara oladi. Bu tashqaridan algoritmik ko'rinishda berilgan algoritmik faoliyatdir.

5. **Bilimlarni o'zlashtirishning 2-darajasi.** 2-daraja (A II). Agar masala(vazifa)da maqsad va vaziyat berilgan bo'lsa, o'quvchidan uni echish uchun oldin o'zlashtirilgan (o'rganilgan) harakatni qo'llash talab etiladi, bu reproduktiv algoritmik harakat. Talaba uni – bu harakatni bajarishning oldin o'zlashtirilgan mo'ljali haqidagi axborotni mustaqil qayta tiklab va qo'llab bajaradi. Buni tipik masala deyiladi.

6. **Bilimlarni o'zlashtirishning 3-darajasi.** 3-daraja (A III). Agar masala (vazifa)da maqsad berilgan bo'lib, lekin unga erishishning vaziyati noaniq bo'lsa, talabadan esa vaziyatni aniqlash (to'ldirish) hamda bu notipik masalani echish uchun oldin o'zlashtirilgan harakatni qo'llash talab etilsa, bu evristik tipdagi

mahsuldor harakat hisoblanadi. Talaba bunday faoliyatni tipik harakatning ilgaridan ma'lum mo'ljal asosini mustaqil o'zgartirish jarayonida o'zi uchun yangi axborotni topish va notipik masalani echish uchun sub'ektiv yangi (HMA)ni qurish jarayonida bajaradi. Bu evristik faoliyat bo'lib, tayyor algoritm yoki qoidaga binoan bajarilmaydi, balki harakatning o'zi davomida yaratilgan yoki qayta o'zgartirilgan algoritm yoki qoidaga binoan bajariladi.

**7. Bilimlarni o'zlashtirishning 4-darajasi.** 4-daraja (AIV). Agar vazifa (masala)da faoliyatning maqsadi umumiy tarzdagina ma'lum bo'lsa, maqsadga erishish uchun vaziyatni ham, harakatni ham ishlab topish talab etilsa, bu ijodiy tipdagi mahsuldor faoliyatdir, buning natijasida faoliyatning ob'ektiv yangi mo'ljal asosi yaratiladi. Faoliyatni bajarish jarayonida ob'ektiv yangi axborot olinadi. Bunda kishi o'ziga ilgaridan ma'lum bo'lgan sohada "qoidasiz" harakat qiladi, harakatning yangi qoidasini yaratadi, ya'ni ijodiy (tadqiqotchilik) faoliyatini bajaradi. Tadqiqotchilik va yaratuvchanlikni taqozo qiladigan faoliyatlar bunga misol bo'la oladi.

**5. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish.** Jamiyatning ta'lim sohasidagi buyurtmasi (maq-sadi) umumiy tarzda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Hatto o'quv dasturlarida ko'rsatilgan maqsadlar ham umumiy tarzda bir-ikkitadan jumladan iborat bo'ladi, ulardan aniq bir narsani anglash qiyin. Agar **jamiyat – davlat buyurtmasidan – ta'lim tizimining maqsad va vazifalariga, undan shu o'quv yurtining, o'quv predmetining, uning bo'limlari, mavzulari, ayrim o'quv masalalarining maqsadi, vazifasiga qarab borilsa, o'ziga xos maqsadlar tizimi (daraxti) hosil bo'ladi.**

**Maqsadni ta'lim mazmuniga binoan belgilash.** O'qituvchi odatda mashg'ulotning maqsadini mashg'ulotning maqsadini "Birinchii bobning mazmunini o'zlashtirish", "Bobur lirikasini o'rganish" kabi belgilaydi. Bunda ta'lim maqsadi o'rganilayotgan predmetning, bilimning mazmunini ko'rsatadi. Maqsad bunday ifodalanganda ta'lim maqsadiga erishilganligini aniqlab

bo'lmaydi. Keltirilgan misollardagi "maqsadlar" mavhum ulardan maqsadga erishilganligini o'lchab, aniqlab bo'lmaydi.

**Ta'lim maqsadini o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash.** "Boburning badiiy-pedagogik merosini o'rgatish", "10 ichida qo'shish amaliga doir misollar ishlatish". Maqsadni bunday qo'yishda e'tibor o'qituvchining faoliyatiga qaratiladi. Bunda ham pedagog faoliyatining natijasini aniqlash qiyin.

**Ta'lim maqsadini talaba shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash.** Masalan, "Voqelikni tahlil etish malaka-sini hosil qilish", "Ekologik hodisalarga qiziqishni shakllantirish" kabilar. Ta'lim maqsadini bunday umumiy tarzda belgilash o'quv yurti, o'quv fani yoki bir guruh o'quv predmetlari darajasida bo'lishi mumkin. Lekin ayrim mashg'ulot, darsning maqsadini bunday keng ifodalash foydasiz. Bunda ham mashg'ulotda qanday natijaga erishilganligini bilib bo'lmaydi.

**Ta'lim maqsadini talabaning o'quv-bilish faoliyati orqali qo'yish.** Mashg'ulotning maqsadi "Ijodiy tafakkurni shakllantirishga doir vazifalarni hal etish". Bir qarashda ta'lim maqsadini bunday qo'yish mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazishga aniqlik kiritganga o'xshaydi. Lekin bunda ham eng muhim narsa – mashg'ulotda ko'zda tutilgan natija e'tibordan chetda qoladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta'lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati orqali belgilash **mashg'ulotdan kutiladigan natija haqida to'liq tasavvur bermaydi. Ta'lim natijasini talabaning ko'zga ko'rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin.** O'qituvchi ta'lim maqsadi – natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan belgilarini (harakat, nutq) yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan **maqsadni belgilash** usulining mohiyati shundan iboratki, **ta'lim maqsadi, talabaning harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak va bu harakatlarni muallim yoki biror ekspert ko'rib, eshitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lsin.**

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta'lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati orqali belgilash mashg'ulotdan kutiladigan natija haqida to'liq tasavvur bermaydi. **Ta'lim natijasini talabning ko'zga ko'rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin.** O'qituvchi ta'lim maqsadi – natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan belgilarini (harakat, nutq) yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan **maqsadni belgilash usulining mohiyati** shundan iboratki, **ta'lim maqsadi, talabning harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak va bu harakatlarni muallim yoki biror ekspert ko'rib, eshitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lsin.**

**Maqsad**—oldindan anglangan va rejalashtirilayotgan natija. Uni yutug'i insonni ongli, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini talab etadi. Maqsad va maqsadni belgilovchi faoliyat- faqat bir jarayonning, ya'ni belgilangan natijaga erishish jarayonini elementi hisoblanadi. U o'ylab chiqilmaydi, balki rivojlanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqadi. Asosiy maqsadni tanlashni unga erishish vositalari aniqlaydi: metodlar, ish uslublari, o'qituvchilar.

Maqsadni belgilash jarayonini butun bir maqsadlar ierarxiyasini joylashtirish bo'yicha o'qituvchining murakkab, tizimli faoliyati sifatida ko'rish muhim: mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan umumiy talabdan – belgilangan yo'nalishdagi mutaxassis shaxsiga bo'lgan talab orqali ifodalanuvchi, berilgan maxsus, kasbi bo'yicha ta'lim maqsadi orqali, - aniq fan bo'yicha ta'lim maqsadiga.

**Fanga oid maqsadlar** umumiy, fanni xususiyatlovchi va alohida turlarga bo'linadilar.

**Umumiy maqsadlar** o'quv faniga taaluqli bo'lib, butun ta'lim olish davri mobaynida o'rganiladi.

**Fanni xususiyatlovchi maqsadlar** talaba berilgan fanni bir yil mobaynida o'rganishi natijasida, yechishni o'rganib olishi lozim bo'lgan vazifalar bilan bog'liq.

**Alohida maqsadlar** –ushbu o'quv fanlarini aniq bo'limlari, mavzularini

o'rganish maqsadlari.

**Pedagogik maqsad-** bu o'qituvchi va talaba tomonidan ularning o'zaro harakatini umumlashgan fikriy paydo bo'luvchilar shaklida oldindan ko'ra bilishi

**O'qituvchi maqsadi-** bu o'qitish-o'rgatish. O'qituvchi uni belgilashi bo'yicha aniq harakatlarni bajaradi: ajratadi, tahlil qiladi, ifodalaydi.

**Talabalar maqsadi-**bu o'qish-o'rganish. Har bir talaba turli aniqlikda, to'liqlikda va anglagan holda o'zining maqsadlariga intiladi: kasbiy harakatlarga o'rganish, boshqalarga nisbatan vazifalarni yaxshi bajarish, topshiriqlarni tez bajarish

Pedagogik amaliytda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etilganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jara'nni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

□ tushunchaga oid qism - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidlarini o'rganishga yo'l;

□ ta'lim texnologiyasining tarkibiy qism va harakatlanuvchi tuzilma - ta'lim jara'nni bashoratlash va loyihalashtirish asosi to'g'risida tushuncha;

□ talimiy texnologiyalarning konseptual asoslari - har qanday ta'lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya asos bo'ladi;

□ maqsadni belgilash - agar pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa va o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, boshlanish shartlari ma'lum bo'lsa, ta'lim jara'nni loyihlashtirish mumkin;

□ ta'lim berish modeli - maqbul yo'llar (usul va shakllar) va vositalar yig'indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtda ob'ektning boshlang'ich holatini o'zgartirish bo'yicha ko'zlana'etgan natijalarga erishish kafolati;

□ boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi: bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o'zgartirish

to'g'risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lim jara'ini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

**2. Mutaxasilik fanlarini o'qitishda o'quv maqsadlarini belgilash yo'llari**  
O'qitish rejasini tuzishning har bosqichida o'qituvchining boshqaruv harakatlarini ko'rib chiqamiz.

*Maqsadni belgilash* - didaktik vazifalarni aniqlash, o'quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo'naltiradi.

*Tashxis* - ta'lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy-texnik imkoniyatlarni o'rganish. Bu maqsadni to'g'rilash zarurligi va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

*Bashorat qilish* - o'rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o'quv faoliyati natijalarini oldindan ko'rish.

*Loyihalash* - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash.

Tashxis, bashorat qilish va loyihalash rejani ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

*Rejalashtirish* - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

*Tashkillashtirish* - ta'lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish.

*Axborotli ta'minlash* - o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo'l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig'ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o'zgartirishni, ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

*Nazorat, baholash va o'zgartirish kiritish* - rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta'sir etish ob'ekti o'zgarishini muvofiqlash.

*Tugallangan jarayon tahlili* - samarasizlikni, ularning paydo bo'lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo'l qo'ymaslik choralarini aniqlash.

Odatdagi maqsadni belgilash yo'llari	Yo'lni samaradorligini baholash
1. Maqsadni o'rganilayotgan mazmun orqali aniqlash: "... hodisani o'rganish", "... teoremani o'rganish".	Salbiy tomoni: vositaviy hisoblanmaydi, natija aniq emas.
2. Maqsadni o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash: "... bilan tanishtirish", "... to'g'risida tushuntirish".	Salbiy tomoni: o'qituvchi diqqatini o'zining harakatlariga qaratadi, natija aniqlanmagan.
3. Maqsadni o'quvchilar faoliyati orqali belgilash: "... topshiriqni yechish", "... mashq bajarish".	Salbiy tomoni: faoliyatni tashqi tomoniga diqqat qaratiladi, uning oqibatlari- o'quvchi rivojlanishidagi o'zgarish belgilanmagan.
4. Maqsadni o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishining aqliy, emotsional ichki jarayonlar orqali belgilash: "... ko'nikmani shakllantirish", "... bilish mustaqilligini rivojlantirish", "... munosabatlarni shakllantirish".	Ijobiy tomoni: o'qitish umumlashgan maqsadlar darajasida. Salbiy tomoni: o'qitish aniq dars, mavzu maqsadlari darajisida (natijalar ko'rsatilishi, aniqlashtirish lozim).
5. Maqsadni talabalarni aniq harakatlarida ifodalangan, o'qitish natijalari orqali belgilash: "aniq dalil, qoida, tushunchalarni biladi", "... tushunadi ... o'zgartiradi", "... bajara	Ijobiy tomoni: o'zlashtirish etalonini aniqlash imkonini beruvchi, vositaviy maqsadni belgilash yo'li.

oladi”, "... uchun qoidani qo'llaydi".

**Mutaxasilik fanlarini o'qitishda bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilash**

**Bilimlarni o'zlashtirish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini birday qilish**

Ta'lim oluvchilar tomonidan BMK o'zlashtirish darajasi	Ularga erishishning maqsad va natijalari shakllantirilishi. O'quv faoliyatini baholash mezonlari	Ushbu natijalarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakatlarining tavsifi
I. Bilishlikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)	<p><i>Ta'lim maqsadi:</i> ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish.</p> <p><i>Natijalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• (ma'lum, tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi;</li><li>• (o'z so'zlarida) qaytarib beradi;</li><li>• tashqi belgi va xususiyatlari bo'yicha biladi, taniydi;</li><li>• (so'zma-so'z) yozadi.</li></ul> <p><i>Baholash mezonlari:</i> axborotni xatosiz qayta tiklaydi.</p>	<p><i>Ta'lim beruvchi:</i> ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborot manbai bo'ladi.</p> <p><i>Ta'lim oluvchilar:</i> axborot - retseptiv (qabul qilish) faoliyatini amalga oshiradi: eshitadi, kuzatadi, o'quv axborotini <i>eslab qoladi</i></p>

		<i>va xatosiz qayta tiklaydi.</i>
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanish)	<p><b>Ta'lim maqsadi:</b> ...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalarini shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash).</p> <p><b>Natijalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• asosiy fikrni ajratadi;</li> <li>• baho beradi, yakun yasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi;</li> <li>• tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchli dalillar keltiradi, solishtiradi va taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi;</li> <li>• mustaqil vazifalarni yechadi;</li> <li>• tanish sharoitlarda (namuna) tayyor ketma-ketlik bo'yicha harakatlarni bajaradi: o'lchashlarni o'tkazadi, sinaydi; tekshiradi, (tizimlarni, jihoz va boshqalarni) tashxis qiladi; yechadi, yig'adi; texnik topshiriq, chizmalarni o'qiydi; ishlab chiqarish ishlarini bajaradi, (jihozlarni) ishlatadi va boshqalar;</li> <li>• referat tayyorlaydi, tuzadi va grafik, sxema, jadvallarni o'qiydi.</li> </ul> <p><i>Baholash mezonlari:</i> o'quv faoliyat yo'llarini biladi, bor bilimlarini o'zgartiradi</p>	<p><i>Ta'lim beruvchi:</i> ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.</p> <p><i>Ta'lim oluvchilar:</i> (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduktiv (qayta tiklash) faoliyatini amalga oshiradi: bilimlarni ongli o'zlashtiradi, ularni mustahkam eslab qoladi va qo'llaydi: o'xshash holatda <i>harakatlarni asos bilan namunali o'rganganliklari bo'yicha ta'lim beruvchi rahbarligi ostida bajaradilar.</i></p>

	va ularni tanish sharoitlarda qo'llaydilar: namuna, o'xshashlik bo'yicha bajaradi.	
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik) (harakatlarni tanlash)	<p><b>Ta'lim maqsadi:</b> shaxsiy faoliyat tartibini tashkil etish va shu bo'yicha mustaqil ijodiy izlanishni olib borish va bilimlarni izlab topish, ularni yangi holatlarda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish</p> <p><b>Natijalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• shaxsiy faoliyatini rejalashtiradi va tashkillashtiradi;</li> <li>• kerakli axborotni topadi, tanlaydi, qo'llaydi va yangidan hosil qiladi;</li> <li>• yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi;</li> <li>• bilim va malakalarni yangi holatlarda tanish va nostandart topshiriqlarni, muammoli holatlarni yechish uchun qo'llaydi;</li> <li>• (jihaz va boshqalarni) ishlatish bo'yicha tayyorlov qo'llanmasini o'qiydi va sharhlaydi, tushuntirish olib boradi. Chizma va jadvallarni; (kompyuter va boshqalarni) tizimdagi to'liqsiz tashkil etuvchilarni to'ldiradi va almashtiradi;</li> <li>• nosozliklarni mantiqan izlanishini o'tkazadi, kerak bo'lsa ta'mirlaydi, tiklaydi, almashtiradi, sozlaydi, ya'ni modifikatsiyalaydi (turlanishi, ko'rinishi, shakllanishi, o'zgarishi).</li> </ul>	<p><i>Ta'lim beruvchi:</i> ta'lim oluvchilar faoliyatini yo'naltiradi.</p> <p><i>Ta'lim oluvchilar:</i> ijodiy fikrlovchilik turdagi natijaviy ijodiy faoliyatni amalga oshiradi: mustaqil tuzilgan tartib bo'yicha mustaqil izlanish va bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni izlab topishni olib boradi, o'zlashtirilgan bilimlarni yangidan hosil qiladi va ularni yangi holatda qo'llaydi</p>

	<p><i>Baholash mezon:</i> yangi holatda faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi, yangidan hosil bo'lgan bilimlari asosida harakatlarni bajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi</p>	
<p>IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)</p>	<p><i>Ta'lim maqsadi:</i> muammoni mustaqil ajratish va yechish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlarda harakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish)</p> <p><i>Natijalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• muammoni mustaqil ajratadi va uni hal etish yo'lini topadi;</li> <li>• tadqiqot ob'ekti va predmetini topadi, tadqiqot farazi va vazifalarini ilgari suradi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, tajriba o'tkazadi, tajriba natijalari asosida farazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo'llash chegarasini aniqlaydi</li> </ul> <p><i>Baholash mezon:</i> tadqiqotchilik turdagi maqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondoshish yo'llariga ega, tahlil qilish malaka va ko'nikmalarni namoyish etadi</p>	<p><i>Ta'lim beruvchi:</i> ta'lim oluvchilarga maslahat beradi</p> <p><i>Ta'lim oluvchilar:</i> tadqiqotchilik turdagi mahsuldor faoliyatni amalga oshiradi</p>



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. O'qitishni rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalari nimalardan iborat?
2. O'qitishning asosiy natijasini nimadan iborat, izohlab bering..



## Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. “Maqsadni belgilash”, “maqsad”, “natija” toifalariga kengaytirilgan bayonni bering.

2. Bilimlarni o‘zlashtirish va o‘quv faoliyati yo‘llariga darajali yondashuv asosida ta‘lim maqsadlarini qanday birday qilish savoliga ochiq yoritib beruvchi, javobni bering.

3. O‘quv mashg‘ulotida ta‘lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirish bo‘yicha o‘qituvchining harakat tartibini ayting.

4. Aytingchi, sizning fikringizcha, o‘quv mashg‘ulotida ta‘limiy texnologiya tuzilmasi va ta‘lim berish texnologiyasi tuzilmasining farqli tomonlari nimadan iborat? Javobingizni asoslab bering.

5. O‘quv mashg‘ulotida ta‘lim texnologiyasi modelining kengaytirilgan tasvirini bering.

6. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering.

7. Yaxlit pedagogik jarayonning komponentlariga nimalar kiradi?

8. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlari deb nimaga aytiladi?

9. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlariga tavsif bering.

10. Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillari tushunchasiga ta‘rif bering.

11. Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillariga izoh bering.

**O'quv maqsadi**

*Talabalarda maxsus fanlarni o'qitishning qonuniyatlari va tamoyillari uning mohiyati haqida nazariy bilimlarni shakllantirish*

**REJA**

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning tashqi va ichki qonuniyatlari.
2. Tashqi qonuniyatlar - o'qitish natijalarining ijtimoiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va natijaviylikka yo'naltirilganligi.
- 3..O'quv jarayoni tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.
- 4.Mutaxassislik fanlarini o'qitishning didaktik tamoyillari: ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik, ishonchliqlik, faollik, ko'rgazmalilik, individuallik

**Mavzuga oid tayanch iboralar:**

*Tashqi va ichki qonuniyatlari, o'qitish natijalarining ijtimoiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va natijaviylikka yo'naltirilganligi, o'quv jarayoni, tarkibiy qismlari, 'qitishning didaktik tamoyillari: ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik, ishonchliqlik, faollik, ko'rgazmalilik, individuallik*

Ta'lim jarani pedagogik jarayonining ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini —Didaktika tushunchasi bilan ham ifodalanadi. —Didaktika so'zi grekcha —Didasko so'zidan olingan bo'lib, —O'qitish, o'rgatish degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish ob'ekti o'quv jaraeni, o'quv jaraenining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jaraenining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani esh avlodga yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi. Albatta,

avloddan-avlodga o'tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunëqarashini shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talabalaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'sib kelaëtgan ësh avlod ta'lim jaraënida:

1. Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi;
2. Kerakli malakalarga ega bo'ladi;
3. Ko'nikmalar hosil qiladi;

O'quv jaraënida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rgatilib bu jaraën ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jaraëni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta'lim jaraëning samarasini belgilaydi. Albatta bu jaraënda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jaraënida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jaraëni o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jaraën bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish talabalarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jaraënidir. Bu passiv tomoshabinlik jaraëni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan xaqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jaraënidir. Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan ësh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini

yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib boraётgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishili kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajm ini belgilash hamda bu jaraёnda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jaraёnida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jaraёnida eng asosiy, eng muhim bilimlar- fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z im koniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmagani holda, ёsh avlodning sog'ligiga ziён yetkazmagani holda yechimini topishga harakat qilmoqdami.

Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, haёtiy talablarning darajasi ham ortib boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgani holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgani holda ish olib borishi kerak degani xulosaga kelami. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi haётga emas, balki kelajakdagi haётga tayёрlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ta'limning yana

bir o'ziga xos xususiyati uning tarbiyaviy xarakterga ega ekanligidir. Har qanday tarbiya asosida bilim mavjud bo'lganidek har qanday ta'lim o'zida ma'lum tarbiyaviy ta'sirni mujassamlashtiradi. Bilimlarning talabaniing faqat fikrlash qobiliyatiga emas, balki ichki kechinmalariga, his-tuyg'ulariga, fazilatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarni o'rganish talabaniing ma'naviyatini shakllanishida ahamiyatlidir. Shuning uchun ta'lim muassasalari tarixan faqat ilm maskanlarigina bo'lib qolmasdan, balki tarbiya uchoqlari sifatida ham qabul qilingan. Ta'lim va tarbiya bir jaraenning ikki tomoni bo'lib, biri- birini to'ldirib keladi. Bilim bu kuch-qudrat, ana shu kuch- qudrat ma'naviyati yetuk inson qo'lida rivojlanishga xizmat qiladi. Ma'nan qashshoq inson bu qudratdan noo'rin foydalanishi va jamiyatga ziæn yetkazishi ehtimoldan holi emas. Bunday holatlar tarixda juda ko'p marotaba takrorlangan va bu isbot talab qilmaydigan aksiomaga aylangan. Demak, ta'lim albatta tarbiyaviy asosga ega bo'lishi va talabalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki tarbiyalashdek murakkab jaraenini ham o'z zimmasiga olishi lozim. Ta'lim jaraeni ta'sirida talabaniing aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirish va yangi pog'onaga ko'tarish asosiy masalalardan biridir. Aynan ta'limning rivojlantiruvchi xususiyatini ikki darajaga ajratib tahlil qiladi. Zaruriy rivojlanish. Bu talaba tayærgarligidagi mavjud daraja, boshqacha qilib aytganda, talabadagi bor daraja, ya'ni talabaniing bugungi o'quv jaraenigacha bo'lgan tayærgarlik darajasidir. Bu daraja talabaniing ishni mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Yuqori darajadagi rivojlanish. Boshqacha qilib aytganda, shu dars davomida ko'tarilish kerak bo'lgan darajadir. Bu talaba hozircha qila olmaydigan,

lekin ko'mak vositasida eplay oladigan ishdir. Talaba ana shu o'zi uchun yangi bo'lgan va bajarishga kuchi yetadigan vazifani bajarish davomida ikkinchi darajaga ko'tariladi. Lekin bu vazifa talabaniing taraqqiæt zonasida joylashgan bo'lishi shart, aks holda rivojlanishga erishish qiyin . Yaqinlashib qolgan taraqqiæt zonasiga kirgan har narsa ta'lim jaraenida zarur rivojlanish

darajasiga o'tadi. Shunday qilib, yaqinlashib qolgan taraqqiёт zonasi rivojlanishdan ilgari ketadigan ta'lim vositasida yaratiladi. Ta'limning har bir bosqichi taraqqiётning erishilgan bosqichiga tayanadi va muayyan bosqichni ko'zlagan holdanavbatdagi bosqichni tayёрlab beradi. Demak, ta'limning yana bir zaruriy xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir. Ta'limning ana shu yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda va ularga amal qilgan holda o'quv jaraёnini tashkil qilish shubhasiz ta'lim samaradorligini oshiradi.

## **2. Ta'limni isloh qilish tamoyillari**

Ta'limi tizimini tuzilishining quyidagi yangi tamoyillardan joriy etildi:

-ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi hamda xalqchilligi;

-ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;

-davlat ta'lim standartlari doirasida har bir kishiga millati, dinidan qat'iy nazar ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi;

-davlat ta'lim tizimining ilmiyligi va dunёviyligi;

-ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarining ustivorligi;

-tayanch (to'qqiz sinf darajasida) ta'limning majburiyligi;

-ta'lim standartlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan ёndashuv bo'lishiga asoslanganligi;

-ta'lim muassasalarida chet tillarini jiddiy o'rganish, din tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va jahon madaniyatini tarixi sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratilganligi;

-ta'lim muassasalarining turli siёsiy partiyalar va ijtimoiy-siёsiy harakatlarning ta'siridan holiligi;

-amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shaklida ta'lim muassasalarining teng huquqliligi;

-bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;

-tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash;

-pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash va boshqalar.

Ta'limni quyidagi yo'nalishlarda isloh qilish vazifalari belgilab olindi:

-umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan holda ta'lim

- tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg'usi asosida o'zgartirish va takomillashtirish;

-ta'lim samaradorligini tinmay oshirish, jahon andozalari darajasiga olib chiqish;

-variantiv o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar yaratish;

-bilimdonlik va iste'dodni qo'llab-quvvatlash;

-ilg'or tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;

-ta'lim-tarbiyada bosh islohotchi bo'lgan pedagog, tarbiyachilarning yangi avlodni tayirlashga kirishish;

-ta'lim muassasalarining moddiy-texnika asosini mutahkamlash, ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv jara'éniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish;

-ta'lim tizimini, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

-isloh g'oyalarini iloji boricha viloyat, tuman, ukuv muassasasi pedagogik jamoalariga tezroq yetkazish, singdirish, amalga oshirish:

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qaerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda taraqqiёт, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

-ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi:

-ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv yurtlarining mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

-ta'limning insonparvarligi - inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiёjlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunëqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish;

- ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiëtining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

-ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jaraëning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

-iqtidorli ëshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

### Uzluksiz ta'limning asosiy tamoyillari



Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat

-ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash. tarbiyachi, pedagog, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

-davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

-ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta kurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiet va madaniyatning jahon miqësidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

-majburiy umumiy oʻrta taʼlimdan oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimiga oʻtilishini taʼminlash;

-maxsus, kasb-hunar taʼlimining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi oʻquv muassasalarini vujudga keltirish;

-ilgʻor texnologiyalarni keng oʻzlashtirish, iqtisodiydagi tarkibiy oʻzgarishlar, chet el investitsiyalari koʻlamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish bilan bogʻliq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar boʻyicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayёрlash, qayta tayёрlash va ularning malakasini oshirish;

-milliy mustaqillik tamoyillarini va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustivorligi asosida taʼlimning barcha darajalari va boʻgʻinlarida taʼlim oluvchilarning maʼnaviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

-taʼlimni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, taʼlim muassasalarini mintaqalashtirish;

-taʼlim olishda, shuningdek talabalarni maʼnaviy ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

-taʼlim jaraeni va kadrlar tayёрlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

-taʼlim tizimini moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa tarzdagi resurslar bilan taʼminlash mexanizmlarini shakllantirish;

-uzluksiz taʼlimni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

-taʼlim va ilm-fan bilan bogʻliq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

-tub yerli millatga mansub boʻlmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular oʻz ona tillarida taʼlim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

-ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarning izchilligi asosida ta'minlanadi.

**Ta'lim tamoyillari** – o'qitish nazariyasining boshlang'ich qoidalari bo'lib, unga pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchilari amal qilishi kerak.

*Faollik tamoyili* – talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo'lsin.

*O'qitishda nazariya va amaliyotning bog'liqligi tamoyili.* Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish ham kerak.

*O'qitishning ko'rsatmalilik tamoyili* shuni tasdiqlaydiki, agar talabalarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan muayyan hissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdiridagina ular bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. Buyum qanchalik har tomonlama idrok qilinsa, talabalarning shu buyum haqidagi bilimi ham shunchalik to'la va chuqur bo'ladi.

*O'qitishning tushunarli bo'lishi tamoyili* o'rganilayotgan material mazmuni, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlariga mos bo'lishini talab etadi.

*Namunalardan foydalanish tamoyiliga* ko'ra o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalar tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi yoki yomon mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

*Didaktik reduksiya tamoyilida* talabanning bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun bu o'quv material kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. Agar o'quv materialining hajmi juda katta bo'lsa, undan kerakli qismlar tanlab olinishi kerak. Majmuaviy va murakkab topshiriqlar osonlashtirilishi lozim, lekin ma'nosi o'zgarmasligi shart.

*Ilmiylik tamoyili* talabalarga o'rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

*O'qitishning tarbilovchi xarakteri tamoyili* – o'qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biriga uzviy bog'liqligini anglatadi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarning bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi faolligi va mustaqilligini, bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

*O'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili* – tizimlilik va izchillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalar bilim, ko'nikma hamda malakalarni izchillik bilan egallab boradilar va ayni zamonda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar.

*O'qitishda talabalarning ongliligi va faolligi tamoyili* – bu o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

*Talabalarning yoshi va individual imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili* – har bir talaba o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarini o'rganishi va hisobga olishi ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va har bir talabanning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Uzliksiz ta'lim tamoyillarini klaster usulida tasvirlang
2. O'qitishni rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalari nimalardan iborat?
3. O'qitishning asosiy natijasini nimadan iborat, izohlab bering..



### Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Таълим ислохотлари доирасида қандай ишлар амалга оширилди?
2. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning tashqi va ichki qonuniyatlarini izohlang.
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning didaktik tamoyillari: ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi, tizimlilik, ishonchliqlik, faollik, ko'rgazmalilik, individuallik tamoyillarini izohlang
4. Tashqi qonuniyatlar - o'qitish natijalarining ijtimoiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va natijaviylikka yo'naltirilganligi bo'yicha o'z fikringizni keltiring

4

## MUTAXASSISLIK FANLARINING O'QUV - ME'YORIY XUJJATLARI VA METODIK ISHLARI, ULARNI REJALASH TIRISH, TASHKIL ETISH VA TAYYORLASH METODIKASI.

*O'quv maqzadi*



*O'quv me'yoriy xujjatlar, metodik ishlar, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash to'g'risida nazariy bilimlarni shakllantirish*

### REJA:

1. O'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy majmualar, o'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yiladigan talablar.
2. O'qituvchining shaxsiy ish rejalari, kalendar tematik rejalar.
3. Guruh va professor-o'qituvchining jurnallarini yuritish tartibi.



## Mavzuga oid tayanch iboralar:

O'quv uslubiy majmua, ta'lim, fan, modul, mutaxassislik, vosita, shakl, bilim, ko'nikma, malaka, darslik, qo'llanma, kasb-hunar, kichik mutaxassis

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ikki xil qoidalar bilan tartibga solinadi. Ular axloq, urf-odat, rasm-rusum, qadriyatlar, an'analarga oid qoidalar hamda huquqiy qoidalar hisoblanadi. Huquq (sof yuridik ma'noda) — ijtimoiy manfaatlarini ifodalovchi, davlat tomonidan o'rnatiladigan hamda ta'minlanadigan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yuridik normalar tizimi hisoblanadi.

Ta'lim tizimini tartibga soluvchi qonunlar O'zbekiston Respublikasida huquqni ifodalashning (bayon etishning) asosiy manbai, shakli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar davlat tomonidan o'rnatiladigan, ma'qullanadigan huquqiy hujjatlarning alohida rasmiy turi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida ta'lim sohasi ham tartibga solinadi. Ta'lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, ta'lim tizimini isloh qilishning muhim vositasi — ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib, uni qo'llash, amaliyotga tadbir qilish muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi qonunchilikning holati, boshqa sohalarda bo'lgani kabi yangi qonunlar qabul qilinayotganligi va ularning amal qilayotganligidan guvohlik beradi. Ushbu qonunlar yig'indisi qonunchilikning yangi tarmog'i — ta'lim qonunchiligini tashkil etmoqda. Davlatimizning ta'lim sohasidagi amaliy faoliyati uning ko'p qirrali faoliyatida muhim va mustaqil funktsiya sifatida namoyon etilmoqda. Ta'limga oid normativ-hujjatlar fuqaroning ta'lim olishga oid konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash, ta'lim tizimini huquqiy tartibga solish, moliyaviy va moddiy-texnik ta'minlash, ta'lim va kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmonda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish borasida quyidagilarga e'tibor qaratildi:

– uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

– ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli choratadbirlarni ko'rish;

– maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

– umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish:

– bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

– kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

– ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

– ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Mamlakatimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bugungi kunda respublikamizda 131 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud, ulardan 97 tasi mahalliy hamda 34 tasi xorijiy nodavlat oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallaridir. Bu harakatlarning barchasi Prezidentimizning talab va istaklari, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi, ilm-fanning ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lash ehtiyoji bilan izohlanadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoqlarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga oid nutqlarida ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga etarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqargani haqida so'z yuritib o'qituvchilar oyligini oshirish va rag'bat haqida ko'p gapiradilar. Yangi davr pedagoglarini tarbiyalash deganlarida o'qituvchilarning zamonaviy bilimlarni egallashlari va ularning pedagogik mahorati, kommunikativ kompetensiyasiga, ergashtiruvchilik qobiliyatiga ishora qilganlarini anglab olish qiyin emas. Bu alohida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyani talab etadi.

**Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi va ularning turlari.** Normativ-huquqiy hujjat "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir. Bunda, hujjatning *umummajburiyligi* hamda albatta *rasman e'lon qilinganligiga* e'tibor qaratish lozim.

Normativ-huquqiy hujjat tushunchasining ta'ri fi shu haqda qabul qilingan O'zbekiston qonunida berilgan. 2012 yil 24 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-342-sonli Qonuni asosida amaldagi (2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan) «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu yangi

tahirdagi Qonun rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kirgan. Normativ-huquqiy hujjat «Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat koʻrsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, oʻzgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativhuquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega boʻlgan organlar yoki mansabdor shaxslar hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

Normativ-huquqiy hujjat oʻziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq boʻlishi shart. Normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasida tafovut boʻlgan taqdirda yuqori yuridik kuchga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjat qoʻllaniladi. Teng yuridik kuchga ega boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar oʻrtasida tafovut boʻlgan taqdirda keyinroq qabul qilingan hujjat qoidalari amal qiladi. Agar normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qoʻmitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati boʻlsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil darajadagi boshqa vazirlik, davlat qoʻmitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega boʻladi. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda umumxalq muhokamasiga qoʻyilishi mumkin. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga qoʻyiladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi manfaatdor davlat organlari, shuningdek fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish

organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, o'zga tashkilotlar vakillari, olimlar va mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasi ishtirokchilari ishlab chiquvchi tomonidan uning matni bilan oldindan tanishtirilishi lozim. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart. Ekspertiza o'tkazish uchun olimlar va mutaxassislar, shu jumladan boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Ekspertlar normativ-huquqiy hujjat loyihasiga baho berishda mustaqildirlar va ular ekspertiza o'tkazishni topshirgan organning nuqtai nazari bilan bog'liq bo'lmaydi.

### **Ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni.**

**UZLUKSIZ TA'LIM** — o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni va 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi O'zR qonuni alohida tamoyil sifatida qayd etilgan. Uzlüksiz ta'lim milliy modelning asosiy tarkibiy qismlaridan biri, O'zRning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzlüksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi. Uzlüksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim ta'limni o'z ichiga oladi.

Uzlüksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat: ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishining 1darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi; ta'limning demokratlashuvi — ta'lim

va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat jamiyat tizimiga o'tilishi; ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga bo'lgan turli tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi; ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish; ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalklarining madaniyatini saklab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalklarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'likligi, bu jarayonning qar tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi; iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shartsharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

“Ta'lim to'g'risidagi qonun” 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilindi. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

### **Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar**

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

-ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

-ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

-ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

-o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

-davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

-o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

-insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

-jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

-ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

-bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

-ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

-ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

### **Ta'lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar.**

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoni va «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari

davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'limtizimi boshqaruvini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi:

birinchidan, maktabgacha ta'limsohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ikkinchidan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uchinchidan, respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'limmuassasalariga bosqichma- bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

yettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

sakkizinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari

va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'rinlar va mashqlar uyushtirish;

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3304-son Qarori asosida O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyati takomillashtirildi.

Mazkur qarorga muvofiq, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilansin:

birinchidan, xalq ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

ikkinchidan, o'rta ta'lim maktablari hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash orqali 11 yillik o'rta ta'limni joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

uchinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilariga kasb-hunar o'rgatish hamda umumiy o'rta ta'limning davlat ta'limstandartlariga va maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablarga muvofiq xalq ta'limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatishda metodik rahbarlik qilish;

to'rtinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va mehnat ta'limini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamasini optimallashtirishni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

oltinchidan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangilangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;

yettinchidan, mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash,

ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish.

sakkizinchidan. rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning (shu jumladan inklyuziv) ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora- tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini muvofiqlashtirish;

to'qqizinchidan. xalq ta'limi muassasalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi bo'limlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalari yanada chuqur singdirish, «ommaviy madaniyat» ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

o'ninchiidan, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan davlat ta'lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish.

o'n birinchidan, ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlash;

o'n ikkinchidan, ta'lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish

“Maktabning maqsadi insonlarga kasbiy maqsadlariga erishishda yordam berishi kerak, qaysiki o'zlarining hohishdagi qobiliyatga mos ravishda ushbu jarayonni o'zida mujassamlashtiraolgan insonlar o'zlarini ko'proq band, mahoratli hisoblaydi va jamiyatni barpo etuvchi bo'lib tarbiyalanadi.”<sup>1</sup> - degan edi Gardner.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik

---

<sup>1</sup>Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. Alex Moore.148-bet.

muddatda; 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlari o'qishga qabul qilish umumta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son Farmoniga muvofiq, majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, kasb-hunar ta'limi ixtiyoriylik asosida kasb-hunar kollejlari amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11 sinflari o'quvchilari ta'lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 868-son qarori qabul qilindi.

Akademik litsey - o'rta maxsus o'quv yurti. Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi. Akademik litseyda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va b. sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanlarni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi ta'lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda o'quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta'lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-

hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida` PQ-2829-son qarori qabul qilindi

Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilab berildi:

umumta'lim maktablarining eng iste'dodli o'quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o'qishni oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

o'quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo'lishi va faollashishiga ko'maklashuvchi, individual iste'dodlarni va har bir o'quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»ai PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qarorga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi etakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish;

oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash.

jumladan. eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish;

oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-mayda «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi: tayanch doktorantura; doktorantura; mustaqil izlanuvchilik.

Tayanch doktorantura - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Doktorantura - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMLarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMLarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoniga muvofiq oliy ta'limmuassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o'qitish shakllari va usullarini, pedagog kadrlar tarkibining sifat darajasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 242-son qarori bilan «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi 103-son Qarori bilan mazkur Nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi - yangi kasbiy bilimlar, mahoratlar, zamonaviy ko'nikmalar hamda boshqaruv va pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur hajmda va etarli darajada hamda davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv- ta'lim jarayoniga talab qilinadigan sifatni ta'minlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan oliy ta'limdan keyingi o'qitish shakli.

Yuqorida qayd etib o'tilgan hujjatlarga asosan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha ikki oy davomida, ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'qishni tugatgandan keyin attestatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan attestatsiyadan o'tishlari kerak. Attestatsiya

komissiyasi tegishli sohalardagi etakchi olimlar va mutaxassislar, ilmiy kengash a'zolari, o'quv-uslubiy ishlar sohasidagi yirik mutaxassislar safidan kamida 7 kishidan iborat bo'lgan oliy ta'lim muassasasi rektori yoki fan doktori ilmiy unvoni berish bo'yicha ilmiy kengash raisi boshchiligida shakllantiriladi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan o'tmagan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari bir yil mobaynida pulli asosda o'qishning tegishli yoki turdosh yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakunida attestatsiyadan o'tishadi.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini takroran o'zlashtirishi asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o'quv dasturlarini mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari bo'yicha tayyorlanib kelgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga kiritiladi. Yakuniy attestatsiya tegishli yo'nalishlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan takroran o'tmagan yoki asosiy ish joyi bo'yicha belgilangan muddatda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o'tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan hamda bo'sh turgan pedagog lavozimini egallash tanlovi davrining tugagan muddatidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Bunda ular o'z pedagogik faoliyatini boshqa ta'limmuassasalarida (oliy ta'limmuassasalaridan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa tashkilotlarda ishlashi hamda o'zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni qabul qilindi.

Unga muvofiq, O'zbekistonda professional ta'lim dasturlari nufuzli xalqaro tashkilot – YuNeSKO tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashgan holda ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtiriladi. Xususan, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab mamlakatda yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etiladi. Bu orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlanib, ish beruvchilar keng jalb qilinadi.

Farmonga asosan, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalariga Xalqaro tasniflagich bo'yicha asosiy ta'lim dasturlaridan tashqari quyi darajadagi ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash huquqi berildi. Unga ko'ra, tizimda mos ravishda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etiladi.

Kasb-hunar maktablari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasidagi Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlari hamda mazkur farmon asosida amalga oshirilish belgilandi.

#### **Kasb-hunar maktablarining asosiy maqsadi:**

- 1). umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni amalga oshirish;
- 2). o'quvchilarni tanlagan mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko'nikma va malakaga hamda yuksak ma'naviy – axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, intellektual jihatdan etuk kadrlar etib tayyorlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni qabul qilindi.

Kollejlar - Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi. Kollejda ta'lim berish 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

#### **Kollejning asosiy maqsadi:**

1). kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan hayot davomida ta'lim olish printsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash ;

2). o'quvchilarni tanlagan mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko'nikma va malakaga hamda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, intellektual jihatdan etuk kadrlar etib tayyorlashdan iborat.

#### **Texnikumlarning asosiy maqsadi:**

1). kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan hayot davomida ta'lim olish printsipi asosida shakllantirilgan guruxlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash;

2). o'rta maxsus professional ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar uchun o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirishiga imkon yaratish;

3). o'quvchilarni tanlagan mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko'nikma va malakaga hamda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, intellektual jihatdan etuk kadrlar etib tayyorlashdan iborat.

Texnikumlar kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. O'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi. Texnikumlar moddiy-texnik bazani mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi va to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi"ga ko'ra respublikadagi OTMLar 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi "2020-2021 o'quv yilidan ta'lim jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 357-son buyrug'iga muvofiq 2020-2021 o'quv yilida respublikaning 33 ta OTMLari kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Mazkur OTMLarda ECTS kredit-modul tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan bo'lib, **"Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori"**ga muvofiq **25** ta ta'lim sohasi ta'lim standartlari, **261** ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va **559**

ta magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejaları va fan dasturlari (sillabuslari) ishlab chiqilmoqda.

**Kredit modul tizimiga o'tish jarayoni.** Amaldagi o'quv jarayoni o'quv haftalari soni 18 haftani tashkil etib, kredit-modul tizimiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishda bir semestr uchun o'qish davri o'rtacha 15 haftani, yillik haftalar soni 40-42 haftani tashkil etadi.

Amaldagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi mavjud 4 ta (Gumanitar va tabiiy-ilmiy, Umumkasbiy, Ixtisoslik, Qo'shimcha) fanlar bloki kredit-modul tizimida 2 tagacha (Majburiy fanlar, tanlov fanlar) qisqartirilishi rejalashtirilmoqda.

OTMLar o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'ladi, o'quv jarayonining shaffofligi, o'quv dasturlarini iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifatini yaxshilanishiga va talabaning mustaqil o'quv dasturiga ega bo'ladi.

Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

*Davlat ta'lim standartining maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.*

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi; umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi; umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; baholash tizimi.

Umumiy oʻrta taʼlimning tayanch oʻquv rejasi umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻqitiladigan oʻquv fanlari nomi, oʻquv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar boʻyicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch oʻquv reja umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch oʻquv reja umumtaʼlim fanlari boʻyicha belgilangan taʼlim mazmunini oʻquvchiga etkazish uchun ajratilgan oʻquv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli boʻlgan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida Qoraqalpogʻiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi, Toshkent shahar xalq taʼlimi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq taʼlimi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch oʻquv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, maʼlum bir fanlarni chuqurlashtirib oʻqitish maqsadida 15%gacha oʻzgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy oʻrta taʼlimning oʻquv dasturi tayanch oʻquv rejaga muvofiq oʻquv fanlarining sinflar va mavzular boʻyicha hajmi, mazmuni, oʻrganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensivalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

Oʻquv dasturi Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy oʻrta taʼlimning malaka talablari umumtaʼlim fanlari boʻyicha taʼlim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, oʻquv yuklamalari hajmiga hamda taʼlim sifatiga qoʻyiladigan talablardan iborat.

Umumiy oʻrta taʼlimning malaka talablari quyidagilardan tashkil topadi:  
bilim - oʻrganilgan maʼlumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;  
koʻnikma - oʻrganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qoʻllay olish; malaka - oʻrganilgan bilim va shakllangan koʻnikmalarni notanish vaziyatlarda qoʻllay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyati.

**Baholash tizimi** - davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari asosida o'quv materiallari o'quv-metodik majmuada o'z ifodasini topadi.

**O'quv-metodik majmua** - darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

**Darslik** - davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

#### NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni deb nimaga aytiladi?
2. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushiniladi?
4. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering.
5. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta'lim standarti nima va u qanday komponentlardan iborat?
7. Tayanch o'quv rejasiga izoh bering.

**O'quv maqsadi**

*Mutaxassislik fanlarni oliy va professional ta'limda o'qitishning mazmuni to'g'risida nazariy bilimlarni shakllantirish*

**REJA**

1. Ta'lim mazmuni va o'qitish mazmuni.
2. O'qitish mazmunini belgilash tamoyillari. o'qitish maqsadi va mazmunining birligi. o'qitish mazmunining o'zlashtirish darajasini ta'minlay olishi.
3. O'qitish ob'ekti, o'zlashtirish ob'ekti va o'qitish natijasi.
4. Guruh va professor-o'qituvchining jurnallarini yuritish tartibi.

**Mavzuga oid tayanch iboralar:**

O'quv mazmuni o'qitish ob'ekti, o'qitish natijasi, ta'lim, guruh va professor-o'qituvchi, jurnallarini yuritish tartibi, fan, mutaxassislik, vosita, shakl, ta'lim mazmuni, kompetentsiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, o'quv-metodik majmua.

1. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni tushunchasining umumiy xususiyatlari. Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;

- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'limning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 5) axborotlarning hajmi va ko'lami;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda Pedagogik fanlarni o'qitish mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Hozirgi vaqtgacha Pedagogik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda etkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgari to'plangan axborotlarigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan

har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydaniilmoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funktsiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka»ni oltita birlik (sikstet) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya - Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka»ni oltita birlik (sikstet) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya - Kompetentlik» tarzida tahlil etish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'limdan farqli ravishda «umumta'limiy kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki

umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Umumta'limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan ob'yektlariga munosabatini taqozo etuvchi o'quvchining semantik (ma'no-mazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir.

O'quvchi uchun kompetensiya - bu uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal(orientir). Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'limiy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Umum ta'limiy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'limi davrida o'quvchi eng asosiy - fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning etakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

2. Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Pedagogik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq

tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalari umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini fundamallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab etishlariga tayanishni talab etadi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunining muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetensiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil Pedagogik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi.

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalashtirishda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish; ta'lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi; ta'lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi; ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi; ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

Mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmunini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olish.

### **STEAM ta'lim tizimi nima?**

**STEAM ta'lim** texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir.

Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

## **STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?**

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar".

## **STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.**

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

## **STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda.**

Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi.

## **Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?**

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

Prezident maktablarida "STEAM" ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, 9-11-sinflarda o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri – tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, o'quvchilarning innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intellektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.

STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berishdir.

O'quvchilarga mazkur fanlarni o'qitishda malakali mahalliy o'qituvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o'qituvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo'nalishda ko'p yillik tajribaga ega "Teachaway" (Kanada) va "TIC Recruitment" (Buyuk Britaniya) rekrutng kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

9-11-sinf o'quvchilarining qiziqishlari va xususiyatlariga qarab, Prezident maktabida ta'lim o'quv jarayonini individualizatsiya qilingan holda olib boriladi. Prezident maktablari bitiruvchilari belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan shahodatnoma, attestat bilan bir qatorda, xalqaro nufuzli oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishadi.

MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH MAZMUNINI  
BELGILAB BERUVCHI ME'YORIY HUJJATLAR,  
MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH METOD VA  
VOSITALARI.

O'quv maqsadi



*O'quv me'yoriy xujjatlar, metodik ishlar, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash to'g'risida nazariy bilimlarni shakllantirish*

**REJA:**

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar:
2. DTS, o'quv reja va o'quv dasturlari.
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari: an'anaviy va innovasion turkum.  
o'qitish vositalari: grafikli organayzerlar, o'qitishning texnik vositalari, tarqatmalar.



**Mavzuga oid tayanch iboralar:**

Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi, kalendar-taqvimiy reja, o'quv uslubiy majmua, ta'lim, fan, modul, mutaxassislik, vosita, shakl, bilim, ko'nikma, malaka, darslik, qo'llanma, kasb-hunar, kichik mutaxassis

**Davlat standartlari** – mutaxassis tayyorlanayotgan yo'nalish mazmunining bayoni va talabani o'qitish hamda tarbiyalashga qo'yilgan talablar, standart ko'rinishidagi nazorat, uslub va shakllari.

**O'quv rejalari** – ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat hujjati.

**O'quv dasturlar** – o'quv fani mazmuni, ularni talabalar tomonidan o'zlashtirishning maqsadga muvofik keluvchi xususan tashkil etish yo'llari aniqlangan hujjat.

**Darsliklar** – o'quv fani mazmuni o'quv darsturiga muvofiq bayon qilinadi.

**O'quv qo'llanmalar** – o'quv dasturi asosida uslubiy va amaliy tavsiyalar beriladi.

### **Kasbiy ta'lim berish mazmuni**

Pedagogik jarayonning mazmuni belgilangan maqsadlarga muvofiq va quyidagi: "Nimaga o'qitish va shaxsning qanday sifat va xislatlarni shakllantirish" savollarga javob beradi.

**Mazmun** – inson rivojlanishi maqsadlari bilan muvofiqlikda tanlanadigan va unga yetkazib beriladigan, avlodlar ijtimoiy mahorat qismi.

Pedagogik jarayon mazmunida ikki o'zaro bog'liqlikdagi tarkibiy tashkil etuvchilarni– *o'qitish mazmuni va tarbiyalash mazmuni* ajratib ko'rsatish mumkin.

Ularning har biri o'zining xususiyatiga ega, ya'ni o'qitish mazmuni "Nimaga o'qitish kerak?", tarbiyalash mazmuni – "shaxsda qanday sifat, xislat, munosabatlarni shakllantirish kerak?" savollariga javob beradi.

**O'qitish mazmuni** (o'qitish, ma'lumot olish)- ta'lim jarayonida egallashi zarur bo'lgan, ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar tizimi.

O'quv axborotining manbasi adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar, lug'atlar, ma'lumotnomalar va ma'lumotli manbalar hisoblanadi. Umumlashtirilganda ular fan bo'yicha o'qitish mazmunini tashkil etadi.

O'quv axborotini tanlash quyidagi omillarga asoslanadi:

- ✓ Belgilangan maqsadlar bilan – qanday maqsad bilan o'rganish?
- ✓ Mavjud boshlang'ich vaziyat holati bilan- berilgan mazmunni amalga oshirish uchun maqbul sharoitlar mavjudmi?
- ✓ Mazmunni tuzilmaviylik xususiyati bilan – fan yoki modulli, yoki masofaviy ta'lim uchunmi?
- ✓ Ta'lim standarti bilan- nimani o'rganishi kerak?
- ✓ Tanlab olingan pedagogik shakl va vositalar bilan- axborotni qanday vositalar va yo'llar bilan taqdim etish kerak?
- ✓ Axborotni bayon etish tartibi bilan – qanday tartibda o'rganish kerak?
- ✓ O'zlashtirish darajasi bilan – qanday darajada o'zlashtirish kerak?

*O'qitish mazmuni ta'lim berish va o'z o'zini o'qitishda jarayonida amalga oshiriladi, ya'ni aqliy faoliyatda.*

*O'qitish mazmuniga quyidagi tarkiblar kiradi:*

- ✓ Tabiat, jamiyat, texnika, fikrlar va faoliyat yo'llari to'g'risidagi ilmiy bilimlar;
- ✓ Aqliy bilimlar va amaliy ko'nikma va malakalardan iborat bo'lgan, faoliyat yo'llarini amalga oshiruvchi tajriba;
- ✓ Ijodiy, izlanuvchilik faoliyati tajribasi.

*O'qitish mazmuni quyidagi me'yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi: Davlat ta'lim standarti, o'quv muassasining o'quv rejasi, o'quv dasturlari, adabiyot va o'quv qo'llanmalar.*

### **Davlat ta'lim standarti**

Kasb-hunar ta'limi davlat standarti yaqin kelajakda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini majmuaviy belgilab beruvchi yechim sifatida xizmat qiladi. Pedagogik manbalarda kasb-hunar ta'limi davlat standarti kuyidagicha talkin etiladi: bo'lajak kichik mutaxassislar egallashi zarur va yetarli bo'lgan mazmun darajasi va ko'lami; o'quvchilarning maksimal o'quv yuklamasi xajmi, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'yilgan talablar va hokazo.

Kasb-hunar ta'limi davlat standartining mohiyati uning ichki va tashqi alokalari tahlil etilsagina to'lik ochilishi mumkin, standartlarning tashqi alokalari eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda o'z ifodasini topadi. bundan standart ijtimoiy buyurtmani talablar shaklida o'zida ifodalovchi me'riy xujjat ekanligi kelib chiqadi. Kasb-xunar ta'limi standartining ichki alokadorligi esa uni o'zaro alokador va ta'sirdagi elementlardan tashkil topgap mustakil tizim sifatida karachganda namoyon bo'ladi. Standartni tashkil etuvchi elementlariing xususiyatlari, o'zaro alokadorligi uning mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda standartning rolini tushunish uchun uning funksiyalarini bilish muximdir. Lo'nda qilib aytgaida, standart nima uchun va kimga kerak? Birinchidan, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun o'zlarining xamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish

uchun, ikkinchidan, kasb-xunar ta'limi tizimi xabarlarini uchun nazorat qilish mexanizmini shakllantirish uchun; uchinchidan, bandlik idoralari xodimlari uchun. ishga joylashtirish va kayta taysrlash ishlarini rivojlantirish maksadida; to'rtinchidan, ijtimoiy xamkorlar uchun, ya'ni ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va barcha mehnat munosabatlari bilan shugullanuvchilar uchun; beshinchidan, yaqin va uzoq chet el hamkorlarimiz

uchun, xalkaro mexnat bozorida inson hukuqlarini erkin o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun zarur. Shunday kilib. kasb-xuair ta'limi davlat standarti o'ziga xos kasbiy ta'lim sifatini boshkarish mexaiizmi bo'lib xizmat kiladi. Buiing uchun u kasbiy ta'lim sifati bilan bog'liq ko'plab komponentlarni kamrab olishi kerak. Keng ma'noda kasb-xunar ta'limining sifati jamiyatni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish vazifalariga kanchalik mos kelishi bilan aniqlanadi. Fan-texnika tarakqiyoti bilan bog'liq xolda kasb-xunar ta'limi o'kuv-me'yoriy hujjatlari tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Malaka darajasi aniq shaxsning kasbiy maxoratini xarakterlaydi. Malaka darajasi shaxsning o'kib o'rganganligiga bog'lik demak. uni ob'ektiv ravishda baxolash mumkin bo'lgan o'lchamlar: xajmi, sifat daraja ko'rsatkichlariga ega bilim, ish-xarakat usullari va shaxsiy fazilatlar bo'lishi mumkin. Kasb kanchalik murakkab bo'lsa, unga mos holda kasb-xunar sirlarini o'zlashtirish uchun shuncha ko'p vakt talab etadi. Mexnatning intellektual darajasi akliy va manual (jismoniy) faoliyatning o'zaro munosabatini ko'rsatadi. Ilmiylik darajasi esa mehnat faoliyatining texnik-texnologik jixatlari bilan bevosita bog'likligini ko'rsatadi. Ko'p funksiyalilik mexnatning murakkabligi, turli xildagi vazifalarni bajarishi bilan xarakterlanadi. Mexnat faoliyati algoritmining murakkabligi fakatgina turlicha emas, balki bir paytning o'zida parallel ravishda akliy va manuap ish-xarakat usullarini bajarilishi bilan xarakterlanadi. Stereotip kaeb-hunar darajasida maxsulli va maxsulsiz faoliyatlarning o'zaro nisbatida namoyon bo'ladi.

Boshkacha kilib aytganda. Davlat ta'lim (tarmok) standarti (DTS) mutaxassisliklarning yozma modeli bo'lib, kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarni xamda shaxsiy fazilatlarini o'ziga qamrab oladi.

DTS va TTS ko'p vazifali xujjat bo'lib, ish beruvchilar, bandlik xizmati, vazirlik va tashkilotlar, ilmiy metodik tashkilotlar, o'quv muassasalari, fukarolar uchun mo'ljallanadi. DTS asosida quyidagilar amalga oshiriladi:

- ta'lim mazmuni tanlab olinadi va shakllantiriladi;
  - o'quv dasturlashtirish va metodik xujjatlar, ta'lim vositalari ishlab chikiladi;
  - ta'lim natijalariga ko'yilgan talablar shakllantiriladi;
  - kasbiy tayyorgarlik sifatini nazorat kilish tizimi ishlab chikiladi;
  - ta'lim muassasasi attestatsiya kilinadi.

Davlat ta'lim (tarmok) standarti (DTS) mutaxassisliklarning yozma modeli bo'lib, kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarni xamda shaxsiy fazilatlarini o'ziga qamrab oladi.

*DTS asosida quyidagilar amalga oshiriladi:*

- ta'lim mazmuni tanlab olinadi va shakllantiriladi;
- o'quv dasturlashtirish va metodik xujjatlar, ta'lim vositalari ishlab chikiladi;
- ta'lim natijalariga ko'yilgan talablar shakllantiriladi;
- kasbiy tayyorgarlik sifatini nazorat kilish tizimi ishlab chikiladi;
- ta'lim muassasasi attestatsiya kilinadi;
- kasbiy maslaxat, kasbga yo'naltirish, kasbiy tanlash ishlari tashkil etiladi; mutaxassislarning malakasini oshirish shakllari aniqlanadi;
- DTS ning o'zi esa tasniflagich asosida ishlab chikiladi.

***DTSni ishlab chikishni tashkil etish.***

DTSning amaliy muhimligini hisobga olib, uni quyidagi tartibda ishlab chikish tavsiya etiladi:

- mualliflik jamoalarini tuzish;
- alohida bo'limlarni ishlab chikish. ularni dastlabki baxolash va o'zgartirishlar kiritish;
- DTS loyihasini tuzish uni ekspert baholash;
- yakuniy ishlov berish, tahrirlash, rasmiylashtirish va tasdiqlash;

- yakuniy ishlov berish, tahrirlash, rasmiylashtirish va tasdiqlash.

*DTSning mazmuni quyidagilar asosida aniklanadi:*

- Davlat va soxa me'yoriy, texnik va texnologik hujjatlar;
- mehnat bozori talablari;
- mutaxassis mexnat faoliyati mazmuni;
- ilmiy texnik tarakkiyot va bozor muosabatlarining rivojlanishi ta'sirida ushbu sohadagi mexnat an'alarini rivojlanishi;
- mavjud tarifikatsiya va attestatsiya tuzilmalari;
- chet el kasbiy ta'lim standartlarini o'rganish, taxlil etish va shu kabilar.

## **2. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda kasblar tasniflagichi: mohiyati va funksiyalari**

Ma'lumki, bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlash ishi bevosita davlat va jamiyatning talab xamda extiyojlariga asoslanib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidagi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar tasniflagichida o'z ifodasipi topadi. Amaldagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar umumiy davlat tasniflagichi (2006Y) O'zbskistoi Respublikaeida texnikaviy, iktisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagoia tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Maxkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 1998 yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori asosida ishlab chikilgan. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tayyorlov yo'nalishlari kasblar tasniflagichining tasniflash ob'ektlari xisoblanib, unda tayyorlov yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi xamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

Tasniflagichda ta'lim xakidagi me'yoriy xujjatlarni indeksatsiyalash maksadida foydalaniladigan ta'limning halkaro standart tasniflash kodlari xam keltirilgan.

O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichini joriy etish oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi standartlari bilan birga tasniflagichlarni ishlab chikish va yuritish tartibiga RST Uz. 6. 01.02 95 ga muvofik ravishda amalga oshiriladi.

Tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limida Davlat ta'lim standartlari o'quv rejalari, dasturlari va boshka me'yoriy xujjatlarni ishlab chikaruvchilar ta'lim muassasalari raxbarlari, respublika va maxalliy boshkaruv tashkilotlar mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshka respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlar uchun mo'ljallangandir. Tasniflagich kasb-xunar kollejlari va boshka tashkilot xamda muassasalar ping qaysi vazirlikka, karashliligidan va mulkchilik shaklidan katiy nazar aynan ko'llanilishi shart.

Tasniflagichda kuyidagi tariflar ko'llanilgan: tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi (TIKIUT), Urta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari. Kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Malaka mutaxassisniig kasbiy tayyorgarlik darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ish-xarakat usullarining aniq, tez fursatda, talab darajasida bajarilishidir.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, u hakida toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis - bu ta'lim dasturini muvaffakiyatli o'zlashtirishga, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir:

Kichik mutaxassis:

- nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga;

- mazkur jamiyatda o'zining muvaffakiyatli hayot darajasini ta'minlay-

digan umumiy va kasbiy madaniyat, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlar va shaxsiy fazilatlariga ega bo'ladi.

Kasbiy faoliyat sohasi (KFS) kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy soxalar nomlari bilan moslashtirilgan.

O'MKHT ta'lim muassasalaridagi tayyorlov yo'nalishlari anik kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislariga kasbiy ta'lim berish doirasidir. Muta-xassislar kasbiy faoliyatining anik soqasi bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari nomi mehnat faoliyatining mazmuni va xususiyati orkali aniklanadi.

Kasb - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir soxada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasi, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy kobiliyat va yuridik hukuklari ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'uloti-ning) turidir.

Ixtisoslik - birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va kasblar kodi kasbiy faoliyat soxalariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Amaldagi tasniflagichda kuyidagi sakkiz soha nazarda tutilgan:

100000-Ta'lim

200000 - Gumanitar fanlar va san'at; 300000 -

Ijtimoiy fanlar; 400000 - Fan;

500000 - Muxandislik. ishlov berish va kurilish tarmoklari; 600000 -

Qishlok xo'jaligi;

700000 - Sog'likni saklash va ijtimoiy ta'minot; 800000 -

Xizmatlar.

Tasniflagichda ta'lim bosqichlari va ta'lim soxalari tayyorlov yo'napishlari va kasblar kuyidagicha yettita rakamli kod bilan belgilanadi.

Ta'limning xalkaro klassifikatsiyasiga binoan ta'lim boskichi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi 3 raqami bilan belgilanadi, masalan, 3144610, 3210210, 3380110 vah.k.

**Mutaxassislik kodi Tayyorlov yo'nalishi kodi**  
**Ta'lim soxasi kodi Bilim sohasi kodi Ta'lim**  
**dasturi boskichi kodi**

Birinchi raqam - ta'lim dasturi boskichi kodi;

Ikkinchi rakam - bilim soxasi kodi;

Uchinchi raqam -ta'lim soxasi kodi;

To'rtinchi va beshinchi rakamlar - tayyorlov yo'nalishi kodi;

Oltinchi va yettinchi rakamlar — mutaxassislik kodi

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi va oliy ta'lim (bakalavriat)da uzviylikni ta'minlash maqsadida o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kodlari oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

**Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni qal etishda foydalaniladi:**

-xududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish;

-milliy va xududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mexnat soxasidagi jarayonlarini ta'minlash va tartibga solish;

-ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketayotgan sarflarni aniklash;

-mehnatga xaq to'lashni tartibga solish va me'yorlashtirishni takomillashtirish;

-xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aniklash va asoslangan uzluksiz ta'lim dasturini ishlab chiqish;

-mehnat statistikasi soxasida axborotning xalkaro mikyosda takkoslanishini ta'minlash.

Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning tasniflagich ro'yxati bo'lib, u ko'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochikdir. Amaldagi tasniflagida zarur xollarda tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi Markazi tomonidan amalga oshiriladi deb ko'rsatilgan.

Kichik mutaxassislar kuyidagi lavozimiy vazifalarni bajarishlari ko'zda tutiladi:

-komp'yuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar soxasida foydalanish usullarini ko'llash bilan bog'lik texnik- texnologik topshiriqlarni bajarish;

-texnik jixoz va transportlarni ishlatish.

-Mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar xamda muxandislikka oid texnik jihozlar va asboblarga texnik xizmat ko'rsatish xamda ta'mirlash. metall konstruksiyalarni o'rnatish, dastgoxlarni o'rnatish va boshqa ishlarni amalga oshirish.

-Xom ashyo kazib olish va kayta ishlash, metallurgiya, kurilish binolari va inshootlarni tamirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish soxasida o'z kasbiy bilimlarini tatbiq etish;

-Bosish (koliplash) ishlarini bajarish;

-Ozik-ovkat, to'kimachilik mahsulotlari, yogoch va metall buyumlar, shu jumladan badiiy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish va kayta ishlash.

-Bolalar bog'chasi va boshlangich maktablarda ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirish.

-Sog'likni saqlash. gigiena, insonlarga gamxo'rlik kilish, qishlok joylarda o'simlik va xayvonlarni parvarish kilish. yetishtirish bo'yicha zarur ishlarni amalga oshirish.

- Kadrlarni tanlab olish, joy-joyiga qo'yish va ularning ijtimoiy ta'mi-noti, solikka tortish va turizmga alokador davlat xizmatlari, buxgalteriya.

### **3.Mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quv reja va dasturlar ahamiyati va ularning vazifalari.**

**O'quv rejasi.**O'quv rejasi ta'lim oluvchi bilimi va kasbiy tayyorgarlik mazmunining yetarli va zarur darajasini ta'minlaydigan o'quv jarayoni va o'quv

yuklamalari xajmi, muddatlari va tayyorlanuvchi mutaxassis sifati, nazorati shakllarini belgilab beruvchi huquqiy-me'yoriy xujjatdir.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar uchun mo'ljallangan yangi o'quv rejaları kuyidagi 7 ta bloqdan iborat kilib tuzilgan (bloklar va ularga ajratilgan vaqt mikdori ish beruvchilarning talablari. fan-texnika taraqqiyoti, ilgor ishlab chikarish texnologiyalari, talim muassasalarining mustakillik darajalari va boshka shu kabi omillarga ko'ra o'zgarishi mumkin).

Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv rejaları ishlab chiqiladi. O'quv rejasi har bir yo'nalish uchun aloxida tuzilib, vazirlik tomonidan tasdiklanadi. Unda kuyidagilar o'z ifodasini topadi:

1. Tayyorlov yo'nalish (ixtisoslik) kodi vauning nomlanishi;
2. O'kuv muddati;
3. Tugatgandan so'ng olinadigan akademik darajasi;
4. Ta'lim shakli;
5. O'kuv davrining taksimoti (jadvali);
6. O'quv jarayonining rejasi;
7. O'rganiladigan o'quv predmetlari: xar bir o'quv predmetini o'rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt mikdori;
8. O'rganish uchun ajratilgan vakti ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyixalari va mustakil ta'limga kandy nisbatda taksimlanganligi;
9. O'kuv predmetini kaysi bosqichda, semestrlarda xaftasiga kancha soatdan o'rganish tartibi;
10. Davlat attestatsiyasi.
11. Tanlov fanlarining ro'yxati;
12. Izox kabilar. Shu o'rinda o'kuv rejalarining tayanch, namunaviy va ishchi turlari bo'lishi mumkinligini yodda tutib, ularni bir-biridan farqlay olish zarur. O'kuv rejaları o'z navbatida o'kuv dasturlarini ishlab chiqishga asos bulib xizmat kiladi.

*O'quv dasturi* shu nom bilan nomlangan o'quv predmetiga tegishli bo'ladi. O'quv predmeti ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan- texnika, san'at ishlab chikarish faoliyatini muayyan sohasidan tanlab olingan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar xakidagi ma'lumotlar tizimidir.

Dastur o'quv predmetining mazmuni. uni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir. O'quv dasturlari namunaviy va ishchi dasturlarga bo'linadi. Namunariy o'quv dasturi shu o'quv predmetiga oid ishchi o'quv dasturi, yillik takvimiy mavzular rejas, darslik va o'quv- metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar ishlab chikish uchun asos hisoblanadi.

#### **4. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda kalendar-taqvimiy rejaning ahamiyati va ularni ishlab chiqish yo'llari**

Kalendar-taqvimiy reja Kalendar-taqvimiy reja o'qituvchiga o'zining istiqboldagi ishlari batafsil ko'rishga imkon beradi.

Uning vazifasi:

- o'quv mashg'ulotlari bo'yicha, o'quv dasturida belgilangan, o'quv materiali mazmunini taqsimlashdan iborat;
- laboratoriya va amaliy ishlarni, ekskursilarni, ishbilarmon o'yinlarni va o'quv anjumanlarni oldindan rejlishtirishdan iborat;
- Uy vazifalari hajmini, ularni teng taqsimlashni;
- O'qitishning zarur vositalarini (adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar)ni tayyorlash.

Kalendar-taqvimiy rejani ishlab chiqishda:

- uy vazifalari hajmi va xususiyatiga e'tibor berish muhim.
- O'qitish vositalaridan umumiy holda foydalanishni rejalashtirishga e'tibor beriladi.



### **Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:**

- 1. Talabanning o'quv-uslubiy majmuasini tarkibiy qismlari va mazmunli ko'rsatkichlarini ayting.
- 2. Sizning fikringizcha o'quv-uslubiy majmuasini ahamiyati nimadan iborat? Javobingizni asoslang.
- 3. Reja-topshiriq modelini chizma ko'rinishida tasvirlab bering va uning mazmunli ko'rsatkichlarini yoritib bering.
- 4. O'quv mashg'ulotiga reja-topshiriq va o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqing.



### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1. Mamlaktimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda Davlat ta'lim standartlarining ahamiyati nimada?
- 2. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda kasblar tasniflagichi qanday funksiyalarni bajaradi?
- 3. Kasblar tasniflagichining mazmuni va uning vazifalari nimalardan iborat?
- 4. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quv reja va dasturlar ahamiyati va ularning vazifalari nimalardan iborat?
- 5. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda kalendar-taqvimiy rejaning ahamiyati nimada?
- 6. Talabalar egallashi lozim bo'lgan asosiy umum-o'quv ko'nikma va malakalarini ayting, ular mazmunini yoriting.
- 7. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quv fani bo'yicha talabaga mo'ljallangan O'UM tuzilishi va mazmunini izohlang.

**O'QUV  
MAQSADI**

*Ta'lim metodlari, talablar, turlari, mohiyati ta'lim tashkil etish shakllari to'g'risida bilimlarni shakllantirish*

**REJA:**

1. O'qitish shakllari.
2. O'qitishning jamoaviy, guruhiy va individual shakli.
3. O'qitishning masofaviy shakllari.
4. Mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari: ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, mustaqil ta'lim.

**Mavzuga oid tayanch iboralar:**

*Ta'lim shakli, ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari, an'anaviy darslar, noan'anaviy darslar, sinf, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ma'ruza, munozara, faol, passiv, amaliy, ko'rgazmali, pedagogik jarayon.*

**Dars** deb - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat, shu maqsad va mazmun o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, usul va tuzilishi bo'lgan, qat'iy dars jadvaliga muvofiq, o'qituvchi rahbarligida, sinf o'quvchilarining hammasi bilan yoki har biri bilan individual (yakka) ravishda o'tkaziladigan ilmiy muloqotning tashkiliy shakliga aytiladi. Dars - ta'lim muassasalarida ta'limning tashkiliy shakli hisoblanadi. Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir.

Sinf - dars tizimi quyidagi mazmunga egadir:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilim darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan o'quvchilarning doimiy guruhiga egadir;

2. Dars jarayoni asosan 45 daqiqa (yoki bir akademik soat — 80 daqiqa) davom etib, qa'tiy jadval asosida olib boriladi.

3. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat birligiga asoslangan bo'lib, bevosita o'qituvchi rahbarligida jamoa, guruhli va yakka tartibda olib boriladi.

4. Dars mashg'uloti o'tilayotgan va o'zlashtirilayotgan materiallarning mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida olib boriladi hamda ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Darsda o'qituvchi bilan birga o'quvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslanadi. O'qituvchi darsda barcha o'quvchilarni muayyan faoliyatga yo'llaydi va ular faoliyatini nazorat qiladi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro aloqalari va nazoratini qo'llab-quvvatlab turadi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faoliyati o'quvchilar tomonidan fan asoslarining o'zlashtirilishi, ularda zarur ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi **didaktik talablar** qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarning aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.

2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

3. O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarini tanlash.

4. Mashg'ulotlarning turli shakllarini: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.

5. O'qituvchining rahbarlik roli bilan o'quvchilar faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.
7. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.
8. Darsda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.
9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.
10. Darsda o'quvchi erkinligini ta'minlashga erishish.

Darsga asosan **quyidagi maqsadlar** qo'yiladi: ta'limiy maqsad; tarbiyaviy maqsad; rivojlantiruvchi maqsad; qiziqtiruvchi maqsad.

**Ta'limiy maqsadga** umuman quyidagilar kiradi: yangi tushunchalarni shakllantirish; yangi qonun, qoida, xususiyat va belgilarni o'zlashtirishni ta'minlash; yangi harakat usullarini o'rganish; bilimlarga etishmovchiliklarni bartaraf etish; malakalarni shakllantirish; ma'lum harakat usullarini mustahkamlash; dunyoqarash g'oyalari va muammolarini aniqlash.

**Tarbiyaviy maqsad** o'quvchilarda quyidagi muayyan shaxs sifatleri va karakterini tarkib toptirishdan iboratdir: dunyoqarashni va kasbga qiziqtirishni; o'z-o'zini tekshirish va o'zaro yordam; fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini; nutq madaniyatini; mehnatga ongli intizom va munosabatni; ta'lim olishga ijobiy munosabatni; ish o'rnini tashkil etish.

**Rivojlantiruvchi maqsad** dars jarayonida talabalarning psixologik sifatlarini diqqat, xotira, tafakkur, bilish qobiliyatlarini shakllantirish.

**Qiziqtiruvchi maqsad** kasbga qiziqish uyg'otish malakalarini, kasbiy sifatlarini shakllantirish, kasbiy madaniyatini tarkib toptirish, o'z kasbga munosabatni to'g'ri yo'naltirish.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan **dars tiplari** quyidagilardir:

1. YAngi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi.

4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.

5. Umumiy yoki aralash dars.

6. Bilimlarni mustahkamlash darsi.

7. Muammoli dars.

Muayyan dars tipi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars tipining turlari bo'lishi mumkin. Misol uchun, ta'lim muassasalarida eng ko'p qo'llanadigan dars tiplaridan biri — yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin:

A) yangi bilimlarni bayon qilish;

B) yangi bilimlarni mustahkamlash;

V) yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;

G) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish va hokazo.

Misol uchun, aralash dars tipi quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

#### **Umumiy yoki aralash dars:**

1. Tashkiliy qism.

2. Uyga berilgan topshiriqni tekshirish.

3. O'quvchilar bilimini og'zaki (yakka tartibda, bir yo'la yoki aralash) tartibda tekshirish.

4. YAngi o'quv materialini bayon qilish.

5. YAngi o'quv materialini mustahkamlash.

6. Uyga topshiriq berish.

7. Darsni yakunlash.

Takroriy umumlashtiruvchi dars odatda o'quv dasturining ma'lum bir qismi, bob, bo'lim yoki yirik mavzu o'tib bo'lgandan keyin o'tkaziladi.

#### **Bilimlarni mustahkamlash darsi:**

1. Tashkiliy qism.
2. Uyga berilgan topshiriqni tekshirish.
3. O'quvchilardan so'rash, o'quv materialini mustahkamlash.
4. Uyga topshiriq berish.
5. Darsni yakunlash.

**YAngi bilimlarni o'rganish darsi:**

1. Tashkiliy qism.
2. YAngi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash.
3. Uyga topshiriq berish.
4. Darsni yakunlash.

**Muammoli dars:**

1. Tashkiliy qism.
2. Muammoni bayon etish.
3. Muammoni hal qilish yo'llarini ko'rsatish va hal qilish.
4. Natijalarni muhokama qilish.
5. O'qituvchining izohlashi va umumlashtirishi.
6. Uyga topshiriq berish.
7. Darsni yakunlash.



**Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar**

1. Nazariy amaliy dars mashg'ulotlari uchun dars texnologiyasini ishlab chiqing.
2. Biror mavzuga oid o'quv mashg'uloti uchun o'quv maqsadlarini ishlab

chiqing.

3. "Zamonaviy dars" mavzusida insho yozing.



### Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ta'lim metodlari nima?
2. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasini aytib bering?.
4. Og'zaki ta'lim metodlari va ularning mohiyati?.
5. Ko'rgazmali ta'lim metodlari va ularning ahamiyati?.
6. Amaliy ta'lim metodlari va ularning mohiyatini tushuntirib bering?.
7. Faol ta'lim metodlari va ularning ahamiyati nimadan iborat?.
8. Darsga qo'yiladigan didaktik talablar nimalardan iborat?
9. Dars maqsadlari va ularni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

8

## MA'RUZA TURLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**O'quv maqsadi**

*Talabalarda ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish hamda ularga qo'yiladigan talablar to'g'risida bilimlarni shakllantirish*

### Reja:

1. Ma'ruza va uni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar.
2. Ma'ruza turlari: muammoli, kirish, axborotli, vizual, binar, sharhlovchi, ma'ruza-munozara, input-ma'ruza, on-line ma'ruzalar va ularni tashkil otish, otkazish metodikasi



### **Ma`zuga oid tayanch iboralar:**

*Ma`ruzalar, tasniflash, belgilar, turlari, sifat, belgilovchi ko`rsatkichlar, tayërlanish, bosqichlar, tarkibiy qismlar, o`qish, uslubiy, ëndoshuv, amaliy mashg`ulot, tashkil etish mashg`ulotlarini o`tkazish shakllari*

Ma`ruza – bu talabalarga, tinglovchilarga, malaka oshiruvchilarga, anjuman ishtirokchilariga axborot berish.

Ma`ruzalarning tasniflash belgilari va turlari

Ma`ruza – o`qituvchining rahbarligi asosida aniq belgilangan vaqt davomida bo`lg`usi farmasevt talabalarni ularning har birining xususiyatlarini hisobga olish, hamma o`quvchilar bevosita mashg`ulot davomida o`rganilaëtgan fan asoslarini egallab olishlari, talabalarning idrok etish qobiliyatlarini va ma`naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi ish vositalari, metodlaridan foydalanishning tashkiliy shaklidir.

Ma`ruzaning samaradorlik shartlari bo`lib, ta`lim vositalari, pedagogik texnika va faol ta`lim usullarini qo`llash hisoblanadi Oldindan ko`zlangan xatoliklar bilan ma`ruzaning pedagogik vazifalari –

bu yangi material mazmunini ëritib berish, talabalarni taklif etilaëtgan ma`lumotni doimo nazorat qilishlariga qiziqtirishdir.

Ma`ruza, amaliy mashg`ulot, seminar va laboratoriya mashg`ulotlariga tayërgarlik ko`rish uchun o`qitilaëtgan kursga ajratilgan jami soatlar miqdorining 30% miqdorda soat ajratiladi.

Ma`ruza – oliy ta`limda ta`limni tashkil etishning asosiy shakl hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi.

1. Yo`naltiruvchi – talabalarni o`quv materialining asosiy jihatlariga e`tibor qaratishga imkon berish.

2. Axborot – professor-o'qituvchi ma'ruza vaqtida muammoni, muammo bilan bog'liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi.

3. Metodologik – ma'ruza jaraenida muammoning falsafiy-nazariy asoslari baen etiladi.

4. Tarbiyalovchi – talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish.

5. Rivojlantiruvchi – talabalarda mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Ma'ruzalarning quyidagi turlari tafovut etiladi:

- kirish ma'ruzasi;
- ma'lumotli ma'ruza;
- anjuman-ma'ruza;
- muammoli-ma'ruza;
- ma'ruza-munozara;
- vizual-ma'ruza;
- konspektli-ma'ruza;
- maslahatli-ma'ruza.

Innovatsion o'qitish metodlari va texnologiyalari oly ta'lim muassasalarida samarali o'qitish shakllari sifatida quyidagilar tavsia etiladi:

- muammoli ma'ruza;
- videoma'ruza, vebinarlar;
- binar ma'ruza;
- intensiv-interaktiv seminar;
- trening, videotrening;
- interfaol ekskursiya;
- On-line seminarlari;
- taqdimot, kichik guruhlardagi ish v.h.k.

Binar ma'ruza – —Binar Iso'zi lotinchada olingan bo'lib, —qo'shl, ikkil degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan

mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoën qiladi.

Trening – trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishidir.

Kafedradagi professor-o'qituvchilar muammoli-ma'ruzalar olib borish bilan talabalarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali mavzu rejasidagi masalalarni baën etadilar. Bu jaraënda talabalar qo'yilgan muammoga yechim izlaydilar va ma'ruzani puxta o'zlashtirgan holda muammoning yechimini topadilar.

Ma'ruzalarning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar

Ma'ruza turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish ma'ruzasi	Talabalarda o'quv fani to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish
Ma'lumotli ma'ruza	Talabalarda muammoga doir ma'lumotlarni axborat-ko'rinishida tarzda taqdim etish
Anjuman-ma'ruza	Talabalar tomonidan o'quv materialini izlanishli tarzda o'zlashtirilishiga erishish
Muammoli-ma'ruza	Talabalarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali mavzu rejasidagi masalalarni baën etish
Ma'ruza-munozara	Fikrlar almashinuvini tashkil etish asosida ma'ruza qismlarini o'zlashtirilishiga erishish
Vizual-ma'ruza	Vizual-materiallarni taqdim etish orqali talabalar tomonidan materialning o'zlashtirilishiga erishish
Konspektli-ma'ruza	Talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishga erishish maqsadida tushuntirish bilan birga eng asosiy qismlarini ëzdirib borish
Maslahatli-ma'ruza	Savol va javoblar tarzida ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish
Binar-ma'ruza	Muammo yuzasidan tadqiqot olib borgan mutaxassis-olim bilan birgalikda ma'ruzani tashkil etish

Ma'ruza o'quv jaraëning asosiy bo'g'ini, dars o'tishning asosiy shakllaridan biridir. Ma'ruza bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki baën qilish

ko'zda tutilgan, hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, umumlashtirishning murakkabligi bilan ajralib turadi. Ma'ruza (arabcha, leksiya (lot. lectio) – o'qish) o'quv materiali, biror masala, mavzu kabilarning mantiqiy izchil, ma'lum bir tizimga solingan baenidir.

Ma'ruzaga ikki nuqna nazardan endashish mumkin

1. O'quv jaraenining tashkiliy shakli sifatida.
2. Bilimni so'z bilan ifodalash, og'zaki baen qilish metodi sifatida.

Ma'ruza boshqa og'zaki, so'z orqali ifodalanadigan metodlardan.

- a) nisbatan qa'tiy belgilangan tarkibi;
- b) o'quv materialini mantiqiy izchilikda baen qilish;
- d) tasniflash, tariff berish, obrazli isbotlash;
- e) beriladigan axborotning ko'pbliigi;
- g) materialni eritib berishning tizimliliigi bilan ajralib turadi.

Ma'ruza o'quvchi-talabalar bilan muloqotda bo'lishning alohida shakli va uni boshqa hech qanday o'quv shakli bilan almashtirib bo'lmaydi. Ma'ruzaning oldiga qo'yiladigan maqsad har xil bo'lib, bu maqsad maksimal darajada amalga oshishi uchun, uning funksiyalariga ahamiyat berish kerak. Ma'ruza o'qitishning quyidagi qator funksiyalarini bajaradi.

1. Professional ta'lim berish va duneqarashni shakllantirish.
2. Talabalar diqqatini asosiy maqsadga yo'naltirish.

Ma'ruzada talabalarning diqqat-e'tibori o'quv materialining asosiy mazmuni, qonun-qoidalari, ularning nazariy va kelgusidagi amaliytda, mutaxassislik faoliyatida qanday o'rin tutishi va ahamiyatiga, uni o'zlashtirish metodlariga qaratiladi.

Idrok, tafakkurni rivojlantimvchi – tinglovchilarda bilmaganini bilishga qiziqish uyg'otadi. Mantiqiy fikrlash va o'z fikrini asoslashga o'rgatadi.

Bilim berish, o'rganaetgan fan bo'yicha axborot olish, olgan axboroti asosida xulosa chiqarish, umumlashtirishga o'rgatish.

Metodologik – ma'ruza jaraenida tadqiqot metodlari taqqoslanadi, qiieslanadi, ilmiy izlanish tamoyillari aniqlanadi.

Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Ularni axloqiy, ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, mehnatga munosabati, ijtimoiy-psixologik xislatlarini shakllantirish.

Ma'ruzada mavzuning asosiy savollari ketma-ketlik asosida ëritiladi. Albatta, ma'ruzaning metodik jihatdan ëritilishi, ba'ën etilishi qo'yilgan maqsad, o'rganilaëtgan fanning, mavzuning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Ma'ruza faqatgina farmasevtika rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib berish bilan cheklanishi kerak emas, fanning so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda ilmning amaliëtda qanday ahamiyatga ega ekanligini, haëtda real muammolarni yechishdagi ahamiyatini, yechish yo'llarini ham ko'rsatishi kerak.

Ma'ruza qanday fandan o'qilishidan qat'i nazar, ilmiy xarakterga ega bo'lishi, turli nazariy yo'nalishlar, ilmiy maktablarning asosiy g'oyalarini talabalar ongiga yetkazishi va olgan bilimini ishonchga aylantirishi kerak. Har qanday ma'ruzaning eng zarur sharti auditoriya bilan muloqotga kirishishdir. Ma'ruza o'qish, eng avvalo, unga tayërlanishdan boshlanadi. Buning uchun birinchi navbatda, ma'ruza mavzusi bo'yicha adabiëtlar tanlash hamda ular bilan tanishib chiqish kerak. Ikkinchidan, fan bo'yicha ishlab chiqilgan dasturga ko'ra, ma'ruza rejasi va reja bo'yicha matn tayërlanishi hamda darsni o'tkazishda qo'llaniladigan metodlarni tanlab chiqish, dars jaraënini texnologik tizim sifatida tarkibi, ketma-ketligini aniqlash lozim. Bir tanlovli test topshiriqlari yagona javobni tanlash imkoniyati berilgan topshirilar hisoblanadi. Bir tanlovli savollar «asos» deb yuritiladigan tugatilmagan jumla ëki savollardan iborat bo'lib, unga ketma-ket to'rtta ëki beshta haqiqatga yaqin bo'lgan javoblar tanlovi keltiriladi. Talaba ular orasidan bitta to'g'ri javobni tanlashi kerak. To'g'ri javob «kalit» deb, noto'g'ri javoblar «chalg'ituvchi» javoblar deb ataladi.

Ma'ruzalarga tayërlanish bosqichlari

Professor-o'qituvchining ma'ruzaga tayërgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi – diagnostika, tashhislash, prognoz qilish, loyihalashtirish, rejalashtirish.

*Diagnostika* – bu darsni tashkil etishning barcha vaziyatlarini — oydinlashtirib olishdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va laëqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoën bo'ladi.

*Prognoz qilish* – bo'lajak darsni o'tkazishning turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlar bo'yicha eng ma'qulini tanlab olishga qaratiladi.

Loyihalashtirish, rejalashtirish darsga tayërlanishning yakuniy bosqichidir. Uning natijasi o'quvchilar idrok etish faoliyatini boshqarish dasturining yaratilishi hisoblanadi. oshqarish dasturi qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jaraëni muhim vaziyatlari, kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jaraëni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirishni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

### **Ma'ruzaning tarkibiy qismlari**

Yuqorida ifodalangan hamma ma'ruzalarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ma'ruzaga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha ëki yakka

o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi. Shuningdek, ma'ruza davomida o'qituvchi ma'ruza vaqtini to'g'ri taqsimlay olishi lozim. Bu jaraenda ma'ruzaning kirish qismiga 5-10 daqiqa, asosiy qismining baeniga 60-70 daqiqa, xulosa qismiga esa 5-10 daqiqa vaqt ajratilishi talabalarga samarali bilim berish kafolati sifatida qaraladi.

### **Ma'ruzalarni o'qitishda uslubiy endoshuvlar:**

1. Fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jaraen qonuniyatlari asosida tashkil etish.

2. Darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarining optimal nisbatlarini ta'minlash.

3. O'quvchilarning qiziqishlari, laeqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.

4. O'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish.

5. Ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish.

6. Shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish.

7. O'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi.

8. Pedagogik vositalardan samarali foydalanish.

9. Zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat oqilona usullarini shakllantirish.

10. Mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiiejini yuzaga keltirish.

11. Har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va taxmin qilish.

### **Ma'ruza matnini tuzish qoidalari va talablari:**

Har bir ma'ruza quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi.

1. O'qitish.

2. Tarbiyalash.

### 3. Rivojlantirish.

Ana shularni hisobga olib ma'ruzaga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (ëki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiëjlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy ëndoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Ma'ruzaga tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari hamda mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, haëtiy muhim sifatleri, tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalarni shakllantirish.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish lozim. O'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanaëtgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta ishlash kabilar kiradi.

Ma'ruzalar kursi – fanning o'quv dasturi bo'yicha ma'ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa ëritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiëtlar ko'rsatilgan, o'z-

o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Ma'ruzalar to'plami – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa e'ritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyatlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadda nashr qilingan tarqatma material.

Elektron ma'ruza – interaktiv elementlar va giperuzatishlarni qo'llab, o'quv fani ma'ruza materialini namoyish qiluvchi multimedik tizim.

#### **Ma'ruzaning texnologik xaritasi**

Mavzu	<b>MA'RUZA TURLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR</b>
-------	--

#### **MA'RUZA MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

Vaqti- 2 soat	Talabalar soni: 50-80 ta
O'quv mashg'uloti shakli	Kirish, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Ma'ruzalarning tasniflash belgilari va turlari</li> <li>2.Ma'ruzalarning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar</li> <li>3.Ma'ruzalarga tayërlanish bosqichlari</li> <li>4.Ma'ruzaning tarkibiy qismlari</li> <li>5.Ma'ruzalarni o'qishda uslubiy ëndoshuvlar</li> <li>6.Ma'ruza matnini tuzish qoidalari va talablari</li> <li>7.Muammoli ma'ruza</li> </ol>

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga ma'ruzalarning tasniflash belgilari va turlari, ma'ruzalarning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar, ma'ruzalarga tayërlanish bosqichlari, ma'ruzaning tarkibiy qismlari, ma'ruzalarni o'qishda uslubiy ëndoshuvlar, ma'ruza matnini tuzish qoidalari va talablari, muammoli ma'ruzani o'rgatish mavzuning maqsadini tashkil etadi.	
Pedagogik vazifalar: ma'ruzalarning tasniflash belgilari va turlari, ma'ruzalarning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar, ma'ruzalarga tayërlanish bosqichlari, ma'ruzaning tarkibiy qismlari, ma'ruzalarni o'qishda uslubiy ëndoshuvlar, ma'ruza matnini tuzish qoidalari va talablari, muammoli ma'ruza to'g'risida mukammal bilimlar berish	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: ma'ruzalarning tasniflash belgilari va turlari, ma'ruzalarning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar, ma'ruzalarga tayërlanish bosqichlari, ma'ruzaning tarkibiy qismlari, ma'ruzalarni o'qishda uslubiy ëndoshuvlar, ma'ruza matnini tuzish qoidalari va talablari, muammoli ma'ruza haqidagi bilimlarni o'rganish
O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma'ruza, ba'en qilish.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, tarqatma materiallar.
O'qitish shakllari	Ommaviy
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, komp'yuter bilan jixozlangan auditoriya.

### MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilaëtgan natijalar yetkaziladi; mashg'ulot	1.1. Tinglaydi, ëzib oladi.

	ko'rgazmali ma'ruza shaklida borishini ma'lum qilinadi.	
2-bosqich. Asosiy (65 min)	2.1. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani ba'en etishda davom etadi. 2.2. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va e'zib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. Ilovalar mazmunini muhokama qiladi. 2.2. Eshitadi va e'zib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min)	3.1 Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. 3.2. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. 3.3 Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.	3.1. O'ylaydi, javob beradi. 3.2. Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqni e'zib oladi



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. Ma'ruza mashg'ulotlari turlarini klaster ko'rinishda tasniflang
2. Ma'ruza mashg'ulotlari uchun dars texnologiyasini ishlab chiqing.
3. Biror mashg'ulot mavzuga oid o'quv mashg'uloti uchun o'quv maqsadlarini ishlab chiqing.



## Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar

1. Ma`ruza haqida tushunchangizni izohlang
2. Ma`ruza mashg`ulotiga qo`yiladigan didaktik talablar.
3. Ma`ruza turlarini izohlang
4. Ma`ruza mashg`ulotini o`tkazish strukturasi tushuntiring

9

## SEMINAR VA AMALIY MASHG`ULOTLARNI O`TKAZISH TEXNOLOGIYASI

**O`quv maqsadi**

*Seminar va amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish va o`tkazish metodikasi to`g`risida bilimlarni shakllantirish*

**REJA:**

1. Seminar va uni tashkil etishga qo`yiladigan didaktik talablar.
2. Seminar turlari: muammoli, kirish, axborotli, vizual, binar, sharhlovchi, ma`ruza-munozara, input-ma`ruza, on-line ma`ruzalar va ularni tashkil etish, o`tkazish metodikasi.
3. Amaliy mashg`ulotni tashkil etish



**Mavzuga oid tayanch iboralar:**

*Amaliy mashg`ulot, tajriba, ekskursiya, ta`lim, jarayon, maxsus fan, mustaqil ish, seminar, mashq, asbob-uskuna, mehnat qurollari, faoliyat*

Seminar – bu professor-o`qituvchini ta`lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo`naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo`llay olish uchun zaruriy shart-sharoitni ta`minlovchi ta`limni tashkil etish shaklidir.

**Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo`llaniladi.**

1. Nazariy materialni tartibga solish.

2. Bilimlarni mustahkamlash.
3. Ko'nikma va malakalarni hosil qilish.
4. Bilimlarni nazorat qilish.

### **Seminar mashg'ulotiga tayërgarlik ko'rish va o'tkazish**

Seminar mashg'ulotiga tayërgarlik ko'rish va o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. Nima uchun? – Seminarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad.
2. Qanday tarzda?– Seminarni olib borish texnologiyasini ishlab chiqish.
3. Nimani muhokama qilish? – Seminarni olib borish vaqtda muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.
4. Qanday omillarni hisobga olish zarur? – Ceminarni tashkil etish jaraënida ma'lum shart-sharoitlar (talabalarning tayërgarlik darajasi, bilish imkoniyati kabilar)ni hisobga olish.

### **Seminar turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari**

Seminar turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Ma'ruza (doklad)li seminar	Seminar mashg'uloti talabalarning ma'ruzalarini tinglash va munozara shaklida o'tkaziladi.
Dialogli seminar	Seminar mashg'uloti ommaviy va individual savol-javoblar tariqasida tashkil etiladi.
Refleksiv seminar	Seminar mashg'uloti mavzuga doir ma'lumotlarni muhokama qilish va aniq xulosalarga kelish tarzida o'tkaziladi
Seminar-fikrlar almashinuvi	Seminar mashg'ulotini tashkil etishda manbalardan foydalaniladi va turli fikrlarni shakllantirishga erishiladi.
Seminar-illustrasiya	Seminar mashg'uloti manbalar bilan ishlash tarzida tashkil etiladi va materiallar

	illustrasiya tarzida namoyish etiladi.
Evristik seminar	Seminar izlanishli-topshiriqli tarzda tashkil etiladi.

**Mutaxassislik fanlaridan amaliy va seminar mashg'ulotlari  
darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi" mavzusidagi amaliy  
mashg'ulotining texnologik xaritasi va modeli**

T/r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1.	<p>Tayёрlov bosqichi:</p> <p>Ishning maqsadi: Mutaxassislik fanlaridan amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.</p> <p>1.2.1 Amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishni biladi.</p> <p>1.2.2. Zarur jihozlar va asbob-uskunalar hamda xavfsizlik texnikasi haqida tushunchalar bera oladi.</p> <p>1.3 Asosiy tushuncha va iboralar: amaliy va seminar mashg'ulotlari, mashg'ulotlarini o'tkazish shakllari.</p> <p>1.4. Dars shakli: individual, kichik guruhlarda.</p> <p>1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: ko'rsatmali dialogli amaliy, ko'rgazmali, sho'ng'ish darsi, —Paradokslar darsi.</p> <p>1.6. Kerakli jixoz va vositalar: video protektor, videofilmlar, kadaskop, plakatlar.</p>	O'qituvchi
2.	<p>O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:</p> <p>2.1. Mavzu e'lon qilinadi.</p> <p>2.2. Mashg'ulot boshlanadi, ishni bajarish tartibi, kerakli jihozlar, asbob-uskunalar haqida tushunchalar beriladi.</p>	O'qituvchi 15 minut

	<p>Guruhda ishlash bosqichi:</p> <p>3.1. Talabalarga instruktaj turlari tarqatma material sifatda beriladi.</p> <p>3.2. Instruktaj turlari bo'yicha jadval to'lg'aziladi.</p> <p>3.3. Barcha talabalar bahs munozaraga kirishadi.</p> <p>3.4. Umumiy hulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi</p>	<p>O'qituvchi talaba, 40 minut</p>
4.	<p>Mustahkamlash va baholash bosqichi:</p> <p>4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi:</p> <p>Mutaxassislik fanlari darslarining tiplarini sanab bering.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar strukturasi haqida ma'lumot bering.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar qanday shakllarda o'tkazildi?</p> <p>Tadqiqot ishlari qanday tashkil qilinadi va o'tkaziladi?</p> <p>O'quv dasturi va ishchi reja bo'yicha seminar ishlarining o'rnini aniqlang.</p> <p>Seminar ishlaridan maqsad nima?</p> <p>Seminar mashg'ulotining tarkibiy tuzilishi qanday?</p> <p>Seminar mashg'ulotida qo'llaniladigan hujjatlar.</p> <p>4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonida) baholanadi</p>	<p>O'qituvchi 15 minut</p>
	<p>O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi:</p> <p>5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi.</p> <p>5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p> <p>5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli O'zgartirishlar kiritadi.</p>	<p>O'qituvchi 10 minut</p>

**Ishning maqsadi:** Mutaxassislik fanlaridan amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi bilan tanishish.

**Ishning mazmuni:** Amaliy va seminar mashg'ulotlariga tayërgarlik. Amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish shakllari. Zarur jihozlar va

asbob-uskunalarni hozirlash. Dars jaraeniga o'qituvchinng vazifasi. Darsni yakunlash.

**Topshiriq:** Umumiy ko'rsatmali amaliy mashg'ulotlarni tashkil qiling va o'tkazing.

Ko'rsatmali ishlarning natijalaridan keyingi o'quv jaraenida foydalaning.

Umumiy ko'rsatmali seminar ishlarini o'tkazishda ta'lim oluvchilarga baho bering.

Seminar mashg'ulotining reja baennomasini tuzing.

Amaliy mashg'ulot o'quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni talabalarning professor-o'qituvchi bilan birgalikda bajarishini o'zida aks ettiradi.

Amaliy mashg'ulotning bosh maqsadi – biror bir fanga doir nazariy qoidalarni amaliy jihatlarini ochib berish, talabalarning o'rganilaetgan qonuniyatlarni o'ziga xosliklari va namoen bo'lish shakllarini chuqur tushunishlarini ta'minlash, bo'lajak mutaxassislarda o'rganilaetgan ob'ekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Amaliy mashg'ulotlar talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Amaliy mashg'ulotlar – o'quvchilarning mavzudagi muhim masalalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashini, keyinchalik ularni jamoa bo'lib muhokama qilishini tashkil etish shaklidir.

Amaliy ishlar va mashqlarga talabalarning o'quv xonalarida va laboratoriyalarida, tajriba-yer uchastkasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, oddiy tajribalar uyushtirish, har xil ezuv ishlari, statistika ma'lumotlarni tahlil qilish kabilar kiradi.

Bu o'qitish usullarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsa ham ulardan doim bir-biriga bog'liq holda foydalaniladi. Har bir o'qituvchi qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar, didaktik tamoyillarga muvofiq

holda o'qitish usullarining xilma-xil turlarini bir darsning o'zida ham qo'llashi mumkin.

Amaliy ta'lim metodlari og'zaki hamda ko'rgazmali metodlar bilan birgalikda qo'llaniladi, chunki har qanday mashg'ulotlar avvalida albatta yo'riqnoma berilishi shart. Og'zaki tushuntirish va namunalarni amoyish qilish, shuningdek, bajarilgan ish tahlili butun mashg'ulot davomida ham davom ettiriladi.

O'quv rejada o'quv fani bo'yicha o'quv va ishlab chiqarish amaliyeti ko'zda tutilgan holda fan dasturining ushbu qismi e'tiladi. O'quv va ishlab chiqarish amaliyetlarini maqsadi va mohiyati, shakli va mazmuni, amaliyet jara'ida talabalar tomonidan tayaylanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi. Bunda o'quv fanining mohiyati, kasbiy ta'lim dasturidagi o'rni, tegishli yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayaylashning o'ziga xos taraflari, tegishli yo'nalishga oid jahondagi ilg'or tajribalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar hisobiga olinishi zarur.

O'quv va ishlab chiqarish amaliyetlarini o'tkazish bo'yicha kengaytirilgan uslubiy ko'rsatmalar tegishli kafedralar tomonidan alohida uslubiy qo'llanma ko'rinishida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Mazkur qism hajmi o'quv fanining mohiyati va unga kiritiladigan zaruriy ma'lumotlar hajmiga bog'lik, bo'lib, 80 ta so'zdan ortmasligi tavsiya etiladi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha mutaxassislar tayaylashning muhim qismi bo'lgan talabalar amaliyeti, ilg'op korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'tkaziladi.

Talabalar amaliyeti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari fanlarining nazariy qismini mustaxkamlash uchun zarur bo'lgan, o'qish jara'ining bevosita ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkaziladigan o'qitishning davomidir. Har bir amaliyetning maqsadi, mazmuni va muddati ta'lim yo'nalishi, mutaxassisliklarning Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va amaliyet dasturlarida belgilanadi. Malakaviy amaliyetlar bakalavriat ta'lim

yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklari Davlat taʼlim standartlari va oʻquv rejalarida koʻzda tutilgan turli shakllarda, yaʼni:

- oʻquv-tanishuv;
- ishlab chiqarish;
- pedagogik;
- bitiruv oldi amaliyatlari va boshqa turlarda tashkil qilinadi.

Oliy taʼlim muassasasi taʼlim yoʻnalishlarining oʻziga xosligini hisobga olib, kadrlar buyurtmachilari talablariga binoan, Oliy taʼlim muassasasi Ilmiy Kengashi qaroriga muvofiq amaliyotning boshqa turlarini kiritish huquqiga ega.

Hozirgi kunda oliy taʼlim muassasalarining bakalavriat taʼlim yoʻnalishlarida talabalarni malakaviy amaliyatlari amaldagi Davlat taʼlim standartlari va oʻquv rejalariga asosan 12- xaftadan 24 xaftagacha qoʻyilgan. Amaliyatlarga Oliy taʼlim muassasasi rektori buyrugʻi bilan kafedralarning ishlab chiqarishni yaxshi biladigan, tajribali professorlar, dotsentlar va oʻqituvchilari rahbarlik qiladi.

Amaliyot rahbarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- zarur tayyergarlikni tashkil etish uchun amaliyot obʼektlariga maliyot boshlanishidan oldin borish;
- talabalarining amaliyotga borishidan oldin tashkiliy tadbirlar, amaliyot oʻtkazish tartiblari, xavfsizlik texnikasi haqida koʻrsatmalar berish va hokazolarni oʻtkazishni taʼminlash;
- talabalarni Farmasevtika ishini tashkil qilish kafedrasini topshiriqlarida koʻzda tutilgan ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- amaliyot obʼektlarida talabalarni mehnat sharoitlari meʼoridagidek taʼminlanganligini nazorat qilish;
- talabalarni ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilish;
- amaliyot yakunlari boʻyicha talabalar ilmiy anjumanlarga tayyergarlashida va amaliyot natijalarini himoyasida ishtirok etish;
- talabalarining amaliyot boʻyicha hisobotlarini koʻrib chiqish va

tavsiyanomalar berish;

- talabalar amaliёт o‘tganligi va ularning amaliy tayergarligidagi kamchiliklari ko‘rsatilgan, amaliётni yanada takomillashtirish bo‘yicha baen etilgan takliflar, ezmam hisobotni kafedra mudiriga taqdim etish;
- barcha amaliёт bilan bog‘liq ishlarni amaliётga birlashtirilgan rahbar bilan birgalikda amalga oshirish va hokazolar.

Talabalar amaliётining umumiy rahbarligi amaliёт ob‘ekti rahbarining buyrug‘i bilan mas‘ul xodimlarning biriga yuklatiladi. Sex, bo‘lim, laboratoriya, ulgurji va chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi dorixonalarda talabalar amaliётining bevosita rahbarligi amaliёт ob‘ekti boshlig‘ining buyrug‘i bilan tarkibiy bo‘limning yuqori malakali mutaxassis zimmasiga yuklanadi.

Talaba amaliётni o‘tishda:

- amaliёт dasturida ko‘zda tutilgan topshiriqlarni to‘liq bajarishi;
- amaliёт ob‘ektining ichki mehnat tartib qoidalariga bo‘ysinishi;
- mehnat muhofazasini, havfsizlik texnikasini va ishlab chiqarish sanitariya qoidalarini o‘rganishi va qat‘iy rioya qilishi;
- bajarilgan ish va uning natijalari uchun, shu amaliёт ob‘ektlari ishchilari qatori javobgarlikni olishi;
- kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;
- amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida ezmam ravishda hisobot berishi va amaliёт bo‘yicha yakuniy hisobotni topshirishi lozim.

Amaliyot yakunida talaba yuqorida aytib o‘tilganidek, ezmam hisobot tayarlaydi va uni bevosita amaliёт ob‘ektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga oliy ta‘lim muassasasidan tayinlangan rahbarga topshiradi.

Hisobot talabaning amaliёт davrida bajargan muayyan ishlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, amaliёт obekti bo‘limlarining qisqacha izoxi, ular faoliyatining tashkiliy asoslari, amaliёт natijalari bo‘yicha xulosa va takliflarni o‘z ichiga oladi. Amaliyot o‘tgan har bir talaba:

- birinchidan, amaliyot o'tish jara'inini yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini berishi;
- ikkinchidan, chet ellardagi ishlab chiqarish tajribalarini o'rganishi uning ilg'or natijalarini amaliyotga joriy etishga e'tibor berishi;
- uchinchidan, hisobot mazmunini shakllantirishda, har bir talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha amaliyot davomida olgan ma'lumotlarni, oldingi ma'lumotlar va internetdan olingan ma'lumotlar bilan qiësiy tahlil qilishi lozim.

Shu o'rinda, o'rinli bir savol tug'iladi hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning malakaviy amaliyoti qanday o'tkazilmoqda?

Malakaviy amaliyotlarning me'ëriy hujjatlar bilan ta'minlanishi qay ahvolda?

Afsuski ayrim oliy ta'lim muassasalarida malakaviy amaliyotlarga yetarlicha ahamiyat berilmayapti buning natijasida Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarida nazarda tutilgan malakaviy amaliyotlar faqatgina qog'ozda ëki talabalarni amaliyot bo'yicha yakuniy qaydnomalarida o'z mujassamini topmoqda. Nazariy bilim olgan lekin uni amaliyot bilan bog'lay olmaydigan kadrlar ertaga qanday qilib o'z faoliyatini olib borishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida malakaviy amaliyotlar xususida, yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

1. Oliy ta'lim muassasalari fakultetlarida jamoatchilik asosida fakultet dekanining amaliyot ishlari bo'yicha muovini lavozimi iritilishi lozim.
2. Oliy ta'lim muassasalarida barcha ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malakaviy amaliyotlarni o'tkazilishini tanqidiy o'rganib chiqish va amaliyotlarni o'tkazilishining optimal yo'llarini ishlab chiqish kerak.
3. Oliy ta'lim muassasalarida rejalashtirilgan malakaviy amaliyotlarni me'ëriy-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqish har bir amaliyot turi o'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish lozim.
4. Oliy ta'lim muassasalari va amaliyot ob'ektlari o'rtasida hamkorlik

shartnomalarini hozirgi kun talabidan kelib chiqib qayta shakllantirish lozim.

5. Fakultetlarda malakaviy amaliyatlarni o'tkazish bo'yicha amaliyotga qatnashadigan va amaliyotga rahbarlik qiladigan professor-o'qituvchilar uchun maxsus seminarlar tashkil qilish lozim.

6. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalasida amaliyot ob'ektlari bilan mutaxassis tayyorlovchi kafedralar o'rtasida uzviy aloqani yo'lga qo'yish lozim.

7. Har bir fanga ajratilgan umumiy soatlar miqdoridan kelib chiqib amaliyot dasturini ishlab chiqilishi va kalendar rejasi tuzilishi lozim.

8. Amaliyot rahbarlari talabalar amaliyot o'tganligi va amaliyot o'tkazishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatilgan hamda amaliyotni yanada takomillashtirish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalari to'g'risidagi e'zma hisobotni kafedra mudirlariga taqdim etishlari lozim.

9. Oliy ta'lim muassasalarida amaliyotni moliylashtirish masalasini hozirgi kun talabidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish lozim.

10. Oliy ta'lim muassasalarining har bir fakulteti amaliyot bo'limida quyidagi hujjatlarni shakllantirilishi lozim:

- amaliyot nizomlari;
- amaliyot jadvali;
- amaliyot dasturlari;
- amaliyot reyting grafigi va baholash mezonlari;
- amaliyot kalendar rejalari;
- amaliyot texnika xavfsizligi jurnali;
- amaliyot kundaligi;
- amaliyot hisobotlarini qabul qilish jurnali;
- amaliyot hisobotlari;
- amaliyot hisoboti bo'yicha kafedra ba'nnomalari;
- amaliyot bo'yicha Ilmiy Kengash ba'nnomalari;
- amaliyot bo'yicha O'quv-uslubiy Kengash ba'nnomalari;
- amaliyot bo'yicha hamkorlik shartnomalari;
- amaliyot bo'yicha buyruqlar va hokazolar.



### Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1. Amaliy mashg'ulotlarini o'tish texnologiyasini ishlab chiqing. Fikringizni bayon eting.
2. Seminar mashg'ulotlarini tashkillashtirish metodikasini ishlab chiqing.



### Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Seminar mashg'ulotining tarkibiy tuzilishi qanday?
2. Asosiy seminar turlarini ayting.
3. Har bir seminar qanday xususiyatlarga ega?
4. O'qituvchi tomonidan seminarni boshqarishni tanlashi qanday omillarni aniqlaydi? U yo'l nimada namoyon bo'ladi?
5. Seminar samaradorligini baholashda qanday mezonlarga amal qilish kerak?
6. Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish qanday xususiyatga ega.
7. Amaliy mashg'ulotlar strukturasi haqida ma'lumot bering.
8. Amaliy mashg'ulotlar qanday shakllarda o'tkazildi?

10

## MUSTAQIL TA'LIM VA LABORATORIYA MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

*O'quv maqsadi*

*Talabalarda mustaqil ta'limni tashkil etish hamda laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish to'g'risida bilimlarni shakllantirish*

### REJA:

1. Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni va maqsadi.
2. Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarining turlari, virtual

laboratoriyalar. 3. Mustaqil ta'lim va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi.



### **Mavzuga oid tayanch iboralar:**

*Mustaqil ta'lim, laboratoriya mashg'uloti, mazmuni, maqsadi, turlari, virtual laboratoriyalar, mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi, mustaqil uush mavzulari, tayёрлаш usullari, mustaqil ishni baholash, mezonlar.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish, ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning uzviy ravishda olib borilishi nafaqat mamlakatning intellektual jihatdan yuksalishiga, shuningdek, talabalarning ma'naviy barkamol bo'lishini ham ta'minlaydi. Yuqori malakali kadrlar tayёрlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoni o'qitish, xususan mustaqil ishning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy ta'lim jaraeni bu talabalarga faqat bilim berish, ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan bilimlardan foydalanish bo'yicha o'quv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lmay, balki ularga mustaqil bilimlarni qidirib topish, o'zlashtirish shakllari, usullari, vositalarini o'rgatishdan iborat.

Talabalarda mustaqil bilimlarni to'ldirib borish, ma'lumotlar oqimi ichidan kerakligini ajratib olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish, sifatli kadrlar tayёрlash jaraenining asosiy yo'nalishlaridan biri xisoblanadi.

Mustaqil ishni turlariga quyidagilar kiradi:

- ayrim mavzularni o'quv adabietlari ёrdamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha referat tayёрlash;
- amaliy mashg'ulotlar va seminarlarga tayёrgarlik ko'rish;

- laboratoriya ishlarini bajarishga tayërgarlik ko‘rish;
- kurs ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliëtda qo‘llash;
- mavzu ëki ma‘lum bir bob bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlar asosida
- xulosalar qilish va ilmiy maqola tayërlash;
- anjumanlarda ma‘ruzalar bilan qatnashish;
- bitiruv malakaviy ishini tayërlash;
- magistrlik dissertatsiyasini tayërlash;
- fanlar bo‘yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarish;
- mavzular bo‘yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayërlash.

O‘qitilaëtgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda talabalar mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. O‘qitiladigan fanlar bo‘yicha ishchi o‘quv dasturlarida talabalar mustaqil ishining mazmuni, mohiyati, shakli va hajmi hamda manbalari ko‘rsatiladi. Talaba mustaqil ishi uchun o‘quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo‘yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va fakultet o‘quv-uslubiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishni bajarish uchun har bir fan bo‘yicha talabalarga ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga yetkaziladi.

#### Mustaqil ta‘limning asosiy vazifalariga

- bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;
- ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish;
- ta‘lim olish usullarini egallash;
- tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish kiradi

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar, slaydlar, vaziyatli masalalar, testlar, krossvordlar, chaynvordlar tuziladi va Internet ma‘lumotlari olinadi. Mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad, professor-o‘qituvchilarning bevosita rahbarligi va nazorati ostida

talabalarni semestr davomida fanlarni uzluksiz o'rganishini tashkil etishi, olingan bilim, ko'nikmalarini chuqur o'rganib mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayergarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyati, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilish, ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish lozim. Mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar magistratura talabalarining mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha kafedrada ishlab chiqilgan va muntazam yangilanib boradigan uslubiy qo'llanmalarda keng eritilgan.

**Mustaqil ta'lim** – professor-o'qituvchilar tomonidan auditoriyada talabalarga yetkaziladigan mavzulardan tashqari o'quv fanining mazmuniga kiruvchi va aloqador mavzular, masalalar, axborotlarni mustaqil o'rganish va o'zlashtirishga qaratilgan muhim ta'lim jaraenidir.

Talaba mustaqil ta'limining asosiy maqsadi – auditoriyadan tashqari vaqtda o'qituvchining bevosita va bilvosita rahbarligi hamda nazoratida muayyan uquv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari turkumiga kiruvchi kurs loyihasi, kurs ishi, chizma-hisob, ijodiy va boshqa ishlarining mavzu va mazmuni, bajarish bo'yicha qisqa uslubiy ko'rsatmalar keltiriladi. Mazkur mustaqil ishlarining kengaytirilgan mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tegishli kafedralar tomonidan alohida uslubiy ko'rsatma ko'rinishida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Mazkur qism xajmi o'quv fanining mohiyati va unga kiritiladigan zaruriy ma'lumotlar xajmiga bog'likdir. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mazkur qismda mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil o'zlashtirishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar keltiriladi. Har bir mavzu ketma-ket raqamlanadi va unga ajratilgan soat ko'rsatiladi. Jadval tagidagi oxirgi katakda ushbu mashg'ulotlarga ajratilgan umumiy soatlar hajmi ko'rsatiladi, mazkur raqam o'quv rejadagi bilan to'lik mos tushishi shart. Mustaqil mashg'ulotlar jaraenida talabalar tomonidan tayerlanishi zarur bo'lgan

yakuniy ishlar shakli, referat, esse, mustaqil, ijodiy ish, muammoli ma'ruza va boshqalar va uni topshirish, himoya qilish tartibi aniq ko'rsatiladi.

Shuningdek, o'quv reja va fan dasturiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, chizma-hisob, ijodiy va boshqa mustaqil ishlarining mavzu va mazmuni, bajarish bo'yicha zarur uslubiy ko'rsatmalar, rasmiylashtirish, topshirish shakli va tartibi keltiriladi.

**Mustaqil ta'lim** – auditoriyada olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash hamda fanga oid (xususiy) kompetensiyalarini rivojlantirish, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladigan o'qitish shakli.

**Mustaqil ish** – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabanning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatidir.

### **KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;
- ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;
- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

### **KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ta'limini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2. Talabalar mustaqil ta'limini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ta'limining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning oqish bosqichi;

- muayyan fanning oziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;

- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;

- fanning axborot manbaalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;

- talabaning axborot manbaalari bilan ishlay olish darajasiga;

- mustaqil topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan ozgarib borishiga;

- mustaqil ta'limni fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

### **KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

Mustaqil ish turi va shakli muayyan ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) hamda fan(modul)larning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar talaba uchun ishlab chiqilgan ishchi dastur (Sillabus)da o'z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgan o'quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim natijalarini baholash fan (modul)ning umumiy baholash (100 ballik) tizimida aks ettiriladi va ishchi dastur (Sillabus)ning baholash mezonlarida unga ajratilgan ball aniq ko'rsatib qo'yiladi.

Fan(modul) bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit) mas'ul kafedra muhokamasidan o'tkazilishi, yig'ilish qarori bilan tasdiqlanishi hamda professor-o'qituvchi tomonidan tuzilgan Sillabusda mustaqil ish shakli va turi mazkur qarorga mos kelishi lozim.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalarning mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv davrining I semestrda tyutorlar, ARM xodimlari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo'yicha davriy ravishda (shu jumladan, kredit haftaligi doirasida) o'quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari elektron platformada qat'iy belgilanadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning o'quv faoliyati natijalari tekshirilmaydi va baholanmaydi. Uzrli sabablar esa, dekanat (registrator ofis) tomonidan o'rganib chiqilishi, dekan rezolyutsiyasi bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o'tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv faoliyati natijalari baholanmagan talaba yakuniy nazoratlarga kiritilmaydi.

Fan(modul) bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat savollarining 1/2 qismi mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzular asosida tuzilishi tavsiya etiladi.

Fan(modul)ning auditoriya yuklamasini bajarish vaqtida talabalarning mustaqil ishlari nazorat qilinmaydi. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarish

yuzasidan ishchi dastur (Sillabus)da ko'rsatilgan kontakt soatida offlayn yoki onlayn tarzda maslahat olishi mumkin.

Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda akademik va etik talablarga rioya etishi (plagiatsizlik, professor-o'qituvchilar, talabalar bilan tolerant munosabatda bo'lish, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, mas'uliyatlilik) shart.

Fan(modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari fan(modul)ga ajratilgan kreditlar soni va talabaning vaqt budjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

Talaba tomonidan elektron tizim(platforma)ga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi talabaga ma'lum qilinishi shart.

Professor-o'qituvchi fan(modul)ning ishchi dasturi (Sillabus)da belgilangan kontakt vaqtida mustaqil ish bo'yicha talaba murojaati asosida maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishi shart.

Fan(modul)ni qayta o'zlashtirish davrida o'quv rejada ko'zda tutilgan umumiy yuklamani saqlab qolingan holda kafedra qarori bilan auditoriya va mustaqil ta'lim soatlari 30/70 nisbatgacha bo'lishi mumkin.

Mustaqil ishga qo'yilgan ballar bo'yicha e'tirozlar bo'lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to'rt) soat (1 sutka) davomida dekanat(registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda kafedra mudiri tomonidan tuzilgan appelyatsiya komissiyasi talabaning mustaqil ish natijalarini 2 (ikki) ish kuni muddatida appelyatsiyadan o'tkazishi va elektron platforma orqali talabaga asoslangan xulosani taqdim etishi lozim.

O'qishi ko'chirilgan yoki tiklangan talabalar o'zlashtirilmagan fan(modul)larni qayta o'qish tartibida o'zlashtiradi. Istisno tariqasida, fanning

semestrdaqi yuklamasi 6 (olti) kreditdan oshmaydigan akademik farqli fan(modul)lar talabaniq arizasiga ko'ra, dekan roziligi bilan 100% mustaqil ta'lim shaklida o'zlashtirilishi mumkin.

Kredit-modul tizimi asosida mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonida talabalar:

- yangi bilimlarini mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topib, ularniq qulay usullari va vositalarini aniqlay oladi;
- axborot manbaalaridan samarali foydalana oladi;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlay oladi;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi;
- internet tarmog'idan samarali foydalana oladi;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashadi;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslab, mutaxassislar jamoasida himoya qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

## **TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH JARAYONINI BOSHQARISH**

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini boshqarishga o'quv-uslubiy boshqarma, dekanat (registrator ofis), kafedra bevosita mas'uldir. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi esa, mazkur jarayonni audit qilish vakolatiga egadir.

Mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda **o'quv-uslubiy boshqarma** quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- o'quv rejalarida mustaqil ta'lim uchun ajratilgan kreditlarni to'g'ri taqsimlanishini amalga oshirish;

- fan (modul)lar bo'yicha tuzilgan fan va ishchi o'quv dasturi (Sillabus)da mustaqil ta'limni tashkil etishga doir uslubiy ko'rsatmalar hamda namuna tarzidagi mustaqil o'qib-o'rganish uchun mavzularning aniq aks ettirilishini nazorat qilish;

- talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonlarining borishi, mustaqil ish topshiriqlari va uning bajarilishini belgilangan talablarga mosligini muntazam o'rganib borish;

- talabalarining mustaqil o'quv faoliyati natijalarini elektron tizimda qayd etib borilishini monitoringini yuritish.

**Dekanat (registrator ofis)** tomonidan talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)da talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Jumladan, professor-o'qituvchi va talabalarining hamkorlikda ishlashi, kontakt soatlari uchun alohida auditoriya ajratish, mustaqil ishlarni topshirish va baholash grafiklarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;

- talabalarining mustaqil ishlarining bajarilishini elektron tizim orqali monitoring qilib borish, o'quv-uslubiy boshqarmaga belgilangan muddatlarda ma'lumotnoma taqdim etish;

- mustaqil ish natijalarini o'rnatilgan tartibda qayd etilishini nazorat qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;

- mustaqil ish natijalari yuzasidan professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi nizolarning oldini olish hamda moderatsiya texnologiyasini qo'llash;

- ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)dan kelib chiqib mustaqil ta'limni amalga oshirish holati bo'yicha oraliq muddatlarda talabalar o'rtasida onlayn so'rovlar o'tkazish va tezkor choralar ko'rish.

**Kafedra** tomonidan talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratish talab qilinadi:

- fan(modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganishga doir mavzularni shakllantirish va kafedra yig'ilishi (metodik birlashmasi)da muhokama qilish;

- fan(modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganishga doir mavzularni o'quv dasturlarida to'g'ri va aniq aks ettirish;

- fan(modul)lar bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit)ni belgilash va kafedra yig'ilishida tasdiqlash;

- fan(modul)lar bo'yicha mustaqil ish turlari va shaklini belgilash hamda ishchi dastur (Sillabus)da aks ettirish;

- mustaqil ish uchun ajratilgan ballarni (umumiy 100 ballik tizimi doirasida) belgilash, ballarni ish turlari bo'yicha taqsimlash;

- kafedra yig'ilishlarida fan(modul)lar bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini muhokama qilib borish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish.

### **MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHGA DOIR PROFESSOR- O'QITUVCHINING VAZIFALARI VA TALABALARNING MAJBURIYATLARI**

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda **professor-o'qituvchi** tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- fan (modul) bo'yicha ishchi dastur (Sillabus)da o'quv rejasida ko'zda tutilgan kredit(soat)ga muvofiq mustaqil o'qib-o'rganish uchun mavzular va mustaqil ish topshiriqlarini aniq aks ettirish;

- ishchi dastur(Sillabus)da mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni o'zlashtirish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga doir metodik ko'rsatmalar, mustaqil ish topshiriqlarini baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun kontakt soatlarini ko'rsatib qo'yishi shart;

- fan (modul) bo'yicha talabalarning kichik guruhlardagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish hamda komandada ishlash natijalari bo'yicha so'rovlar o'tkazish. Mazkur jihat talabalarning hamkorlikdagi ishlari natijalarini baholashda hisobga olinishi tavsiya etiladi;

- kurs ishi mavzulari bankini tuzishda mustaqil ta'lim mazmunini ham aks ettirishi lozim;

- oraliq va yakuniy nazorat savollarini tuzishda mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzularni ham nazarda tutish zarur;

- mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini elektron tizim (platforma) orqali nazorat qilib borishi, tekshirishi va baholashi, natijalarni o'z vaqtida talabalarga yetkazishi zarur. Kichik guruhlarda hamkorlikda bajarilgan mustaqil ishlar taqdimotini o'tkazishi, kongruentlik ("hozir va shu yerda") tamoyiliga rioya qilgan holda, talabalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirishi va natijalarini e'lon qilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil o'qib-o'rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda **talabalar** quyidagi majburiyatlarga rioya qilishi talab etiladi:

- fan(modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to'liq o'zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymaslik;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashish, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo'lish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish talab etiladi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, komandada ishlay olish kompetensiyasini o'zlashtirishi zarur.

## **KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL**

### **TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI**

Ma'lumki o'qitishning asosiy shakllari - ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzuni murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlariga ajratiladi.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan

foydalaniladi:

1. Keys (muammoli vaziyatlar tahlili)
2. Adabiyotlar (manbaalar) ustida ishlash
3. O'quv loyihasi
4. O'quv portfoliosi
5. Esse
6. Glossariy (atamalar izohi)
7. Tayanch konspekt tuzish (chizma tasviriy modellar, intellekt kart, freym, mantiqiy graf va boshqalar yaratish)
8. Psixologik-pedagogik tavsifnoma yozish
9. Mini tadqiqotlar o'tkazish
10. Ijodiy topshiriqlar
11. Infografika tuzish
12. Darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash
13. Vedeorolik yaratish
14. Tezis va maqolalar tayyorlash

O'qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ta'limni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlar berilishi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

#### Mustaqil ishni baholash mezonlari

Mustaqil ishni bajarmagan e'ki uzrli sabab bilan baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga quyidagi tartibda qayta baholashdan o'tishga ruxsat beriladi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekan ruxsatnomasi asosida qayta o'zlashtirishi uchun – 2 hafta muddat beriladi. Akademik qarzdordan qayta topshirishni qabul qilish uchun kafedra mudiri tomonidan o'qituvchi tayinlanadi. Har bir semestrda talabalar bilimini baholash jaraenida quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi.

## TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI BAHOLASHNING UMUMIY MEZONLARI

Talabalar mustaqil ta'limini baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan fan (modul)lar xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Har bir fan (modul) bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarini baholash mezonlari talabalarga semestrning boshida taqdim qilinadi.

Talabalarning fan (modul) bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarini baholash berilgan muddatga muvofiq amalga oshiriladi.

Mustaqil ishga qo'yiladigan ball umumiy ballning 20 (yigirma) foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Talaba(lar)ning fan(modul) bo'yicha mustaqil ta'lim natijalari elektron platforma va guruh jurnaliga butun sonlar bilan qayd qilinadi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirish muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlarida hamda har o'quv yilida kamida ikki marta fakultet Ilmiy Kengashida muhokama etib boriladi.

Talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish topshiriqlari maksimal 1 ball bilan baholanadi.

Baholash mezoni:

*0.9-1 ball* uchun talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: taqdim etilgan mustaqil ish topshiriqlarni aniq tushunganligi, topshiriqda mavjud muammolarni aniq ifodalay olishi, tasavvur qila olishi, tahlil qila olishi, muammoni yechish usulini taklif eta olishi, muammoni yechish usulini asoslagani, ijodiy fikrlay olishi, mavzu yuzasidan mustaqil mushohada yurita olishi, alternativ variant taklif eta olishi, mustaqil ish topshiriqni o'z vaqtida bajargani va platformaga joylagani.

*0.7-0.8 ball* uchun talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: taqdim etilgan mustaqil ish topshiriqlarni aniq tushunganligi, topshiriqda mavjud muammolarni qisman ifodalay olishi, tasavvur qila olishi, qisman tahlil qila olishi, muammoni yechish

usulini qisman asoslay olishi, mustaqil ish topshiriqni o'z vaqtida bajargani va platformaga joylagani.

*0.6 ball* uchun talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: taqdim etilgan mustaqil ish topshiriqlarni qisman tushunganligi, topshiriqda mavjud muammolarni qisman ifodalay olishi, tasavvur qila olishi, qisman tahlil qila olishi, mustaqil ish topshiriqni o'z vaqtida bajargani va platformaga joylagani.

*0-0.5 ball* uchun talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: taqdim etilgan mustaqil ish topshiriqlarni qisman tushunganligi, topshiriqda mavjud muammolarni qisman ifodalay olishi, qisman tahlil qila olishi, mustaqil ish topshiriqni o'z vaqtida bajargani va platformaga joylagani.

**Laboratoriya usuli** – bu shunday ta'lim usuliki, unda talaba o'qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi. Laboratoriya usulining asosiy funksiyasi – o'rgatish va rivojlantirish. Bu usulni qo'llash bilan, biz talabalarda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallash;
- mustaqil tadqiqotning yangi yo'llarini tanlash va ma'lum bo'lganlarini tekshirish;
- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishlash va ilgari olinganlari bilan taqqoslash.

Ayniqsa, muammoli (tadqiqiy) laboratoriya usuli samaralidir, bunda talabalar o'zlari gipotezani ilgari suradilar, uni amalga oshirish yo'lini aniqlaydilar, kerakli asbob-uskunalar va materiallarni tanlaydilar.

Laboratoriya usuli murakkabdir. U maxsus va ko'pincha qimmat uskunalar bo'lishini, o'qituvchi va talabalarning puxta tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi. Undan foydalanish juda ko'p energiya va vaqtni sarflash bilan bog'liq. Laboratoriya ishi vaqtida talabalardan namoyish usuliga qaraganda ancha katta

faollik va mustaqillik talab qilinadi, ular bu yerda sust kuzatuvchi bo'lib emas, tadqiqotlarning qatnashchisi va bajaruvchisi sifatida harakat qiladilar.

**Mashq** - ta'lim usuli bo'lib, o'tilgan materialni amaliyotda qo'llash maqsadida, reja bilan tashkil etilgan amallarni ko'p marotaba bajarishdir.

Bu usulning asosiy funksiyalari: o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, u ko'nikma va malakalarni samarali shakllantirishni ta'minlaydi, kamchiligi-motivatsion funksiyani sust bajarishdadir.

Mashqlarni quyidagi turlari mavjud: maxsus; sharhlangan; yozma; og'zaki; ishlab chiqarish – mehnat; laboratoriya – amaliy.

**Sharhlangan mashqlar** o'quv jarayonini faollashtirishga, o'quv vazifalarni ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ularning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi va talabalar bajarilayotgan ishlarni sharhlaydilar, natijada ular o'zlashtiriladi va tushunib yetiladi. Avval bunga eng yaxshi talabalar jalb etiladi, keyin esa materialni tushuntirishda butun guruh ishtrok etadi. Sharhlangan mashqlar usuli o'quv mashg'ulotining yuqori sur'atini ta'minlaydi, materialni barcha talabalar tomonidan ongli ravishda, mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi.

**Og'zaki mashqlar** ta'lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ularning bilim imkoniyatlari bilan bog'liq.

**Yozma mashqlar.** Ularning asosiy vazifasi – kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat. Shuning uchun, ular yetarli miqdorda va har xil bo'lishi kerak.

**Grafik mashqlar** matematika, fizika, chizmachilik, va boshqa darslarda, ishlab chiqarishni o'rganish jarayonida ishlatiladi.

**Laboratoriya-amaliy mashqlari** mehnat quollaridan, laboratoriya asbob-uskunalaridan (jihazlar, o'lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiradi.

**Ishlab chiqarish-mehnat mashqlari** o'quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va

murakkab bo'ladi: birinchisi – alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k.) ko'zda tutilgan.

O'qitishning noan'anaviy shakllari doirasida **amaliy-tajriba (laboratoriya)** mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Amaliy-tajriba mashg'ulotlari odatda maxsus jihozlangan xonada yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida olib boriladi.

Bunday ta'lim mashg'ulotlarini tashkil qilish ikki xil yo'l bilan olib boriladi:

A) Amaliy-tajriba mashg'ulotlari;

B) ekskursiyalar.

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan amaliy-tajriba mashg'ulotlari asosan ustaxona, maxsus jihozlangan xonalar va o'quv tajriba yer maydonida olib boriladi.

#### **Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:**

1. Mustaqil ish tuzilishi va mazmunini bayon eting
2. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasini ishlab chiqing



#### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish qanday amalga oshiriladi.
2. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda qanday turdagi vazifalarni bajarishlari lozim?

11

### **MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASHNING REYTING TIZIMI**

*O'quv maqsadi*

*Talabalarda maxsus fanlarni o'qitishda bilim. ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi uning mohiyati haqida nazariy bilimlarni shakllantirish*

## REJA:

1. Reyting tizimi haqida tushuncha.
2. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalar bilim, ko'nikma va malakalar tizimini baholashning o'ziga xosligi.
3. Nazorat shakllari va turlari

### **Mavzuga oid tayanch iboralar:**

*Baholash, reyting, bilim, malaka, ta'lim, tizim, ko'nikma, o'quvchi, nazorat qilish, pedagogik talablar, turlari va shakllari, o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning reyting tizimi, reyting tizimini amalga oshirish, reyting tizimi*

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligi-ni, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bos-qichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba mavzuni o'zlashtirgandan so'ng:

- o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning vazifasi, funksiyalari to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;
- baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar, turlari va shakllarini ta'riflay oladi;
- o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirishni, reyting tizimi to'g'risidagi Nizom va buyruqlar to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.

Baxolash-ta'lim jarayonining ma'lum boskichida, o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilab qo'yilgan mezonlar asosida belgilash, o'lchash va taxlil qilish jarayonidir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundaki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali etarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatim kelgusida tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi.

SHuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturiga materiallarni ta'lim beruvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirinishi aniq-ravshan bo'ladi, Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, amahyotda esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi, Baholash natijasida ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlarga tanqidiy baho berish darajalari amqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi, kasb-hunar kollejida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni

english istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ulanm, uning xarakteridagi iroda, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarim shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham enshadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. SHu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining mezon deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning kollejdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq qolmaydi. Uning bilimlarga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma'qullash, tanbeh yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga ega. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. p^ivlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajaraliyotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'rilish kerak. Bu bilan ta'lim tiziimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib, o'lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab bonsh ta'lim rejasi, unmg katta — kichik bo' limlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijala muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturini qism bo'laktari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yogga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi,

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati naflida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- talabalarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini.

Qachon baholash kerak?


- ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);

- taʼlim jarayoni davomida (joriy baholash);
- taʼlim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- taʼlim maqsadiga yoʻnalganlik;
- muntazam oʻtkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standardlariga asoslanganlik.

Yuqorida taʼkidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv oʻquv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy koʻnikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa – affektiv oʻquv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.



## Besh ballik baxolash

Afzalligi	Kamchiligi
✓ ta`lim oluvchi rag`batlantiriladi;	✓ baholashning nisbiyligi;
ta`lim oluvchining faoliyatini tezkor	✓ yozma nutqda xatolarni
nazorat qilish imkoniyatini beradi;	✓ to`g`rilash imkoniyatining kamayishi;
✓ ta`lim beruvchini vakti tejaladi;	✓ baholashning sub`ektivligi.
✓ ta`lim oluvchining yakuniy bilimi	
baholarning soniga qarab emas,	
sifatiga karab baholanadi;	
✓ baholash kulay bo`ladi;	
✓ rasmiylashtirish hujjatlari kam	
bo`ladi.	

## Baholashning reyting tizimi

Afzalligi	Kamchiligi
✓ hakkoniy baholanishi;	✓ ta`lim beruvchi ta`lim oluvchi bilan
✓ yozma nutqning o`sishi;	ishlanganda ko`p vakt sarf qiladi;
✓ yozma nutqda xato va kamchiliklarni	✓ ballarni hisoblash ko`p vaqtni talab
aniqlash; imkoniyatlarining	qiluvchi murakkab jarayonligi;
mavjudligi;	✓ baxolash usullariga qarab ta`lim
✓ ta`lim oluvchining bilimga bo`lgan	oluvchi og`zaki nutkining pasayishi;
ishtiyokining sezilarli darajada	✓ ajratilgan vaktning etarli emasligi;
oshishi;	✓ ta`lim oluvchini baholash
✓ ta`lim oluvchini muntazam	nazoratining murakkabligi va
shug`ullanishga undashi	nokulayligi

**Maxsus fanlarni o`qitishda talabalarning o`quv yutuqlari nazoratining ahamiyati va uning vazifasi**

*Bilimni tekshirish va baholash* – ta’lim jarayonining tarkibiy qismi bo’lib, u talabalaraning o’quv faoliyatini darsda, uyda og’zaki, yozma va amaliy topshiriqlar yordamida tizimli nazorat yo’li orqali amalga oshiriladi.

*Tekshirish va baholash yordamida bilim, ko’nikma va malakalar aniqlanib, ular nazorat qilish, ta’limiy, tarbiyaviy, o’zgartirish kiritishli va axborotli vazifalarni bajaradi.*

*Nazorat qilishli vazifasi* – talabalarni ta’lim bosqichini har bir bosqichida o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini aniqlash hisoblanadi.

*Ta’limiy va ta’lim berish vazifasi* – talaba o’qituvchini savoliga nafaqat javob beradi, balki topshiriq ham bajarib, o’rtoqlari javoblarini mulohazalaydi, o’zgartirishlar kiritadi

*Tarbiyaviy vazifasi* – o’quv faoliyatini tizimli nazorat qilishda tekshirish va baholash namoyon bo’lib, bu esa, talabalarni bajariladigan ishga ma’suliyatini oshiradi, mehnat qilishga, o’qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil echishga, o’zining o’quv imkoniyatlarini to’g’ri baholashga o’rgatadi.

*Frontal tekshiruv* – o’zlashtirish lozim bo’lgan (qoida, jadval, yilnomalar) ko’p bo’lmagan materialni tekshirish uchun qo’llaniladi.

Talabani o’quv faoliyatini o’qituvchi yoki talabani o’zi (**o’z-o’zini nazorat**) *texnik vosita kompyuter* yordamida nazorat qilish mumkin. Nazorat turi va vositani tanlash ta’lim maqsadi va talabani individual xususiyatidan, ta’lim olish sharoitidan kelib chiqib tanlanadi.

*Og’zaki tekshirish* – nazoratning eng o’zgaruvchan usuli bo’lib, ta’lim berishning barcha bosqichlarida qo’llaniladi va talabalar bilan aloqani onson ushlab turishga, ularning fikr va harakatlarini kuzatishga, javoblarini to’g’rilashga yordam beradi.

*YOZma nazorat (diktant, bayon yozish, savollarga yozma javob berish va yozma nazorat ishlari)* – vaqt bo’yicha tejamlil bo’lib, butun guruhni va har bir talabani ta’lim olishga tayyorligini bir vaqtda aniqlash imkonini berib, topshiriqni individual bajarish xususiyati bilan ajralib turadi, biroq topshiriqni tekshirishga ko’p vaqtni talab qiladi.

O'quv jarayonida tekshirish va baholash joyidan, topshiriq hajmi, tekshirishga ajratilgan vaqtga va talabalar sonidan qat'iy nazar quyidagi tekshirish turlarini ajratadilar, ya'ni: *joriy, oraliq, yakuniy nazorat*.

*Joriy nazorat* – o'qituvchi tomonidan har kungi ishda, asosan darsda jarayonida amalga oshiriladi.

*Oraliq nazorat* – dastur mavzusi, bo'limlari o'zlashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

*Yakuniy nazorat* – o'quv yili yarmida yoki yil oxirida amalga oshiriladi.

Tekshiriladigan savollarning soni va xususiyati bo'yicha tekshiruv **individual, frontal va kombinatsiyalashgan** (masalan, bir talabani og'zaki javob berishi, boshqalar yozma javob berishi) bo'lishi mumkin.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish natijalarini tekshirishda test nazoratining o'rni

*Nazorat* – doimiy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv. Ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini (BMK) aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi; ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqasini, ular tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasi to'g'risidagi haqqoniy ma'lumotni olish, shuningdek kamchilik va oraliqlarni aniqlashni ta'minlaydi.

Bir qancha nazorat turlari bo'lgan test nazoratini ko'rib chiqamiz. Test topshiriqlarini tuzish ta'lim natijalarini ifodalash bilan o'zaro bog'liqlikda olib boriladi. Test topshiriqlar soni unga ajratilgan nazorat turi va vaqtga bog'liq bo'ladi.

<i>Nazorat turi:</i>	<i>O'tkazish vaqi (daqiqa):</i>	<i>Topshiriqlar soni:</i>
Joriy	10-15	10-15
Oraliq	30-40	25-30
Yakuniy	1- 1,5 soatgacha	50 va undan ko'p

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari albatta birinchi galda qanday nazorat ishi orqali tekshirilishi aniqlanishi kerak. Maqsaddan kelib chiqqan holda test va nazorat ishlari tanlanadi. Tanlangan nazorat har bir maqsad uchun alohida qo'llaniladi. Masalan birinchi qo'yilgan maqsad uchun

alohida, keyingi maqsadga erishish uchun alohida nazorat ishi topilishi kerak. Barcha nazorat ishlari umumlashtirilib oxirgi baholash ma'lum qilinadi.

Masalan: 1-maqsad ta'rifni yoddan bilish deb belgilangan bo'lsa, uni yoddan aytib berish talab etiladi. 2-maqsad formulani amalda qo'llashga o'rgatish bo'lsa, uni amalda masala ishlab qo'llash talab etiladi. 3-maqsad formulani noan'anaviy holatda qo'llash bo'lsa, unga mos misol tanlanadi va uni ishlash talab etiladi. Demak, nechta maqsad aniqlashtirilgan bo'lsa, shuncha nazorat ishi ham ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. SHunday qilib, maqsad va nazorat ishi o'rtasida uyg'unlik hosil qilinadi. Nazorat ishlarini tanlashda albatta maqsadning xarakteri xisobga olinadi. Aniq belgilangan maqsadlar esa tekshirishni osonlashtiradi. Nazorat ishlarida turli xil test turlaridan foydalanish mumkin.

B.Blum taksonomiyasi mavhum tushunchalarni baholashda nimalarga e'tibor qaratish lozim degan savolni yoritishga yordam beradi. Agar o'qituvchi mavhum tushunchalarni qo'llagan bo'lsa B.Blum taksonomiyasidan foydalanishi mumkin. Taksonomiya tushunchasi o'zaro izchil algoritmik bog'langan tizimni bildiradi. Ushbu taksonomiyadan ham baholash jarayonida foydalanish mumkin.

### **Maxsus fanlarini o'qitish natijalarini tekshirishda test nazoratining o'rni**

Hozirgi kunda respublikamizda test vazifalarini o'rtacha o'tkazish normativlari ishlab chiqilgan. Albatta bu testlar har bir o'quv dargohi maqsadidan kelib chiqqan holda o'tkazilishi ham nazarda tutilgan.

1. Joriy nazorat: 10-15 savoldan iborat bo'lib, unga 10-15 minut ajratiladi.
2. Oraliq nazorat: 25-30 savol, 30-40 minutni o'z ichiga oladi.
3. YAkuniy nazorat: 50 savol, 1-1,5 soatni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari fanning yo'nalishidan kelib chiqqan holda va talabalar darajasidan kelib chiqqan holda test turlari, shakllari tanlanishi lozim. Test turlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. *Eslash, yodda saqlash, tanish* kabi psixik jarayonlarning borishini ta'minlovchi testlar. Bu testlar mustahkamlash va tekshirish vazifasini bajaradi.

2. *O'zlashtirishning reprodktiv darajasini o'lchovchi* testlar. Bu testda talaba o'z bilimlarini tipovoy ya'ni o'rgangan holatida qo'llay olishi talab etiladi. Bu testlarni ishlashda talaba to'rt xil psixologik operatsiyani bajarishi lozim:

- a) formulani eslash;
- b) tengliklarni eslash;
- v) shunga o'xshash misollarni eslash;
- g) misolni eslash.

Bunday test talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashga yordam beradi. Ammo bu testda ko'proq qo'llay olish nazarda tutiladi. Bunday testlar ijodiy fikrlash darajasiga ta'sir etmaydi va ularni reprodktiv testlar deb atash o'rinli bo'ladi.

3. *Produktiv test turi*. Bunday testni echishda talabadan ijodiy yondashuv talab etiladi. Bunday testni echish uchun talaba 5-6 ta operatsiyani bajarishi lozim. Bu test mantiqiy fikr yuritishni va izchillikni talab etadi. Buning uchun o'quv jarayonida echilgan mashqlardan bir oz boshqacharoq (netipovoy) vazifalar tanlab olinishi kerak bo'ladi.

4. *Izlanuvchan – ijodiy test turi*. Ma'lumki ijod - bu qandaydir yangi echimni topishdir. Buning uchun bu testda standart bo'lmagan vazifalar beriladi. Bu murakkab test bo'lib, ijodni rivojlantirishda va iqtidorli talabalarni tanlab olishda ishlatiladi.

Testlarning shakliga ko'ra ham bir qancha guruhlarga ajratish mumkin.

1. *YOpiq testlar*. Bu test shart yoki so'roq va bir qancha javoblardan tuzilgan bo'lib, bittasi to'g'ri javob hisoblanadi. Uning yopiq test deyilishiga sabab, talaba o'zining to'g'ri javobini bera olmaydi. U faqat mavjud javoblardan bittasini tanlashi mumkin. Bunday testlarni tuzishda

yuzakilikdan extiyot bo'lish kerak va javoblar tuzayotganda mantiqiylik va tahlilga asoslanishi lozim.

2. *Ochiq testlar.* Bu testda shart va so'roq beriladi. Javob esa mustaqil talaba tomondan topiladi. Bunda eng muhim o'zak so'z tushirib qoldirilishi mumkin, ana shu o'zakda esa so'z topilishi lozim.

3. *Munosiblikni tanlashga qaratilgan testlar.* Bu testlar ajratish va joy – joyiga qo'yish kabi operatsiyalarni bajarishda ishlatiladi.

4. *Izchillikni o'rnatishga bag'ishlangan test.* Bunda tartibsiz berilgan elementlar izchil ketma – ketlikda joylashtirilib chiqishi kerak.



### **Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:**

1. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning vazifasi, funksiyalari fikringizni klaster yordamida bayon eting.
2. Baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar, turlari va shakllari.
3. Maxsus fanlarini o'qitishda talabalarning o'quv yutuqlari nazoratining ahamiyati va uning vazifasi haqida esse yozing.



### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Bilimni tekshirish va baholashning mohiyatini nimada?
2. Tekshirish va baholash yordamida qanday ishlar amalga oshiriladi?
3. Tekshirish va baholashning ta'limiy va ta'lim berish vazifasi nimadan iborat?
4. Tekshirish va baholashning tarbiyaviy vazifasi nimadan iborat?
5. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashning shakli va usullarini ayting va tushuntirib bering.
6. Maxsus fanlarini o'qitish natijalarini tekshirishda test nazoratining o'rni

## **12-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish**

### **Reja:**

1. Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning pedagogik-psixologik omillari.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari.

### **Adabiyotlar:**

1. Aripov M.M., Imomov T.A. va boshqalar. Informatika. Axborot texnologiyalari. 1 -kiem. -Toshkent: O'zMU, 2002. -342 b.
2. Aripov M.M., Axmedov A.B. va boshqalar. Informatika. Axborot texnologiyalari. 2-qicm. -Toshkent: O'zMU, 2003. -426 b.
3. Hayitov A. F. Ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va yangi pedagogik texnologiyaning uzviyligi. Ta'limda axborot texnologiyalari - Respublika ilmiy-amaliy konfereniyasi materiallari. -Toshkent: TDPU, 2000.
4. Internet yangiliklari. Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari va masofaviy o'qitish markazi axborotnomasi. -Toshkent, 2002-2004 yillar, 1-24-sonlar.
5. Ashurov M.U. Kompyuterlashtirilgan didaktik o'yinlar// Ma'rifat. 1999, 8 may, 4-6., 1999, 22 may, 2-6.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyunda qabul qilgan «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirishga asos yaratdi. Mamlakatning iqtisodiyotdagi, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'rni axborot-texnologik rivojlanishning holatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Jahonda masofaviy o'qitish ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng quloq yoymoqda.

Planetamiz sivilizasiyasining axborot maydonida, jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Jamiyatning har bir a'zosi hayotiy faoliyatining barcha sohalarida axborotlardan foydalanish axborot muhitining shakllanishiga asos bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti, o'zida axborot ob'ektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtirgan bo'ladi.

XXI asr axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasida:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan joriy etilishi zamonaviy texnologiyalarning qo'llanish sohalarini kengaytiradi. Ayni paytda ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanayotgan yo'nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular:

1. O'quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o'qitish vositasi, o'rganish ob'ekti va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida joriy etish.

2. O'quv-metodik majmualar yaratishda, o'quv-namoyish asboblari va kompyuter vositalari imkoniyatlarining integrasiyasi.

Bunday majmualardan foydalanish o'quvchiga o'rganilayotgan jarayon xaqidagi axborotlarni jamlash, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlarini mohiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar negizidagi o'quv-namoyish majmualarining qo'llanilishi individual va jamoaviy eksperiment faoliyatni tashkil etishga zamin yaratadi. Bu esa, o'quvchida intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Multimedia tizimlarini yaratishda, kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integrasiyasiga erishish.

Bunday tizimlar o'zida dasturiy-apparat vositalar va asboblar majmuasini mujassamlashtirib, axborotning turli (matn, grafika, ovoz, tasvir) ko'rinishlarini birlashtiradi va foydalanuvchi bilan interfaol muloqotni tashkil etadi. Multimedia tizimlaridan foydalanish, faol o'qitish metodlari va shakllarini joriy etishni ta'minlaydi, axborotlarning qabul qilinish darajasini oshiradi.

4. Sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan intellektual o'qitish tizimlarini yaratishda foydalanish. Bunday o'qitish tizimlari mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish, mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirish, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni rivojlantirishga zamin yaratadi. Bular barchasi o'quvchi shaxsini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi.

5. Global va lokal kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashinuvini ta'minlovchi telekommunikasiya vositalaridan foydalanish.

Telekommunikasiya aloqasi (sinxron, asinxron) qisqa vaqtda ilg'or pedagogik texnologiyalarning tarqalishiga, o'quvchining umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

6. Axborot almashuvining yangi texnologiyasi – bu real vaqt rejimida stereoskopik tasavvur tizimi, ya'ni «Virtual haqiqiylik» hisoblanadi.

Bunday tizimdan stereometriya, chizmachilik, muhandislik grafikasi kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik saviyasini yanada oshiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida joriy etilish tahlili ularning:

- \* o'quvchiga dunyoviy bilimlarni egallashiga;
- \* o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- \* o'quv faoliyatini tashkil etishning xilma-xilligi hisobiga o'quvchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- \* interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- \* sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quvchida o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- \* Jamiyatning har bir a'zorida axborot madaniyatini shakllanishiga;
- \* o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o'quvchilarda qiziqishni va faollikni oshirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

YAngi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o'zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

An'anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalari muhitidagi pedagogik ta'limlarning asosiy ko'rsatkichlarini taqqoslash axborotlashtirilgan pedagogik ta'limning istiqbolli ekanligini yaqqol namoyon qildi. Buni quyidagi fikrlar asosida ham tasdiqlash mumkin. An'anaviy didaktika o'z oldiga o'quvchining aqliy rivojlanishini tezlatishni, o'quv faoliyatining malaka va ko'nikmalarini, bilimni o'zlashtirish jarayonini optimallashtirishni ta'minlovchi metodik usullarni yaratishga qaratilgan o'qitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axborotlashgan pedagogik ta'limda didaktika va axborot jamiyat a'zosining intellektual rivojlanishini jadallashtirish zarurligini aniqlovchi ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik ta'sirga ega bo'lib, shaxsning intellektual salohiyatini namoyish etishni va rivojlanishini o'zining asosiy maqsadi etib qo'yadi. Bu maqsadga, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish orqaligina to'liq erishish mumkin.

An'anaviy didaktika, o'quvchining mustaqil ishlashiga jiddiy e'tibor bermagani holda, asosan ko'rgazmali-tushuntiruv usulini taklif qiladi. O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil faoliyatni faollashtirishning ayrim ko'rinishlari muammoli o'qitish, o'qitishni algoritmlash nazariyalarida o'z aksini topgan. Bu nazariyalarga oid g'oyalarning samarali joriy qilinishi bilim saviyasining, undagi sifatning ortishiga, o'quv materiallarini o'zlashtirishga sarflanadigan vaqtning tejalishiga, aqliy faoliyatlarning shakllanishiga olib keladi. Ammo bularning barchasi, o'qitishning metodlari va vositalaridan qanday foydalanishga va uning darajasiga bog'liq.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bu muhitdagi didaktika fikrlashni, shaxsning salohiyati va imkoniyatlarini, estetik tarbiyani, unda axborot madaniyatini tarbiyalashni, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishni, o'quv-axborot faoliyati bo'yicha malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

YUqoridagilarni inobatga olib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari bayon etiladi. Axborot texnologiyalari o'quvchi shaxsining:

- fikrlashini;
- estetik tarbiyasini;
- kommunikativ qobiliyatini;
- optimal qaror qabul qilish malakasini;
- axborot madaniyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikga erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash;
- teskari aloqa bilan o'quv faoliyati nazoratini olib borish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;
- o'quv vaqtini tejash;
- o'quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;
- kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish;
- axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
- o'qishga qiziqishni orttirish;
- o'quvchini o'quv materialini o'zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;
- fikrlashni rivojlantirish;
- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;
- o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabilarni kiritish mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishidan foydalanish asosida o'rgatish, juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o'lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari muhitining shakllanishi:

- fan sohalarini axborotlashtirish;
- o'quv faoliyatini intellektuallashtirish;
- integrasiya jarayonlarini tezlashtirish;
- ta'lim tizimi infrastrukturasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

**Ta'limni axborotlashtirish** – ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim sohasida ularni yaratish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Bu jarayon, birinchidan, ilmiy-pedagogik ma'lumotlar bazasidan foydalanish asosida ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, ikkinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida, shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni, uchinchidan, o'quvchini intellektual salohiyatini rivojlantirishga, unda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitishning metodik tizimini yaratishni va nihoyat to'rtinchidan, o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholashning diagnostik metodlarini, xususan kompyuter testlarini yaratishni va ulardan foydalanishni maqsad qiladi.

Ta'limni axborotlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni o'qitishdagi tashkiliy shakllar va metodlarning o'zgarishigagina emas, balki undagi yangi metodlarning shakllanishiga ham olib keladi.

Fanlar sohasining axborotlashuvi, o'quv faoliyatining takomillashuvi, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida bilish jarayonining integrasiyalashuviga, fanlar sohasining kengayishiga, chuqurlashuviga va ularning integrasiyasiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv materiallari mazmunini tanlash mezonlariga o'zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.

SHunday qilib, ta'limni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi, o'quv materiallarining mazmuni va hajmini o'zgarishiga, o'quv predmetlari (kurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki predmetlarning

integrallasuviga sababchi bo'ladi. Bu esa, o'quv fanlarining mazmuni va strukturasi o'zgarishiga, binobarin, ta'limning mazmuni va strukturasi o'zgarishiga olib keladi.

Bu jarayonga parallel ravishda, o'quvchilar bilim saviyasi muammosiga, kompyuter texnologiyalari asosidagi innovasion yondashuvni joriy etish lozim bo'ladi.

Ta'lim mazmuni va tarkibi, nazorat va o'qitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi o'qitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini imkoniyatlaridan foydalanish va shu tufayli o'quv faoliyatining kengayishi, o'qitish vositalari va darsliklarga bo'lgan didaktik talablarning sifatiiy o'zgarishlariga olib keladi.

YUqorida ta'kidlangan holatlar ta'lim-tarbiya nazariyasi tarkibiy qismlarining o'zgarishiga, ya'ni pedagogika fani paradigmasining o'zgarishiga olib keladi.

Dunyoda masofaviy o'qitishning, ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng qo'llanilishi, shuningdek, ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari va INTERNETdan foydalanish uning sifatini yuqori ko'tarish omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari, oliy pedagogik ta'lim tizimida turli fanlarni, jumladan fizikani o'qitishda keng joriy etilmoqda.

O'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qo'llash, pedagogik metodlarning samaradorligini oshirishga, pedagoglarning mehnat faoliyatini o'zgarishiga, ularning ish uslublarini takomillashtirishiga, pedagogik tizimlarning strukturaviy o'zgarishiga olib keladi. Bu esa pedagogik jarayonlarni boshqarishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish:

- o'qituvchilar o'rtasida mehnat taqsimotini;

- masofaviy o'quv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi bo'lgan jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvini;
- pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o'qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borishni taqozo etadi.

YAngi texnologiyalar asosidagi pedagogik faoliyat:

- ta'limdagi texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan bog'liq byalgan yangi kurslarni yaratishdek murakkab jarayonlarning engillashuvini;
- o'quv kurslarini yaratishda maxsus malakalarning shakllanishini;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablarning va o'quv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishini;
- o'quv jarayonida o'quvchi faoliyatining ustivor mavqe tutishini, o'quv jarayoni salmog'ining o'qituvchidan o'quvchiga ko'chishini;
- yangi kommunikasion texnologiyalardan foydalanish asosida, o'qituvchining har bir o'quvchi bilan teskari aloqasini vujudga kelishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo'lgan bir qator hozirgacha echimini topmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalardan foydalanish malakasining etarli emasligi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida pedagoglarning o'zlaridagi ta'limni axborotlashtirishga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatish mumkin. SHu narsani ta'kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida pedagogning roli yanada oshadi.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu, o'z navbatida pedagoglarning o'z

mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O`quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o`qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o`zgartiradi, o`qituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi.

Endi o`qituvchidan:

- o`quv kurslari dizayneri – o`quv kurslarini yaratuvchi;
- fasiliteytor – o`qitish metodlari bo`yicha maslahatchi;
- tyutor-o`quv kurslarini interfaol taqdim etish bo`yicha mutaxassis;
- invigilator – ta`lim natijalarini nazorat qilish usullari bo`yicha mutaxassis bo`lish talab etiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik fizik ta`limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday ta`limda fizik-pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida Yangi o`qitish kurslarini yaratishlari lozim bo`ladi. Masofaviy o`qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo`llari;
- o`quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o`qitish metodlari;
- o`quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo`llari;
- o`zaro aloqa usullari va kommunikasiya singari omillarni aniqlash lozim.

Bularning barchasi kurslarni yaratuvchi - o`qituvchilar (kurslar dizayneri) va texnologiyalar bo`yicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladi.

O`quvchi va o`qituvchining o`rtasidagi kommunikasiya turiga ko`ra masofaviy o`qitish metodlarining quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- mustaqil o`qish usullari;
- «birga-bir» pedagogik usuli;
- «birga-ko`pchilik» o`qitish;

- kommunikasiya asosida «ko'pchilik-ko'pchilik» ta'limi.

*Masofaviy mustaqil o'qish* uchun multimedia yondashuvi xarakterlidir. Mustaqil o'qishni tashkil etishda an'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlarini 1-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

<b>An'anaviy ta'lim</b>	<b>Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim</b>
Nashr materiallari	Nashr materiallari
	Audio va video materiallar
	Kompyuter o'rgatuvchi dasturlar
	Elektron jurnallar
	Interfaol ma'lumotlar bazasi
	Kompyuter tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa o'quv materiallar

### **1.2.1-rasm. An'anaviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari**

«Birga-bir» masofaviy o'qitish metodi – bu individuallashtirilgan o'qitish va o'qish metodidir. Bunda o'quv muloqotlarining o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi shakllari qatnashadi. Bu metod uchun telefon, ovoqli pochta, elektron pochta kabi texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Kompyuter tarmoqlariga asoslangan «teleustozlik»ni rivojlantirish muhim yo'nalish hisoblanadi.

«Birga – ko'pchilik» o'qitish usuli uchun an'anaviy va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim afzalliklarini 2-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

Dars turi	Ko'rgazmali vositalar
<i>ma'ruza</i>	Audio va video leksiylar
<i>ma'ruza</i>	Radio va TV leksiylar
<i>ma'ruza</i>	Eleksiya-elektron leksiylar

### 1.2.1-rasm. An'anaviy va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim afzalliklari

Zamonaviy texnologiyalar o'qitish usullarini ham takomillashtirishga ishonch hosil qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga yangi terminlarni olib kiradi. Keyingi vaqtlarda elektron leksiylar, ya'ni **eleksiya** tushunchasi paydo bo'ldi. Eleksiya - bu kompyuter tarmoqlari orqali tarqatiluvchi leksiya materiallaridir. Eleksiya nafaqat ma'ruza matnlaridan balki o'quvchini bahslarga tayyorlashga xizmat qiluvchi o'quv materiallari, maqolalar, ularning qisqartmalaridan tashkil topishi mumkin.

*Kommunikasiya asosida «ko'pchilik-ko'pchilik» ta'limi* – o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning o'zaro faolligi bilan xarakterlanadi. Jamoaviy yaquv bahslari va konferensiyalarning o'tkazilishi bu metodning rivojlanishiga olib keladi. O'quv muloqotlari o'quvchilar-o'qituvchi va o'quvchilar-o'quvchilar shaklida bo'ladi. Bu metod sinxron va asinxron audio, audiografik, video va kompyuter konferensiyalari texnologiyalariga asoslanadi.

Kompyuter kommunikasiya texnologiyalari bahslar, modellashtirish, aqliy hujum, Delfi metodi, forumlar, loyihalash guruhlari kabi o'qitish metodlaridan faol foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik ta'lim muhitining samarasi, yangi texnologiyalar negizida o'qitish mazmunining rivojlanishiga, ta'lim muhiti interfaolligi rivojiga, ta'lim jarayonida o'quvchining faolligini rivojlantirishga, moslashuvchan o'quv jarayonining tashkil etilishiga bog'liqdir.

Zamonaviy kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari oliy pedagogik ta'lim mazmuni rivojlanishini ta'minlaydi. Bu texnologiyalar:

- ta'lim mazmunini tashkillashtirish;
- ta'lim mazmuniga oid elementlarni bog'lash;
- axborotlarning turli ko'rinishlaridan foydalanish;
- kurslarni darslar(mavzular) majmuasi ko'rinishida taqdim etish;
- darsni virtual harakatlar tizimi sifatida yaratish;
- o'quv materiallarini o'zlashtirishning ketma-ketligini ta'minlash;
- o'quv materiallari mazmunini o'quvchiga moslashtirish;
- turli sohalarda ta'lim mazmunini rivojlantirish (kurs yaratuvchilar, o'qituvchilar, metodistlar,o'quvchilar);
- o'quv maqsadlariga erishishda, professional bahslardan foydalanish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim beruvchilarning ham, ta'lim oluvchilarning ham faolligini oshiradi. Bunday faollik muhiti, o'zaro ijodiy hamkorlikning sifatini va samaradorligini yangi bosqichga ko'taradi.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar o'quv jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan o'quv jarayonini tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida, o'quv materiallarini yaratishning turli:

- kompyuter o'rgatuvchi tizimlarining arxitekturasini yaratish;
- amaliy o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini shakllantirish;

• o'qitishning turli usullari va vositalari orqali aniq o'quv jarayonini shakllantirish bosqichlarida moslanuvchanlik prinsipining bo'lishini talab etadi. Bunday prinsip asosida tayyorlangan o'quv materiallari o'quvchining bilim darajasi, malakasi, psixologik xususiyatlari, o'quv guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari va o'qitishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

O'quv jarayoni uchun texnologiyalarni tanlashda quyidagilarga muhim omillar sifatida e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlash mumkin:

- o'quv jarayonida yangi texnologiyaning o'zi emas, balkim undan foydalanib ta'limning maqsadlariga erishishni ta'minlashning muhimligi;

- eng zamonaviy va qimmat texnologiyalar bilan bir qatorda, arzon va an'anaviy texnologiyalar ham samara berishi mumkinligi;
- o'qish natijalari telekommunikasiya yoki axborot texnologiyalarining turiga qarab emas, balki kurslarni yaratish va uzatish sifatiga bog'liqligi;
- texnologiyalarni tanlashda o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga, alohida olingan fan sohasining o'ziga xos tomonlariga, o'quv mashg'ulotlari, topshiriqlari va mashqlarining mazmuniga e'tibor qaratish lozimligi;
- texnologiyalarni tanlashda, eng samarali yo'llardan biri - bu multimedia yondashuvidir.

Ta'lim mazmunini va uning sifatini yaxshilash masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgan paytda ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish, uning rivojlanishiga va samaradorligining o'rta o'tirishiga zamin yaratadi

Kompyuterlarning ta'limda keng qo'llanilishi natijasida «ta'limning yangi axborot texnologiyalari» termini paydo bo'ldi. Umuman aytganda, har qanday pedagogik texnologiya - bu axborot texnologiyasidir, chunki ta'limda texnologik jarayonning asosini axborot va uning harakati (o'zgarishi) tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, kompyuterdan foydalanishga asoslangan ta'lim texnologiyalari uchun «kompyuter texnologiyalari» termini munosibdir.

Kompyuter texnologiyalari dasturiy o'qitish g'oyasini rivojlantiradi, kompyuter va telekommunikasiyalarning katta imkoniyatlari bilan bog'liq o'qitishning mutlaqo yangi texnologik variantlarini ochib beradi. Kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari – kompyuter asosida o'quvchiga axborotlarni tayyorlash va etkazish jarayonidir. Kompyuter texnologiyalari quyidagi variantlarda namoyan bo'lishi mumkin:

**I - «kirib boruvchi»** texnologiyalar (alohida mavzular, bo'limlar bo'yicha ma'lum bir didaktik masalalar uchun kompyuter o'qitishni qo'llash).

**II - asosiy**, qo'llanayotgan aniq texnologiyadan o'ta muhim qismini aniqlovchi.

**III - monotexnologiyalar** (ta'lim, o'quv faoliyatni boshqarish, diagnostika va monitoring kompyuterlarni qo'llashga asoslanadi).

Hozirda zamonaviy axborot texnologiyalari ta'limda faol qo'llanilmoqda. SHu bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

- ta'limni axborotlashtirishga pedagogik jamoalarning etarli tayyor emasligi;
- kompyuter o'rgatuvchi dasturlarning imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo'llash bo'yicha metodik ishlanmalarning kamligi;
- kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;
- ta'limda axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning etishmasligi.

Ta'lim muassasida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan modellar orasidan quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanuvchi darslar;
- INTERNET o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida tashkil etilgan darslar;
- pedagoglarning darslarga metodik tayyorlanishi, qo'shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirishi, didaktik materiallarni tayyorlashi;
- kompyuter texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish.

Har bir modelga o'ziga xos texnik jihozlangan kompyuter ishchi o'rinlari to'g'ri keladi. Kompyuterlarni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha bizning tajribamizdan kelib chiqib, predmet kompyuter sinflari va kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv sinflarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb

hisoblaymiz. O'qitishni kompyuterlashtirish tor ma'noda kompyuterlarni o'qitish vositasi sifatida qo'llash bo'lsa, keng ma'noda o'quv jarayonida kompyuterlardan ko'pmaqsadli foydalanish nazarda tutiladi. O'qitishni kompyuterlashtirishning asosiy maqsadi o'sib borayotgan avlodni axborot jamiyatiga tayyorlash va axborot texnologiyalari vositalarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishdan iboratdir.

O'qitish jarayonini kompyuterlashtirish (axborotlashtirish)da ikki yo'nalishni ajratish mumkin: kompyuterni o'quv faoliyatining vositasi sifatida qo'llashning barcha usullarini o'zlashtirish hamda kompyuterdan o'rganish ob'ekti sifatida foydalanish. Kompyuterni texnik xarakteristikalarining va dasturiy ta'minotining takomillashib borishi, didaktik imkoniyatlarining kengayishi uning o'qitish vositasi sifatida yangi xossalarini namoyon qilmoqda.

Kompyuterlar yordamida o'qitishning rivojlanish tarixida ikki tizim: an'anaviy va intellektual o'qitishni ajratish mumkin. Intellektual o'qitish tizimining asosiy xususiyati shundaki, u o'quv masalalarini hal etishda barcha bosqichlar xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv faoliyatini boshqarishni nazarda tutadi. Intellektual o'qitish tizimida individuallashtirilgan o'qitish o'quvchining dinamik modeli asosida amalga oshiriladi. Bunday tizimlar o'quvchi va kompyuter o'rtasida boshqaruv vazifalarini taqsimlash imkoniyatini berish orqali o'quvchining o'quv faoliyatini shakllanib borishida barqarorlik, muntazamlikni beradi, ya'ni mustaqil o'qishga o'rgatishga optimal tarzda o'tish amalga oshiriladi.

Kompyuterlar vositasida o'qitish o'quv jarayonining barcha jabhalariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kompyuterlarning o'qitish mazmuniga ta'siri o'quvchilarga ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Bu kompyuterlarning o'quv materiallarini namoyish etish imkoniyatlarining yuqoriligi, sun'iy intellekt g'oyalarini joriy etilishi, o'quvchilarga ko'plab axborotlarni etkazish vositasi ekanligi bilan bog'liqdir. Ikkinchi tomondan kompyuterlar o'qitish mazmuniga har xil evristik vositalarni kiritadi. Kompyuterlarning muhim ahamiyatli tomonlaridan

biri ularning integrasiyalashgan o'quv fanlarini yaratishga real imkoniyat vujudga keltirishidir.

O'quv maqsadlarida kompyuterlardan foydalanish o'quvchilarning faoliyatini o'zgartiradi. Endi o'quvchi pedagogga murojaat etmasdan turib zarur axborotlarni mustaqil izlab topishga, ya'ni mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompyuter o'qitishning ikkinchi yo'nalishi kompyuterlarni o'rganish ob'ekti sifatida qo'llashdir.

Kompyuterlarning o'quv jarayonida o'qitish vositasida qo'llanilishi didaktika va pedagogik psixologiyaning ko'pgina nazariy asoslarini qayta ko'rishni taqozo etadi. Jumladan ekspert tizimlar o'quvchini istalgan murakkablikdagi masalani echishda to'g'ri echimga olib kelish, gipermatn o'rgatuvchi tizimlar esa o'quvchiga o'quv materiallarini o'zlashtirish ketma-ketligini tanlash imkoniyatlarini beradi.

Ta'kidlash joizki, kompyuterlar vositasida o'qitish o'qitishdagi barcha muammolarning o'z-o'zicha echilishga olib kelmaydi. Kompyuter pedagogni o'quv jarayonidan siqib chiqara olmaydi, ya'ni yangi axborot texnologiyalari an'anaviy texnologiyalarning o'rnini to'liq qoplay olmaydi. Matn muharririda tayyorlangan didaktik materiallar o'quv jarayoni imkoniyatlarini kengaytiradi, ya'ni bu jarayonni samarali va xilma-xil qiladi va o'qishga qiziqishni oshiradi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar auditoriyasining tayyorgarlik darajasiga qarab didaktik materiallarni shakllantirish mumkin. YAxshi ulguruvchi o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar tayyorlash yoki murakkab testlar berish imkoniyatlari yaratiladi. Didaktik materiallarni tayyorlashda pedagog o'zining kasbiy vazifalarini bajarishga qaratilgan materiallar tayyorlayotganini esda tutishi lozim.

Endi jadval muharririda didaktik materiallar tayyorlashni ko'rib chiqaylik. Misol uchun «O'zgarmas tok qonunlari» bo'limidan didaktik materiallar tayyorlash jarayonini kuzataylik. Murakkab elektr zanjiri berilgan bo'lsin. Unda zanjimning bir qismi uchun Om qonunidan foydalanib tok kuchi va kuchlanishning reostat qarshiligiga bog'liqligini o'rganish talab etilmoqda. Masalani echish

davomida jadvaldagi ustunlarni to'ldirish, formulalarni yozish va ko'chirish, diagrammalar tuzish usullari o'rganiladi.

O'qituvchi, dastlab, o'quvchilarni elektron jadval shablonlarini to'ldirish uchun tayyorlaydi, o'quvchilar laboratoriya ishlari natijalarini jadvallarga kiritadilar, bu ma'lumotlarni qayta ishlaydilar. Aslida oddiy ko'ringan mazkur hisoblashlar orqali o'quvchilar kompyuter texnologiyalaridan qulay vosita sifatida foydalanishga o'rganadilar. Va nihoyat elektron jadvallarning ajoyib xususiyati - ko'rsatkichlarning o'zgarishida formulalarning hisoblashlarni mos amalga oshirishini ta'minlash mumkin. Bu esa uncha murakkab bo'lmagan fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi.

Elektron taqdimotlardan darsga namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animasiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni engillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham tarqatish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o'quvchilar o'zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo'ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika yaqituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat bo'ladi. Birinchi tur ta'siri: o'qitishning ma'lum bosqichida o'quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi savollar. Ikkinchisi: masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko'rsatish.

Savollar va ko'rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog'liq ravishda beriladi.

13

## MAXSUS FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O'quv maqsadi

*Talabalarda maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida nazariy bilimlarini shakllantirish*

**Reja:**

1. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari.
2. Pedagogik texnologiya turlari: shaxsga yonaltirilgan ta'lim texnologiyalari.
3. Muammoli, interfaol, o'yinli, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari.
4. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbig' etish metodikasi



**Mavzuga oid tayanch so'zlar:**

O'qitish metodi, ta'limni texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiya, texnologik jarayon, texnologik operatsiya, texnologik xarita, texnologik rejim, pedagogik jarayon, optimallashtirish., pedagogik tizim, ta'lim-texnologiyasi, ta'lim jarayoni tizimi, o'qitish texnologiyasi

Texnologiya (yunoncha so'z bo'lib, "texne" – mahorat, san'at hamda "logos" ta'limot so'zlaridan tashkil topgan). Texnologiya tushunchasi – ishlab

chiqarish jarayonini tizimli, bir ma'romda tashkil etish va sifatli maxsulot yaratishni nazarda tutadi. Ma'lum maxsulotni olishning tejamli va samarali yo'l va usullarni ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish masalalarini tadqiq etadi. Ishlab chiqarish texnologiyasi – texnologik jarayon, texnologik operatsiya, texnologik rejim, texnologik xarita kabilardan tashkil topadi.

CHet elda ta'lim texnologiyalari (an aducational technology) tushunchasi keng tarqalgan. CHet el pedagogikasida ta'lim va tarbiya tushunchalari sintezlangan bo'lib yagona "Ta'lim"degan nom bilan ataladi. YA'ni ta'lim texnologiyalari deganda o'quuv texnologiyalari va tarbiya texnologiyalar tushuniladi. Ammo biz pedagogika fanida ta'lim va tarbiya tushunchalarini alohida izohlaymiz va pedagogika faning ajralmas qismlari sifatida talqin etamiz. SHunga ko'ra "Ta'lim texnologiyalari" tushunchasini biz mazmunidan kelib chiqqan holda tarjima qilib, "Pedagogik texnologiyalar" deb nomlash o'rinli deb topilgan. "Pedagogik texnologiyalar" tushunchasiga bir qancha ta'riflar berilgan:

1. Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmualiy yondashu usulidan foydalanishdir (YUNESKO).

2. Pedagogik texnologiyalar - oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalalarni echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir.

3. Pedagogik texnologiyalar–pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan, aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loixalashtirilgan, takrorlana oluvchi pedagogik harakatlar tizimidir.

4. Ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimi.

5. Pedagogik texnologiya o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va joylashuvini belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi. U pedatogik jarayonning tashkiliy, uslubiy vositalaridan iborat ( B.T.Lixachyov)

6. Pedagogik texnologiya –ta'lim beruvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan, ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P.Bespalko).

7. Pedagogik texnologiya o'quv jarayonining ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlanishni loyihalash, tahlil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli ( V.M.Monaxov ).

8. Pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim ( O'.Q.Tolipov).

Pedagogik texnologiya ta'riflariga bo'lgan turli yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, haqiqatdan ham o'qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlari oralig'idan o'rin oladi, u o'qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'langan. Pedagogik texnologiya o'quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o'zida qamrab oladi.

Pedagogik texnologiyalarni **mazmuni** quyidagi yo'nalishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan:

A). Gumanlashtirish va demakratlashtirish.

V). Individuallashtirish


S). Rivojlantirish

#### D). Faollikni oshirish (bajarib o'rganish)

O'qitish texnologiyasi tarkibiga o'quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o'qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O'quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Texnologiya yaxlit didaktik tizim sifatida tashkil etilishi lozim.
2. Aniqlangan maqsadga qaratilgan, ma'lum sharoitni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan texnologiyani qayta takrorlana olish darajasida bhlishi kerak.
3. Texnolgiyani ishga tushirish mexanizmlarini ustivorligi.
4. Texnologiyani o'quvchi shaxsiga moslashtirish.
5. Rivojlantiruvchi axborot materialini kengligi.



Pedagogik texnologiyaning tadqiq qilish doirasi quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- *konseptual asos;*

- *ta'lim jarayoni;*

- *maztuni va texnologik jarayon.*

Har bir pedagogik texnologiya **muayyan ilmiy konsepsiyaga** asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning **ilmiy konsepsiyasi** ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslarini qamrab oladi.

**Ta'lim jarayoni mazmuni** ta'lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o'quv material mazmunidan iborat bo'ladi.

**Texnologik jarayon** o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o'quv jarayonini boshqarish usullari, o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga berilayotgan ta'riflarni tahlil.

Ta'lim tizimi intellektual boylikni vujudga keltruvchi va sayqal beruvchi asosiy bo'g'indir, demak ta'lim tizimini samaradorligini oshirish asosida intellektual boylikni ko'patirish va malakali mutaxassislarni etishtirish masalasini xal etish mumkin. Ta'lim tizimini samaradorligini oshirish uchun samarali natijani kafolatlovchi ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Bugungi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtiramoqda, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Bugungi kunda informatsion axborot, tibbiyot, ta'lim va boshqa texnologiyalar vujudga keldi.

Texnologik yondashuv o'qituvchini na faqat bilim beruvchi, balki talabaning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etuvchi menejerga aylantiradi.

Texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda talabalar faol ishtirok etadi va kam kuch sarflagan holda katta hajimdagi ma'lumotlarni egallab oladi. Ma'lumotlarni o'rganish jarayoni shunday loyixalashtiriladiki, talaba berilgan topshiriqlar tizimini bajarish jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi va mustahkamlaydi, balki o'zida amaliy malakalarni hosil qiladi.

Pedagogik texnologiya har bir o'quvchini bebaho iste'dod egasi sifatida qabul qiladigan, shaxsга yo'naltirilgan tizim bo'lib, o'quvchining hali ochilmagan qirralarini ochishga xizmat qiladi. Ta'limda o'quvchini passiv idrok etuvchi shaxsdan, faol sub'ektga aylanishiga zamin yaratadi va natijada bilimlarni puxta egallanishiga, ana shu bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllanishiga mustahkam asos yaratadi. YUqorida sanab o'tilgan xususiyatlar pedagogik texnologiyalarni mohiyatini tushunishga va uni to'g'ri baholagan holda ta'lim amaliyotiga joriy etish zaruratini anglab etishga asos bo'ladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimi amaliyotiga joriy etish davr talabi bo'lib, ushbu jarayonni faol kechishini ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi kerak.

«pedagogik texnologiya» termini ingliz tilidagi an aducational technology unchalik tugri kelmaydi .U kuprok obrazavatelnaya texnolgiya ya'ni ta'lim texnologiyalari degan tushunchaga mos.T'alim texnologiyalari tushunchasiga bir kancha ta'riflar berilgan.

1.Oldindan loixalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbik etish yoki pedagogik masalalarni echishga karatilgan pedagogning uzluksiz uzaro boglangan xarakatlari tizimidir.


2. Pedagogik texnologiyalar–pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan, aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loixalashtirilgan, takrorlana oluvchi pedagogik harakatlar tizimidir.

3. Ta'lim jrayonini optimallashtirishga karatilgan, texnika xamda inson omillari, uning uzaro xamkorligi asosida ukitish jarayoni va bilimlarni egallash,yaratish,kullash xamda belgilashning tizimli metodir. (YUNESKO).


4. Ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu tuplamini kullash bilan bog'lik bulgan pedagogning uzksiz,uzaro shartlangan xarakatlari tizimi.

Kurib turganimizdek xozirgacha pedagogik texnologiyalarga yagona bir mukammal ta'rif berilmagan. YUNESKO bergan ta'rif ham umuiy xususiyatga ega bulib pedvgogik texnologiyalarning mohiyatini ochib bermaydi. Bizningcha berilgan ta'riflar ichida pedagogik texnologiyalarning mazmun – mohiyatini kuprok ikkinchi ta'rif ochib bera oladi.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari.



3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy sifatlari.



### **Pedagogik texnologiyalarni turlari. Falsafiy jihatdan klassifikatsiya.**

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida ko'plab yondashuvlar mavjud. Pedagogik texnologiyalarni xarakteri ana shu yondashuvdan kelib chiqadi. SHunga qarmasdan ko'pgina pedagogik texnologiyalar o'z mazmuni, maqsadi, metodlari va vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshash. Pedagogik texnologiyalarni ana shu o'xshash xususiyatlariga qarab ularni bir necha turga ajratish mumkin.

Qo'llanilishiga, qamrov hajmiga (masshtabiga) ko'ra ularni uch guruhga ajratiladi:

1. Umumiy pedagogik texnologiyalar.
2. Xususiy pedagogik texnologiyalar.
3. Kichik modulli universal texnologiyalar

Falsafiy dunyoqarash o'z navbatida ta'lim – tarbiya tizimiga yondoshuvda ham o'z aksini topadi. Diniy dunyoqarash o'ziga xos ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini talqin etadi, idealistik dunyoqarash o'ziga xos ravishda ta'lim-tarbiyaning mazmun mohiyatini ochib beradi. Materialistik dunyoqarash ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishda materialistik nuqtai nazardan yondoshadi. Ilmiy dunyoqarash esa ilmiy kashfiyotlarga asoslangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tahlil etishga qaratiladi. Demak, har bir jamiyatning qabul qilgan dunyoqarashi ana shu jamiyatda ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishga bevosita ta'sir o'tkazadi.

### **Tashkil etish, boshqarish, shaxs xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha klassifikatsiya.**

Tashkil etish va boshqarish jihatidan pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarini ajratish mumkin:

a. Sust boshqariluvchi /o'quvchilar faoliyati boshqarilmaydi, stixiyalilik ustun turadi.

b. Siklli tekshirish – o'z-o'zini va o'zaro tekshirish ustun turadi.

v. Frontal (yalpi),

g. Yo'naltirilgan (individual),

d. Verbal –o'qituvchi ishtirokida,

e. Avtomatlashgan – texnik vositalardan foydalangan holda.

Amaliyotda bu ta'lim texnologiyalari kombinatsiyalashgan holda qo'llaniladi. Ta'lim texnologiyalar darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

SHaxs xususiyatlarini rivojlantirishiga qarab quyidagi texnologiyalar ajratiladi:

1. Operatsion texnologiyalar – fikrlash malakasini fikrlash refleksini rivojlantiruvchi texnologiyalar xisoblanadi. Ular har xil fikrlash turlarini shakllantirishga moslashgan bo'ladi.
2. Estetik – axloqiy xislatlarni shakllantirishga qaratilgan texnologiyalar.
3. Boshqaruvchilik xususiyatini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
4. Evristik – ijodiy yondoshuvni rivojlantiruvchi texnologiyalar, talabalardan ijodiy yondoshib masalani echimini topishni talab etadi.
5. Amaliy texnologiyalar – amaliy xatti-harakatlarni shakllantiruvchi texnologiyalar.

#### **Munosabat turlari. Ilmiy tajribani o'rganish bo'yicha klassifikatsiyalash.**

Pedagogik jarayonni tashkil etishda o'quvchining va o'qituvchining munosabati ham turlicha bo'lishi mumkin. Bu munosabatni quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1. Avtoritar texnologiyalar.

2. Didaktik markazlashgan texnologiya.

3. SHaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar: a) Insoniy texnologiyalar. b) Xamkorlik texnologiyasi. v) Erkin tarbiya texnologiyasi. g).Ezoterik texnologiya.

**Ilmiy tajribani urganish** buyicha: Assotsiatsiya-refleks, Geshtalt texnologiya, Bixevristik, Rivojlantiruvchi kabi texnologiyalarni ajratish mumkin.



### **Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:**

1. Pedagogik texnologiyalarni metodika bilan taqqoslang.
2. Diagramma Venna asosida tahlil qiling.
3. Pedagogik texnologiyalarning klassifikatsiyasiga izox bering.
4. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga berilayotgan ta'riflarni tahlilini konseptual jadval asosida yoriting.



### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kanday omillar pedagogik texnologiyalarni vujudga kelishiga ta'sir etdi?
2. Bugungi kunda ta'lim tizimiga qanday yangi talablar kuyilmokda?
3. Pedagogik texnologiyalarning mohiyatiga izox bering.
4. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi nimadan iborat?
5. Pedagogik texnologiyalarning vazifalari qanday?
6. Pedagogik texnologiyalarni klassifikatsiyalashdan qanday maqsad ko'zlanadi?
7. Pedagogik texnologiyalarning qanday turlarini bilasiz?
8. SHaxs xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha qanday pedagogik texnologiyalarning turlarini bilasiz?
9. Ilmiy tajribani o'rganish bo'yicha qanday pedagogik texnologiya turlarini bilasiz?

**MAXSUS FANLARDAN NAZARIY VA AMALIY DARS O'TISH  
METODIKASI**

**REJA:**

- 1. Maxsus fanlardan nazariy va amaliy dars rejasi.**
- 2. Maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy darsning tuzilishi.**
- 3. Nazariy va amaliy darslarga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish.**

**Nazariy ta'limda** - kasb-hunar kollejarining o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutiladi. Nazariy ta'limning vazifasi, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bitta maqsadga, ya'ni yuqori malakali ishchi kadrlar tayyorlashga qaratiladi. SHuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limi kasb-hunar kollejaridagi o'quv jarayonining mustaqil, ammo o'zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Ta'limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg'ulotlarining soatlari ma'lum nisbatda bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'rganilayotgan fan bilan tanish emasligini, o'zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

YAngi fanni o'qitish oldingi o'tilgan fanlar asosida va yangi texnologiyani hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

## Maxsus fanlardan nazariy dars o'tish metodikasi

Biz maxsus fanlardan nazariy darslar o'tishga kasb-hunar kollejarida kuyilgan asosiy talablarni an'anaviy usulda dars o'tish metodikasi deb yuritamiz. YA'ni nazariy dars o'tishda - loyihalananayotgan dars mashg'ulot tarkibiga asoslanadi;

- Dars rejasi ishlab chiqiladi;

### Nazariy dars rejasi

**Fanni**

**nomi:** \_\_\_\_\_

**Mavzu**

**nomi** \_\_\_\_\_

**Darsdan**

**ko'zlangan**

**maqsad:** \_\_\_\_\_

**Darsga ajratilgan vaqt** \_\_\_\_\_

**Dars o'tiladigan joy** \_\_\_\_\_

**Dars**

**turi** \_\_\_\_\_

**Darsni moddiy-texnik jihozlari** \_\_\_\_\_

- Darsning tarkibiy qismlariga alohida o'tish metodikasi batafsil yoritiladi. Masalan aralash dars turi o'tilganda quyidagi savollar o'z echimini topishi lozim:

- **Tashkiliy qism-** dars boshlash metodikasi (salomlashish, yo'qlama qilish, dars kabineti holatini tekshirish,;

- **Uy topshirig'ini tekshirish-**o'tilgan o'quv materiallari bo'yicha ishlash metodikasi (oldingi o'tilgan dars bo'yicha o'quvchi bilimini baholash, og'zaki, test savollari va h.k.);

- **Yangi o'quv materialini o'tish metodikasi** (mavzuni tanishtirish, reja asosida savollar ketma-ketligini saqlash,);

- **Yangi o'quv materialini mustahkamlash** (o'tilgan o'quv materialini mustahkamlash, birinchi gal mustahkamlash, o'tilgan mavzu bo'yicha qaytarish

qilinadi ya'ni qisqa savollar berilib o'quvchilarni mavzuni o'zlashtirish darajasi aniqlanadi);

- **Uyga vazifa** - o'tilgan mavzu bo'yicha aniq vazifalar uyda bajarib kelish uchun beriladi. Bunda o'quvchi uyda mustaqil ishlashi, ya'ni uy vazifasini bajarish uchun qanday adabiyotlardan foydalanishi, tavsiya qilingan adabiyotni avtori, kitob nomi nashriyoti, nashr yili, beti aniq ko'rsatiladi. Agar chizma, rasm, diagramma, grafik, jadvallar bo'lsa tartib raqamlar aniq ko'rsatiladi.

- **Yakuniy qism** - keyingi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishtiriladi, xayrlashish.

Ishning bu qismini yoritishda o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishning faol usullarini qo'llashga ahamiyat berish zarur.

#### **Ma'ruza matni tayyorlash:**

- Nazariy darslar uchun DTS talablari asosida ma'ruza matni tayyorlanadi. Ma'ruzalar matni har bir mavzu uchun rejaga binoan alohida tayyorlanishi kerak.

## *Hova 2*

### **Maxsus fanlardan laboratoriya amaliy mashg'ulotlar o'tish metodikasi**

Ta'lim jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bilimlarni amalga tatbiq etishdan iborat bo'lib, unda o'quvchilarning ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Umumtexnik va maxsus texnik fanlarni o'rganishda olingan bilimlarni amalga tatbiq etishning shakllaridan biri laboratoriya amaliy mashg'ulotlaridir.

**Laboratoriya amaliy mashg'ulotlar** - nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda malaka va mahoratlarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Laboratoriya amaliy mashg'ulotlar - muiyyan operatsiyalarni (jarayonlarni) malaka va mahoratlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida ongli ravishda bir necha marta takrorlashdan iborat. O'quvchilar berilgan mashqning nima uchun kerakligini yaqqol tasavvur qilishlari va qo'yilgan maqsadga erishish uchun faol ishtirok etishlari lozim.

Biz maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha KHKlarida qo'yilgan an'anaviy usulda amaliy mashg'ulotlar o'tish metodikasi deb yuritimiz, ya'ni amaliy mashg'ulotlar o'tishda ham - amaliy mashg'ulotlar tarkibiga asoslanadi;

Laboratoriya amaliy mashg'ulotda avvalo kirish yo'l-yo'rig'i ko'rsatiladi va u 20-25 daqiqa davom etadi. Unda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

1. Laboratoriya amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad va uning mazmuni.
2. O'quvchilarni ish o'rinlari bo'yicha almashishi jadvali bilan tanishtirish.
3. Laboratoriya va ish o'rinlari bilan tanishish.
4. Xavfsizlik texnikasi qoidalari.
5. Laboratoriya xonasida yurish-turish qoidalari.
6. Topshiriqlar olish va ularni bajarish, ma'lumotlarni tuzish va yozish, natijalarini rasmiylashtirish va hisobot tayyorlash tartibi.
7. O'quvchilarning ishlarini nazorat qilish va baholash.
8. Topshiriq va ko'rsatmalar bo'yicha o'quvchilarning savollariga javob berish.
9. Navbatdagi laboratoriya amaliy mashg'uloti uchun topshiriqlar berish.

### **Laboratoriya - amaliy mashg'ulotlar rejasi**

**Fanni nomi:** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulot №, nomi** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad:** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulotga ajratilgan vaqt** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulot o'tiladigan joy** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulot turi** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulotni moddiy-texnik jixozlari** \_\_\_\_\_

**Mashg'ulotni borishi:**

**Mashg'ulotlarni o'tkazish tartibi:**

**Tashkiliy qism** - (5 daqiqa). Jihozlar va ish o'rinlari, asbob uskunalarni, o'quv rejalashtirish hujjatlarini tayyorlash, mehnat xavfsizligi qoidalari bo'yicha ko'rsatma ishlab chiqish.

Dars boshlanishida o'qituvchi o'quvchilarni yo'qlama qiladi va ularning tayyorgarligini tekshiradi, kiyimlari xavfsizlik talablariga mosligini aniqlaydi.

**Kirish yo'l-yo'rig'i (instruktaji)** – (20-25 daqiqa) davom etadi. Mashg'ulotning tashkiliy jihatdan tuzilishi masalan avtomobilning tuzilishi mavzusi misolida o'quvchilar bilan salomlashish, davomatni tekshirish, mashg'ulotning mavzusini va maqsadini ma'lum qilish, o'tiladigan mavzu bo'yicha xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishtirish, brigadirlarni ish joylariga taqsimlash va o'quvchilardan o'z ishlarida topshiriqlarni bajarish rejasiga qat'iy amal qilishlarini talab qilish.

**Joriy yo'l-yo'rig'i (instruktaji)** - 5-7 min. O'quv joylarini 1-aylanib chiqish - 7 min. O'quvchilarning bajaradigan ish maqsadini va xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruksiya talablarini qay darajada bilishlarini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni barataraf etish, topshiriqlarni to'g'ri bajarilishi uchun yordam berish. O'quv joylarini 2- marta aylanib chiqish - 90 min. O'quvchilarning e'tiborini eng murakkab uzellarning tuzilishiga, detallarning muhimligiga va ularning ish jarayonida o'zaro ta'siriga, TXK joylariga va uchrashi mumkin bo'lgan buziqliklarga jalb qilish, yig'ish (ajratish)ni bajarish ketma - ketligini hamda asboblardan foydalana olishini tekshirish va zarur bo'lganda ko'rsatish. O'quvchilarning yuzaga kelgan savollari javob berish. O'quv joylarini 3- marta aylanib chiqish 50 min. Instruktiv kartalarda bayon qilingan tekshirish savollaridan foydalangan holda o'quvchilarni o'rganilgan material bo'yicha so'roqqa tutish va baho qo'yish, tushunarsiz savollarni aniqlash, ishning tugallanishini tekshirish, mashg'ulotlar tugashiga 10 min. qolganda ishlarni tugallanganligi haqida ma'lum qilish.

**YAkuniy yo'l-yo'rig'i (instruktaji)** -10 min. O'quv joylarini asbob-anjomlarni qabul qilish, o'quvchilarning bilimlari yuzasidan xulosa chiqarish, ilg'or va qoloq o'quvchilarni ta'kidlash navbatdagi mashg'ulotlar mavzusi, joyini

ma'lum qilish, uy vazifasini berish, savollarga javob qaytarish. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi ixtiyorida bilim berishning benihoyat ko'p usullari mavjud, bu usullar turlicha samara beradi va o'quchilarning turli darajadagi bilim faoliyatlarini ta'minlaydi. O'qituvchi pedagogika ilmi va ilg'or tajriba asosida ishlab chiqilgan ta'lim berish usullarini egallagan, o'zining mahoratini muntazam ravishda takomillashtirgan taqdirdagina mazkur vazifani muvaffaqiyatli ijro etishi mumkin.

**Laboratoriya - amaliy mashg'ulotlar uchun instrukcion-texnologik xarita**

Fan: \_\_\_\_\_

Mavzu: \_\_\_\_\_

t/r	Bajariladigan ishning nomi	Eskiz	Ishni bajarish ketma-ketligi	Ishning mazmuni	Asbob va jihozlar	Xavfsizlik texnikasi qoidalari

**TESTLAR:**

**1 # Ma'lumot nima?**

- + ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma malakalarni egallash jarayoni bosqichlari
- kishining maktab yoki biror o'quv yurtini bitirib olgan bilimlari
- biror xodisa, voqeani yoki shaxsini tasniflashdagi faktlarning jami
- darsda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan bilim, axborot

**2 # O'qitish jarayonini asosiy elementlari**

- + ilmiy ma'nosi, ilm berish, o'qitish
- ilmni egallash va o'zlashtirish

- ilmi qabul qilish va o'zlashtirishni tekshirish
- o'qitish va o'qishni o'zlashtirish

### **3 # O'qitishning ko'rgazmali usuli o'qitishning qaysi turiga kiradi?**

- + namoyish qilish, rasmlar
- illustrasiya mashqlari
- mashq qilish, kuzatish
- mashqlar, tushuntirish

### **4 # O'quv jarayonida nazorat vazifasi nima?**

- + tarbiyalash, nazorat qilish, o'qitish
- nazorat qilish, tashxislash, o'qitish
- nazorat qilish, chaqiruvchi o'qitish
- nazorat qilish, tarbiyaviy motivatsiya vazifasi

### **5 # Kasb nima ?**

- + nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan yuridik xuquqlarni ta'minlovchi faoliyat turi
- ma'lum bir soxada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun ortirilgan bilim, ko'nikma va malakalar
- maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ortirilgan mexnat faoliyati turi
- jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik xuquqlarni ta'minlovchi mexnat faoliyati turi

### **6 # Ta'limiy kenglik bu – ...**

- + ta'lim jarayonlari amalga oshiriladigan, ya'ni atrof-muhit bilan o'zaro harakatni anglatadigan kenglik
- bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish
- voqelikni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuyi
- har qanday faoliyatning zaruriy tashkiliy komponenti

### **7 # Ixtisoslik nima ?**

- + kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi
- maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilim ko'nikma va malakalar majmuasi
- biror kasb doirasida qabul qilingan bir faoliyat turi
- kasb doirasida zarur bo'lgan bilim ko'nikma va malakalar majmuasi

### **8 # Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'lini aniqlang?**

- + ziddiyatli holatlarga olib kelinadi va talabalarga o'zlariga yechim yo'llarini izlashi taklif etiladi
- o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqillikni rivojlantirish
- talabalar darslik bilan mustaqil ishlashi
- talaba o'zining individual xususiyatlariga tayanishi

### **9 # Davlat ta'lim standartlari ta'lim mazmuniga qo'yiladigan qanday talablarni ifodalaydi?**

- + minimal talablarni
- standart talablarni
- maksimal talablarni
- me'yoriy talablarni

### **10 # Vosita nima?**

- + ma'lum o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari
- kinofilm, diafilm
- texnik vosita va trenajerlar
- o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun kerakli usullar

### **11 # Ma'lumot nima?**

- + ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma malakalarni egallash jarayoni bosqichlari
- kishining maktab yoki biror o'quv yurtini bitirib olgan bilimlari
- darsda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan bilim, axborot
- biror xodisa, voqeani yoki shaxsini tasniflashdagi faktlarning jami

### **12 # O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari qaysilar ?**

- + standartlarga asoslanish, aniqlik, ishonchlilik, haqqoniylik, qulaylik
- standartlarga asoslanish, aniqlik
- standartlarga asoslanish, qulaylik, haqqoniylik
- standartlarga asoslanish, ishonchlilik, aniqlik

### **13 # Kadrlar tayyorlash milliy modeli qaysilar?**

- + shaxs, fan, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, ishlab chiqarish
- uzluksiz ta'lim, davlat, maorif
- sanat, ta'lim, tarbiya, davlat
- jamiyat, fan, adabiyot, ishlab chiqarish

### **14 # Ta'limning amaliy usullari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan ?**

- + laboratoriya, amaliy mashqlar, ekskursiya, topshiriqlar
- laboratoriya, mashqlar, ekskursiya
- muammoli, o'yinli, mashqlar
- amaliy mashqlar, ekskursiya, laboratoriya

### **15 # Quyidagi tushunchalarning soddadan-murakkabga tomon to'g'ri joylashish tartibini ko'rsating.**

- + usul – metod – metodika – metodologiya – texnologiya

- metod – metodika – usul – metodologiya – texnologiya
- texnologiya – metodologiya – usul – metod – metodika
- metodika – metodologiya – metod – texnologiya – usul

### **16 # O'quv dasturi nima?**

- + aloxida o'quv fan-lari bo'yicha bilim, ko'nikma malakalari xajmini o'rganish ketma ketligini bel-gilaydigan xujjat
- davlat talablarini ifoda etgan xujjat bo'lib, umumkasbiy fanlar bo'yicha bilim va malakalar mazmuni belgilaydi
- umumta'lim va umum-kasbiy fanlar bo'yicha bilim va malakalar mazmuni va xajmini o'rganishni belgilay-digan xujjat
- fanni xayot bilan, nazariyani amaliyot bilan uzviy bog'lay-digan uslubiyot ko'r-satmalari

### **17 # O'quv reja bu?**

- + ta'lim mazmuni va umumiy sharoitni belgilovchi davlat xujjati
- ta'lim mazmuni va metodlarini o'z ichiga qamrab olgan davlat xujjati
- o'quv fanlar ro'yxati beriladigan davlat xujjati
- ayrim mutaxassis-liklar egallashi lozim bo'lgan davlat xujjati

### **18 # O'quv faoliyati – bu:**

- + talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligida ilmiy bilimlar, malakalar va ko'nikmalarning egallanishi
- talabaning o'qituvchi ishtirokisiz bilim egallashi
- bilimlarni amalda qo'llanilishi
- bevosita idrok va anglash orqali bilimlar egallashi

### **19 # Quyidagi tushunchalarning soddadan-murakkabga tomon to'g'ri joylashish tartibini ko'rsating.**

- + usul – metod – metodika – metodologiya – texnologiya

- texnologiya – metodologiya – usul – metod – metodika
- metodika – metodologiya – metod – texnologiya – usul
- metod – metodika – usul – metodologiya – texnologiya

## **20 # «O'qitish» tushunchasi nimani anglatadi ?**

+ shaxsni ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassi tamonidan tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni

- pedagogik jarayon bo'lib, unda maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida o'quvchiga bilim, tarbiya berish
- yosh avlodni maxsus o'quv yurtlarida o'quv rejalari va dasturlari asosida, darsliklardan foydalanib o'qitish
- pedagogika jarayonini muhim turi bo'lib, unda maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida ijtimoiy muhim shaxsga ta'lim berish

## **21 # Kasbiy faolit mazmunining asosi nima?**

- + malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifa
- ishlab chiqarish ta'limi
- bilim va ko'nikmalar
- ilmiy bilimlar

## **22 # Ta'lim texnologiyasi tushunchasi nimalarni o'z ichiga oladi?**

- + o'quv jarayoni, loyiha, ta'lim texnologiyalari, vosita va shakllar
- ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni
- ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni
- ta'lim – tarbiyaning usul va shakllari

## **23 # Pedagogik ilmiy – tadqiqot metodlari qaysilar?**

- + kuzatish, suxbat, anketa, maktab xujjatlarini o'rganish
- kuzatish, hikoya, suhbat, ma'ruza, anketa
- kuzatish, anketa, laboratoriya, ekskursiya, illustrasiya

- kuzatish, ishontirish, mashq, suhbat

**24 # Modul iborasiga qaysi variantda to'g'ri ta'rif keltirilgan?**

+ o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi

- o'quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon

- dasturlashtirilgan o'quv materialining o'qituvchi yordamida boshqariladigan o'zlashtirish

- talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish-lari bajariladigan jarayon

**25 # Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'lini aniqlang?**

+ ziddiyatli holatlarga olib kelinadi va talabalarga o'zlariga yechim yo'llarini izlashi taklif etiladi

- talabalar darslik bilan mustaqil ishlashi

- o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqillikni rivojlantirish

- talaba o'zining individual xusu-siyatlariga tayanishi

**26 # Ishlab chiqarish ta'lim metodlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

+ mehnatni tashkil qilish, kasbiy mustaqillik, mashqlar, faollik

- tajriba, kuzatuv, amaliy ishlar

- og'zaki bayon, suhbat, tushuntirish

- kitob bilan ishlash, ko'rgazmali, amaliy

**27 # Faoliyatlarning zaruriy tashkiliy komponenti bo'lib nima hisoblanadi?**

+ metodologiya

- kasbiy ta'lim texnologiyasi

- didaktika

-metodika

**28 # Kasbiy faollik mazmunining asosi nima?**

+ malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifa

- ishlab chiqarish ta'limi
- bilim va ko'nikmalar
- ilmiy bilimlar

**29 # Yangi bilim berish darsida asosiy o'rinni nima belgilaydi?**

- + yangi mavzu bayoni
- laboratoriya
- mustaqil ish
- takrorlash

**30 # Kasb ta'limi bo'yicha dars shakllari qanday bo'lishi kerak?**

- + o'quv-ishlab chiqarish ishlari, \*nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni sinash
- dars-sinov, ekskursiya darslari
- yakka tartibda, zveno, frontal
- mavzular va ishlab chiqarish ehtiyojlari bo'yicha darslar

**31 # Didaktika nima – bu.....**

- + o'qitish nazariyasi va ilm berish
- bilish qobiliyatini boshqarish
- pedagogik ishlar tajribasi
- o'qitish ishlarini uyushtirish

**32 # Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talabni aniqlang?**

- + tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash
- dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish
- murakkablashib boruvchi mashqlar yig'indisini ishlab chiqish
- darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish

### **33 # Layoqat nimani anglatadi?**

- + shaxsning tabiiy tugʻma xususiyatlari boʻlib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyatga aylanadi
- insonlarning qiziqishi
- maʼlum bir faoliyat bilan shugʻullanishga undovchi omil
- obʼektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, oʻrganishga boʻlgan intilish

### **34 # Kasb taʼlimi oʻqituvchilarini tayyorlash yoʻnalishini aniqlang?**

- + shakllangan bilim, koʻnikma va malakalarni ixtisos bilan bogʻlab amaliy ravishda uzluksiz qoʻllash
- psixologik, pedagogik va metodik tayyorgarlik
- umumtexnologik tayyorgarlik
- mehnat va ishlab chiqarish taʼlimi boʻyicha tayyorgarlik

### **35 # Oʻqitishning koʻrgazmali usuli oʻqitishning qaysi turiga kiradi?**

- + namoyish qilish, rasmlar
- mashq qilish, kuzatish
- illustrasiya mashqlari
- mashqlar, tushuntirish

### **36 # Oʻquv jarayonida nazorat vazifasi nima?**

- + tarbiyalash, nazorat qilish, oʻqitish
- nazorat qilish, tashxislash, oʻqitish
- nazorat qilish, chaqiruvchi oʻqitish
- nazorat qilish, tarbiyaviy motivatsiya vazifasi

### **37 # Talabalar mustaqil ishini tashkil etishning asosiy xususiyati nimada?**

- + taʼlimning bu shaklini mustaqil ravishda talabaning oʻzi tashkil qiladi
- talabani mustaqil ishlashga oʻrgatadi

- mustaqil ish auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi
- talabdan ko'proq aqliy mehnat talab qilinadi

### **38 # «Kasbiy mahorat» tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi mezonni aniqlang?**

- + mehnat faoliyatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi
- o'qitishning eng maqbul samarali usuli
- ilmiy yechimlar va ixtirolarni topish
- o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik

### **39 # Masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitish shakllaridan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?**

- + egiluvchanlik, modullik, qurshov, tejamkorlik, texnologiklik, baynalminallik, ijtimoiy teng huquqlik
- sun'iy intellekt tizimlari, axborot texnologiyalari
- dastur bo'yicha barcha mavzularni qamrab olish
- texnik vositalardan foydalanish

### **40 # Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash yo'nalishini aniqlang?**

- + shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni ixtisos bilan bog'lab amaliy ravishda uzluksiz qo'llash
- psixologik, pedagogik va metodik tayyorgarlik
- umumtexnologik tayyorgarlik
- mehnat va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha tayyorgarlik

### **41 # Ta'lim texnologiyasining elementlari bu**

- + usullar, yo'llar, ta'lim vositalari, shakllari, axborot va boshqaruv
- usullar, vositalar, shakllar
- bilim, ko'nikma va malaka
- bilim, ko'nikma, axborot va boshqaruv

#### **42 # Pedagogik texnologiyani ishlab chiqish jarayoni qanday?**

- + loyihalashtirish, amalga oshirish, tahlil va baholash
- bilim va ko'nikma hosil qilish jarayonlari
- axborot yig'ish, tahlil qilish va baholash
- bilim berish, amalga oshirish va mustahkamlash

#### **43 # Modulli o'quv dasturi qanday tuziladi?**

- + fanning maqsadi, fanning mazmuni, fanning o'qitish davomiyligi o'quv soatlar taqsimoti
- fanning maqsadi, fanning davomiyligi, o'quv soatlari taksimoti
- fanning o'qitish davomiyligi va soatlar taqsimoti
- fanning mazmuni, maqsadi va o'qitish davomiyligi

#### **44 # O'quvchilarning bilimini baholash testlari qaysi javobda to'g'ri?**

- + ko'p tanlovli test, yozma test va amaliy test
- ko'p tanlovli test
- yozma test
- amaliy test

#### **45 # Kasb-hunar kollejaridagi o'quv rejasi kim tomonidan tasdiqlanadi?**

- + Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi tomonidan
- ta'lim muassasa rahbari tomonidan
- avgust kengashi yig'ilishida o'qituvchilar tomonidan
- o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

#### **46 # Texnologik xarita nima?**

- + jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul vositalar ko'rsatiladi

- pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llash
- noan'anaviy darslarning rejalari
- o'tiladigan mavzularning rejalari

**47 # Ishbilarmon (pedagogik) o'yinli darsning maqsadi nimadan iborat ?**

+ ijodiy fikrlashga o'rgatish, ko'rsatmalar berish, odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lish, o'zini tuta olish, vaziyatdan chiqib bilish, to'g'ri qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish

- o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish
- o'quv materialini izlanishlar orqali o'rganish
- faol o'qitish usullaridan biri bo'lib, umumiy natijaga ega bulish

**48 # Og'zaki ta'lim metodlari qaysi javobda ko'rsatilgan?**

- + hikoya, suhbat, ma'ruza
- ma'ruza, trening, suhbat
- hikoya, suhbat, mashq
- ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi

**49 # Savol-javob usuli keltirilgan qaysi ta'lim metodida ko'proq qo'llaniladi:**

- + suhbat
- seminar
- hikoya
- ma'ruza

**50 # Pedagoglik odobi nima ?**

+ bu o'qituvchining har qanday vaziyatlarda ham xayraxoxlik munosabatlarini o'rnatib bilish kabi ma'naviy xulq-atvori

- bu o'qituvchining yuksak insoniylik, insonga mehribonlik, o'zini tuta bilish, sabr toqat, xulq-atvordir

- bu har qanday vaziyatlarda ham o'qituvchi o'quvchining tarkib topayotgan shaxsi bilan ish ko'rishdir
- bu o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan pedagogik etikaning o'ziga xos amalga oshirishdir

**51 # «Munosabat» tushunchasiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan ?**

- + bu odamlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat extiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlardir
- bu bir kasbdagi kishilarning umumiy faoliyati extiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlardir
- bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi xarakat usullaridir
- bu ota-ona va farzandlarning oila sharoitida tarbiyaviy ish bilan bog'liq umumiy xarakat usullaridir

**52 # Kalendar-mavzuli reja kim tomonidan tasdiqlanadi?**

- + o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
- fan o'qituvchisi
- ta'lim vazirligi
- ta'lim muassasa direktori

**53 # Dars tahlilining turlari**

- + pedagogik tahlil, ilmiy tahlil, metodik tahlil, psixologik tahlil, didaktik tahlil
- pedagogik, metodik, ilmiy
- pedagogik tahlil, ilmiy tahlil
- ilmiy tahlil, metodik tahlil

**54 # Kasb-hunar ta'limida ta'lim vositalari qanday tanlanadi?**

- + ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi va dars o'tish uchun
- dars o'tkazish uchun
- ta'lim beruvchi uchun

- ta'lim oluvchi uchun

### **55 # Seminar bu?**

- + amaliy mashg'ulot turi
- muammoli o'qitish turi
- mustaqil ta'lim turi
- nazariy ta'lim turi

### **56 # «Ta'lim» tushunchasi nimani anglatadi?**

- + insonni hayotga va mehnatga tayyorlashni asosiy sharti bo'lgan tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonidir
- o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayonidir
- har tamonlama yetuk shaxsni kamol toptirish qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayonidir
- o'quvchiga atroflicha bilim berish, uning ko'nikma va malakalarini shakllantirish

### **57 # Illustrasiya, demonstratsiya, video metod bu?**

- + ko'rgazmali metodlar
- og'zaki metodlar
- amaliy metodlar
- faol o'qitish metodlari

### **58 # Sintez deganda nimani tushunasiz?**

- + o'zlashtirilgan alohida-alohida materialni umumlashtirib yaxlit yangi tuzilma hosil qilishni ko'zda tutadi
- o'rganilayotgan materialni mohiyati anglanadi
- o'zlashtirilgan dalillar, tushunchalar va ish usullarini amaliyotga tadbiq etish
- o'rganilgan materialni xotirada saqlab qolish

### **59 # Ma'ruza bu?**

- + u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchil-likda va aniq bayon asosida izohlab berish
- yangi mavzu bo'yicha ilmiy axborot berish
- u yoki bu ilmiy sohada axborot berish
- bitta ilmiy sohada axborot berish

### **60 # Texnologik xarita nima uchun xizmat qiladi?**

- + o'qituvchi va talaba faoliyatini har bir bosqich bo'yicha belgilash, vaqt me'yorini to'g'ri belgilash
- mashg'ulotni me'yorida tashkil etish
- talabalar faoliyatini faollashtirish
- vaqt me'yorini belgilash

### **61 # Amaliy mashg'ulot-larning asosiy didaktik maqsadida nima?**

- + bilimni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish
- o'z-o'zini o'qitish malakasi
- ilmiy bilimlarni qabul qilish
- iqtisodiy tajribani o'zlashtirish

### **62 # Ta'limda proeksion uskunalar va slaydlarni qo'llash qaysi didaktik tamoyilda o'z ifodasini topgan?**

- + ko'rgazmalilik
- onglik va faollik
- ta'lim va tarbiyaning birligi
- nazariya va amaliyotning birligi

**63 # Ta'lim mazmunining manbalari**

- + tabiat, jamiyat, inson, koinot
- axloqiy-estetik fikrlar
- bilimlar, malakalar, ko'nikmalar
- pedagogik adabiyotlar

**64 # Qaysi tamoyil talabalarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar beri-lishini talab etadi?**

- + ilmiylik tamoyili
- faollik tamoyili
- didaktik reduksiya tamoyili
- o'qitishning tushunarli bo'lish tamoyili

**65 # Metod tushunchasi nimani ifodalaydi?**

- \*ta'lim berish usullari va shakllari
- tadqiq qilish yoki bilish yo'li
- pedagogika qonuniyatlarini ta'limda ifodalanishi
- talabalarga bilim berish va baholash jarayoni

**66 # Ta'lim oluvchining asosiy belgilari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

- + onglilik, javobgarlik, shaxsiy qadr-qimmat, erkinlik, individuallik
- bilim, malaka va ko'nikmalar
- tajriba va yo'nalganlik
- ijtimoiy va biologik xususiyatlar majmui

**67 # Konstruksion texnologik tizim nimadan iborat?**

- + o'quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirish
- operatsiyani ichiga olgan kompleks ishlarni bajarish
- ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish

- adabiyot va o'quv qo'llanmalar

**68 # Ko'nikmaga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?**

+ ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mexnatni ko'p marotaba takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy qismidir

- ongli ravishda bajariladigan ishni anik ifoda etish va avtomatlashib ketgan tarkibiy qismidir

- ongli ravishda bajarilganish bo'lib, ko'p marotaba takrorlashdir

- ongli ravishda birishni ko'p marotaba takrorlash va bajarishdir

**69 # Usul deganda nimani tushunasiz?**

+ yunoncha «metodos» so'zi-dan olingan bo'lib, izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'li-mot ma'nosini anglatadi

- aniq vazifani bajaruvchi ta'limotdir

- maqsadga erishish o'qish va o'qitishdan iborat

- ta'limoluvchiningo'zarobilimdarajasinianiqlash

**70 # O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari**

+ shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish

- Respublika, viloyatlar va mahalliy boshqaruv organlari

- pedagogika, iqtisod, siyosat, siyosiy tuzum, xalqaro aloqalar

- Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Oliy sud, Matbuot

**71 # Quyida tushirib qoldirilgan so'z qaysi javobda ko'rsatilgan? ... so'zi izlanish yoki bilish yo'li degan ma'noni anglatadi.**

+ metod

- didaktika

- shakl

- pedagogika

#### **72 # O'quv vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasini ko'rsating?**

+ ko'rgazmali va texnik vositalarni surunkali ko'rinishini ta'minlash va ta'lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish

-ta'lim oluvchilarda o'qitish vositalari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish

- o'quv jarayonida asosiy zvenolarni qamrab olish

- o'quv jarayonida o'qitish vositalarini belgilangan didaktik funksiyalarga qarab moslashtirish

#### **73 # Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining prinsiplari qatoriga kirmaydigan javobni ko'rsating**

+ ta'limning tushunarligi

- ta'limning dunyoviy xarakteri

- shaxsning ma'lumotlilikini rag'batlan-tirish va iqtidordorlikni rivojlantirish

- ta'limning gumanistik va rivojlantiruvchixarakteri

#### **74 # Ta'lim oluvchining asosiy belgilari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

+ onglilik, javobgarlik, shaxsiy qadr-qimmat, erkinlik, individuallik

- bilim, malaka va ko'nikmalar

- tajriba va yo'nalganlik

- ijtimoiy va biologik xususiyatlar majmui

#### **75 # Kasbiy ta'limning samaradorlik mezonini ko'rsating?**

+ kasbiy faoliyatda mustaqil fikrlash va o'z-o'zini nazorat qilib borish

- mehnat xavfsizligi qoidalariga amal qilish? mas'uliyatlilik hissi

- mehnat madaniyatini shakllantirish

- mehnatga ijodiy yondoshish

**76 # O'quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantirishdagi asosiy omillarni ko'rsating?**

- + bilim, ko'nikmalarni takomillashtirish, yangiliklar ixtiro qilish
- o'qish va ish burchiga vijdonan qarash
- o'rtoqlari orasida obro' va e'tibor qozonish
- shaxsiy qiziqishga e'tibor berish

**77 # Pedagogik tashxisning muhim mezonlarini ko'rsating?**

- + haqqoniylik, ishonchlilik, puxtalik
- pedagogik tahlil
- pedagogik diagnostika
- interpretatsiya

**78 # Pedagogik mahorat tizimiga quyidagilar kiradi:**

- + kasbga oid bilimlar, insonparvarlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika
- his-hayajonni anglatuvchi so'zlar ishlatish, o'zgalarni tushunish, yolg'on xushomad qilish
- tadbirni anglash, uni tayyorlash va o'tkazish, tahlil qilish
- nafas olish. ovoz o'zgarishi, ravon nutq

**79 # Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:**

- + pedagogik faoliyatni sevish, pedagogik tuyg'u
- nutq malakalari, mimika, hissiy psixik holat
- imo-ishora, fikr, xayrixohlik
- o'z-o'zini tarbiyalash, o'z ustida ishlash

**80 # Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.**

- + o'z nutqini boshqara olish, shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatishi
- hamfikrlilik, kelishuvchanlik, tashabbusni ma'qullash
- turli rollarda bo'lish faoliyati, xayol surish, fikr almashish

- doimo o'zgaraydigan ijobiy sust holdagi munosabat, barqaror salbiy munosabat

### **81 # Kommunikativ qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:**

- + kishining boshqa kishini bilishi, kishining o'z-o'zini bilishi, muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olishi
- o'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati
- nutq madaniyati, munosabatga kirishish
- ovozning o'zgarishi, talaffuz va nutq ohangi

### **82 # O'quv vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasini ko'rsating?**

- + ko'rgazmali va texnik vositalarni surunkali ko'rinishini ta'minlash va ta'lim oluvchilarda ular bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish
- o'quv jarayonida asosiy vositalarni qamrab olish
- ta'lim oluvchilarda o'qitish vositalari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish
- o'quv jarayonida o'qitish vositalarini belgilangan didaktik funksiyalarga qarab moslashtirish

### **83 # Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari:**

- + o'qitishning maqsadi, ehtiyoj-motivatsiya va mazmuniy bo'g'inlari, shakllari, metodlari, vositalari
- axloqiy-estetik g'oyalar, o'qituvchining ta'lim berish faoliyati
- bilimlar, malakalar, ko'nikmalar
- talabaning o'qish faoliyati

### **84 # O'qituvchi-pedagog faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, u doimo:**

- + talaba faoliyatini boshqarish faoliyatidir
- o'z-o'zini tarbiyalash bilan bog'liqdir

- murakkab izlanish faoliyatidir
- o'z-o'zini tarbiyalash bilan bog'liqdir

**85. Ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari:**

- + rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish, ilmiylik, demokratizm - demokratik, sistemalilik hayot bilan aloqadorlik
- demokratik sentralizm, izchillik
- kollegiallikni yakka o'zi boshqarish bilan qo'shish, izchillik

**86. Talabalar bilish faoliyatining xususiyatiga ko'ra o'qitish metodlari tasniflanadi:**

- + tushuntiruvchi-illustrativ, reproduktiv, muammoli, qisman-izlanish, ijodiy-tadqiqotchilik
- illustrasiya va demonstratsiya, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy
- bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, amaliy metodlar
- induktiv-deduktiv

**87 # Dialektik-materialistik metodologik konsepsiyaga muvofiq shaxsning rivojlanishi va shakllanishida aniqlovchi xususiyatga ega bo'lgan omilni belgilang?**

- + tarbiya
- irsiyat
- ijtimoiy muhit
- o'z-o'zini tarbiyalash

**88 # Pedagogik nazariyaning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati xususan shundaki:**

- + o'qituvchi pedagogik tafakkurini shakllantiradi
- o'qituvchini kasbiy-metodologik bilimlar va ko'nikmalar bilan qurollantiradi
- o'qituvchini o'z fani bo'yicha maxsus bilimlar bilan qurollantiradi

- o'qituvchida tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantiradi

**89 # Pedagogik jarayonni loyihalash qanday uchlikka asoslanadi?**

- + loyiha – mazmun – faoliyat
- muammo – izlanish – yechim;
- tashkillashtirish – amalga oshirish – baholash;
- bilish – anglash – qo'llash.

**90 # O'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolligini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza qanday ma'ruza sanaladi?**

- + muammoli ma'ruza
- binar ma'ruza
- ma'ruza-bayon
- ma'ruza-seminar.

**91 # O'quv jarayonida talabalarining jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim qanday nomlanadi?**

- + hamkorlik ta'limi
- innovatsion ta'lim;
- loyiha ta'limi;
- interfaol ta'lim.

**92 # Bilimlarni muammoli bayon qilish, bilimlarni muammoli bayon qilishning ma'lum bosqichlarida talabalarni izlanishga undash, kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish. Ular qanday ta'limning turlari sanaladi?**

- + muammoli ta'lim
- hamkorlik ta'lim

- mustaqil ta'lim
- interfaol ta'lim

**93 # Ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat qanday nomlanadi?**

- + dars ishlanmasi
- tadqiqot hisoboti
- ish rejasi
- savollar to'plami

**94 # O'quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajalarini yuqoriroq pog'onaga ko'tarish zarur, bu...**

- + maktab, oila va jamoatchilik pedagogik talablarining birligi orqali
- pedagogik ta'sirlarning ketma-ketligi va muntazamligi orqali
- o'quvchilarning ijodiy sifatlariga tayanish orqali
- tarbiyada individual yondoshish orqali

**95 # Pedagogik texnologiyaning muhim belgilari (xususiyatlari)**

- + ta'lim jarayonini oldindan loyihalash
- o'quv faoliyatini tasvirlaydigan loyihalari tizim
- oydinlashtirilgan maqsadli, qaytarila oladigan samarali jarayon
- o'zlashtirish jarayonini uzluksiz kuzatib, to'g'rilab borish

**96 # Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikmalari qanday nazorat qilinadi?**

- + ta'lim oluvchilarning bilimlarini og'zaki hamda yozma tekshirish, «texnik diktant» o'tkazish, texnik hujjatlarni muhokama qilish, laboratoriya va amaliy ishlar orqali nazorat qilish) ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish
- ta'lim oluvchilarning bilim, malakalarini tekshirish
- o'quv ishlab chiqarishda bajaragan va bajarayotgan ishlari orqali nazorat qilish

- ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikmalarini evristik tipdagi produktiv harakat orqali tekshirish va nazorat qilish

### **97 # Faoliyatni tashkil qilish va ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari**

+ pedagogik talab, odatlantirish, ijtimoiy fikr, mashq qildiria) suhbat, ma'ruza, o'rnak

- rag'batlantirish, jazolash
- musobaqa, ma'qullash
- tarbiyalovchi vaziyatlar yaratish, munozaralar

### **98 # Kasb ta'limi bo'yicha dars shakllari qanday bo'lishi kerak?**

- + o'quv-ishlab chiqarish ishlari, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni sinash
- yakka tartibda, zveno, frontal
  - dars-sinov, ekskursiya darslari
  - ishlab chiqarish amaliyoti

### **99 # Pedagogning madaniyatlilik darajasi.**

- + jamiyat baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, yurt boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish
- yuqori darajadagi fuqarolik, vatanparvarlik va baynalminallik.
  - ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, jamiyat manfaatlari buzilishiga nisbatan shafqatsiz bo'lish.
  - ko'pfikrlikka ochiq ko'ngillik bo'lish va uni hurmat qilish.

### **100 # Pedagoglar malakasini oshirishning asosiy shakllarini ko'rsating?**

- + mustaqil bilimlar egallash va malaka oshirish kurslarida o'qish.
- pedagogik kengashlarda ishtirok etish.

- jamoatchilik ishlarida faol qatnashish.
- uzluksiz ta'limni davom ettirish.

## GLOSSARIY

**Avtokratlik** - hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko'rsatmalar berish jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, u o'qituvchiniig talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta'sir etishga moyilligi.

**Aksiologiya** - qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

**Aksiologik yondashuv** – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining pirovard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi ham o'zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

**Amaliy tadqiqotlar** - pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

**Anketalashtirish** – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik, pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig'ish jarayoni.

**Axborotli malaka** – ta'lim-tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

**Axloq** - shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

**Bayon qilish** – o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

**Bilish, anglash**-dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruhiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

**Bilish faoliyati** - idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

**Burch** - muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

**Boshqarish** – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob`ektni o`z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

**Vazifa** – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

**Verbal** – ifodali, og`zaki.

**Gumanizm** - 1) insonning insonga bo`lgan mehri-muhabbati, uning sha`ni, qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun kayg`urish g`oyalari bilan sug`orilgan va kishilar o`rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash.

**Davlat ta`lim standarti** - uzluksiz ta`limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo`yiladigan minimum talablar.

**Dars** - ma`lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda alohida, bir xil yoshdagi o`quvchilar, yoshlar bilan o`qituvchi rahbarligida olib boriladigan ta`lim jarayoni.

**Didaktika** - talim va o`qitish nazariyasi hamda o`qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

**Jamoa**-insonparvarlik va javobgarlik mas`uliyatlariga bog`liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

**Idrok**- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta`sir etishi davomidagi bir butun hodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

**Izohlash, tushuntirish** – og`zaki izoh, yoritilishi lozim bo`lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

**Ilmiy muammo** – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

**Istiqbolni belgilash malakasi** – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

**Intellekt** - shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha akliy kobilyatlar tuplami.

**Kashiy – pedagogik muloqot** – pedagog va talabaning o'zaro zich ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

**Kashiy tayyorgarlik** – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

**Kashiy bilimdonlik** – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

**Kuzatish** – biror pedagogik hodisa bo'yicha aniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

**Kognitiv** - bilish jarayoni.

**Kreativlik** - betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

**Ko'nikma** – o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatidir.

**Laboratoriya ishi** – asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o'tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o'rganish.

**Leksiya (ma'ruza)** - odatda oliy o'quv yurtlarida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

**Malaka** – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

**Mafkura** - g'oya va qarashlar tizimi.

**Maqsad** – bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan,

rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

**Metod** – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

**Metodika** – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

**Metodologiya**- dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot.

**Motiv** – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichik faoliyat mazmuni.

**Muammoli o'qitish** – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

**Pedagoglik ixtisoslik** – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

**Pedagogik malaka** – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

**Pedagogik texnologiya** – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim-tarbiya metodlarini u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

**Pedagogik faoliyat** – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

**Pedagogik jarayon** - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari.

**Pedagogik masala** - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimidir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'liq, tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadni ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiydashtirilgan vaziyatdir.

**Pedagogik mahorat** - pedagogik jaraenni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsing ish sifati va xususiyatlari sintezi.

**Pedagogik muloqot** - ta'lim oluvchilariing maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash na qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

**Pedagogik takt** - bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, o'quvchilar bilan ularnng shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

**Pedagogik malaka** - muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

**Pedagogik texnika** - 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

**Pedagogik tizim** - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

**Ruhiiy pedagogik tayyorgarlik** - pedagogikaning metodologik acoclari va kategoriyalarini, shaxsniig ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

**Suhbat** - kuzatuv juda etarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun

qo'llanadigan tadqiqot metodi.

**Talabalarni kasbga yunaltirish** - talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarining asoslangan tizimi.

**Ta'lim** - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

**Tarbiya** - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq tasir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

**Tafakkur** - inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyan bo'ladi.

**Test** - 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqini aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart - test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

*Texnologiya* – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini oʻzgartirish metodlari toʻplami.

*Tizim* – 1) yaxlit taʼlimni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bogʻliq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning maʼlum bir bogʻlanishlarda, harakatlarning oʻta izchillikda rejali, toʻgʻri joylashish tartibi.

*Faoliyat* – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

*SHaxs* – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida oʻzini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatleri majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, maʼnaviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va oʻz-oʻzini anglash qobiliyatiga ega boʻlgan kishi.

*SHaxs dinamikasi* - kishining ontogenetik rivojlanishini oʻz ichiga olgan holda subʼektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan oʻzgarish jarayoni.

*SHaxsiy fazilat* - shaxs tomonidan oʻzining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi oʻrnini anglay olish xususiyati.

*Oʻz-oʻzini baholash* – shaxsning oʻz psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

*Uyin* - faoliyatning bir turi boʻlib, ijtimoiy tajribalarni oʻzlashtirish va bunyod etishga, oʻz xatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan boʻladi.

*Oʻz-oʻzini baholash* – shaxsning oʻz psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

*Oʻz-oʻzini tarbiyalash* 1) shaxsga xos boʻlgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning oʻz jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

**O'qitish** - 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) talaba va o'qituvchi, talabaning boshqa talabalar bilan aloqasi natijasi o'larok atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

**O'qituvchining innovatsion faoliyati** - ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

**O'qitish vazifasi** - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

**O'qitish turlari** - sokratcha suhbat metodi, qoloq ta'lim, izohlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differentsiatsiyali hamda individual ta'lim va boshqalar.

**O'quv-bilish faoliyati** - insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

**O'quv faoliyati** shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikalarni egallash jaraieni.

**Qiziqish** – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

**Yaxlit pedagogik jarayon** – tarbiya jarayonida va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

**Ta'lim olish** – bu bilim, ko'nikma va malakalar tizimini egallash jarayonidir, ya'ni bunda shaxsning ijodiy faoliyatining jihatlari, dunyoqarashi va o'zini tutish sifatleri tashkil topadi.hamda bilish qobiliyatlari rivojlanadi.

**O'qitish** – bu ta'lim oluvchilarga yangi o'quv axborotini taqdim etish, uni o'zlashtirishni tashkillashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan, muntazamli tashkiliy jarayondir.

**Rivojlantiruvchi vazifa** - o'qitish jarayonida shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy rivojlanishi, bilishga bo'lgan intilishlarini va ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlashdan iborat bo'ladi.

**Tarbiyalovchi vazifa** –o‘qitishni tarbiyalash prinsipiga asoslanadi. O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari o‘zviy bog‘liqlikda bo‘ladi.

**Bilim** - haqiqiy borliq umumiy aksini topadi. Talabalar hodisa, voqea, qonuniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rganadilar va u ularning yutug‘i bo‘ladi.

**Ko‘nikma** – egallagan bilimlar asosida o‘zgaruvchan sharoitlarda birorta faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

**Malakalar** – bu, ko‘p marta takrorlash natijasidagi mashinal (beixtiyoriy), harakatlardir.

**Kasb** – bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo‘lib, u nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalarni bo‘lishini talab qilmay, balki bir xil bo‘lgan umum kasbiy bilimlarni ham bo‘lishini talab qiladi.

**Mutaxassis** – mavjud kasb doirasidagi aniq mehnat faoliyatining aniqlashtirilganligi.

**Kasbiy ta‘lim olish** –kasbiy ta‘lim ustasi tomonidagi ijodiy faoliyat yo‘llari va uni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish maqsadida kasbiy bilim, ko‘nikmalarni yetkazishning maxsus tashkillashtirilgan va boshqariladigan jarayonidir.

**Kasbiy tarbiya** – kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish maqsadida kasbiy ta‘lim ustasi tomonidan talabalarni turli ijtimoiy-kasbiy munosabatlarga jalb qilishning maxsus tashillashtirilgan va boshqariladigan jarayonidir.

**Risola** - hunarmandchilik risolalari “udumlar nizomi” bo‘lib (u uncha katta bo‘lmagan 16-18 varaq hajmdagi kitobcha), usta-hunarmandalar va ularning shogirdlarning ma‘naviy hayotlari va mehnat faoliyatlarini belgilab beruvchi me‘yoriy hujjat sifatida foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

**Metodika** - pedagogikaning o‘qitish qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib baholash metod xamda vositalarini o‘zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog‘idir.

**Metodologiya** - "metod" va "logiya" iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi.

**Davlat standartlari** – mutaxassis tayyorlanayotgan yo'nalish mazmunining bayoni va talabani o'qitish hamda tarbiyalashga qo'yilgan talablar, standart ko'rinishidagi nazorat, uslub va shakllari.

**O'quv rejalar** – ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat hujjati.

**O'quv dasturlar** – o'quv fani mazmuni, ulami talabalar tomonidan o'zlashtirishning maqsadga muvofiq keluvchi xususan tashkil etish yo'llari aniqlangan hujjat.

**Darsliklar** – o'quv fani mazmuni o'quv darsturiga muvofiq bayon qilinadi.

**O'quv qo'llanmalar** – o'quv dasturi asosida uslubiy va amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kasbiy moslashuvchanlik**- ishlab chiqarish vazifalarini bajarishning, ish joyini va hattoki bir kasb doirasida hamda sohasida mutaxassisligini tez o'zgarishiga bo'lgan tayyorligi va qodirligi, yangi mutaxassisliklarni tez egallashi.

**Ijtimoiy moslashuvchanlik** – mutaxassisni nafaqat ish joyi va kasbini o'zgartirish emas, balki o'zining ijtimoiy vazifasini: ishchi, xizmat qiluvchi, mutaxassis, shaxsiy tadbirkor, jamoat arbobi va b. O'zgartirishga tayyorligi va qodirligi.

**Kasbiy uddaburonlik** – mutaxassisning o'zining kasbiy yoki tashkilot, korxon faoliyati doirasida daromad olishga yo'naltirilgan, o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan faoliyatga tayyorligi va qodirligi.

**Raqobatbardosh mutaxassis** - bu birinchidan, o'zining qobiliyatlarini rivojlanganligi, kasbiy chuqur bilimligi, shaxsiy va fuqaroviy sifatlarini shakllanganligi, ikkinchidan shaxsiy va oilaviy farovonlikni ta'minlashga imkon beruvchi, mahsulotga yaxshi baho beruvchidek taklif qila olish kabi kasbiy faoliyatga yuqori darajadagi tayyorgarlikdir.

**Ta'lim berish** - bu hamkoriy faoliyatni namoyon qilib bunda kasb ta'lim o'qituvchisi talabalar faoliyatini tashkillashtiradi, rag'batlantiradi, o'zgartiradi va nazorat qiladi.

**An'anaviy tizim**- ushbu tizim asoschilari Ya.O. Komenskiy, G. Pestalossi, I. Gerbartlar ta'lim berishda asosiy o'rinni o'qituvchi faoliyatiga ajratganlar.

**Dasturlashtirilgan ta'lim berish**- bu g'oya 1950 yillarda ilgari surilgan.

Dasturlashtirilgan ta'lim berish asosini, tartibga keltirilgan topshiriqlarni namoyon qiluvchi, o'rgatuvchi dastur tashkil etadi. U butun o'qitish jarayonini boshqaradi.

**Muammoli ta'lim berish** - muammoni hal etish g'oyasi yotuvchi, yaxlit tizim. Muammoli o'qitish ham amaliy, ham nazariy-bilish xususiyatidagi muammoli vaziyatlarni hal etish orqali yangi bilimlarni egallashga asoslangan.

**Rivojlantiruvchi ta'lim**- o'qituvchining asosiy vazifasi bilish mustaqilligi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, talabalarni o'quv faoliyatini tashkillashtirish hisoblanadi.

**Mazmun** – inson rivojlanishi maqsadlari bilan muvofiqlikda tanlanadigan va unga yetkazib beriladigan, avlodlar ijtimoiy mahorat qismi.

**O'qitish mazmuni** (o'qitish, ma'lumot olish)- ta'lim jarayonida egallashi zarur bo'lgan, ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar tizimi.

**Ta'lim prinsiplari** - bu pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro xamkorlikdagi faoliyatlarini belgilovchi asosiy koidalar tizimidir.

**Metod (usul)** - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Metodos"- biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi.

**Ta'lim berish usuli** - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.

**Ma'ruza** - davomli vaqt ichida katta hajm bo'yicha monologik o'quv materialini bayon qilish.

**Seminar** - bu ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir.

«**Texnologiya**» yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib «*techne*» - mahorat, san'at, malaka va «*logos*» - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

**Ta'limni texnologiyalashtirish** – bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo'nalishdir.

**Pedagogika tizim** – shaxsning bor sifatlarini shakllantirish uchun tashkiliy, maqsadga yo'naltirilgan va pedagogik ta'sir ko'rsatishni ko'zlagan, o'zaro bog'liq vosita, usul, jarayonlarning yig'indisini ifoda qiluvchi aniq yaxlitlikdir.

**Fanni o'qitish uslubiyoti** – ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalarini va o'qitish mazmunini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va o'qitish vositalari bayonini o'z ichiga oladi.

**Konsepsiya** - umumiy g'oya yoki biror-narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

**Ta'lim vositalari** - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

**Ta'limning texnik vositalari (TTV)** - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

**Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV)** – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

**O'quv - uslubiy materiallar (O'UM)** - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

**Grafikli tashkil etuvchi** – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi.

**Ta'lim shakllari** (forma-lotincha-tashqi ko'rinish) - bu usul o'quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

**Ommaviy ish (frontal)** - barcha ta'lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo'yiladi.

**Jamoaviy ish (kollektiv)** - ham umumiy va guruhliga taalluqli bo'lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo'lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta'lim oluvchilar fikrlari tingladi va muhokama qilinadi); 4) Ma'qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

- **Guruhli** - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

- **Yakka tartibli (individual)** - o'quv topshirig'ini yakka o'zi bajarishi.

**Nazorat** – doimiy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv. Ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma, malakalarini (BMK) aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi.

**Bilimni tekshirish va baholash** – ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, u talabalaraning o'quv faoliyatini darsda, uyda og'zaki, yozma va amaliy topshiriqlar yordamida tizimli nazorat yo'li orqali amalga oshiriladi.

**Nazorat qilishli vazifasi** – talabalarni ta'lim bosqichini har bir bosqichida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hisoblanadi.

**Ta'limiy va ta'lim berish vazifasi** – talaba o'qituvchini savoliga nafaqat javob beradi, balki topshiriq ham bajarib, o'rtoqlari javoblarini mulohazalaydi, o'zgartirishlar kiritadi.

**Tarbiyaviy vazifasi** – o'quv faoliyatini tizimli nazorat qilishda tekshirish va baholash namoyon bo'lib, bu esa, talabalarni bajariladigan ishga ma'suliyatini oshiradi, mehnat qilishga, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil yechishga, o'zining o'quv imkoniyatlarini to'g'ri baholashga o'rgatadi.

**Joriy nazorat** – o'qituvchi tomonidan har kungi ishda, asosan darsda jarayonida amalga oshiriladi.

**Oraliq nazorat** – dastur mavzusi, bo‘limlari o‘zlashtirilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

**Yakuniy nazorat** – o‘quv yili yarmida yoki yil oxirida amalga oshiriladi.

**Frontal tekshiruv** – o‘zlashtirish lozim bo‘lgan (qoida, jadval, yilnomalar)ko‘p bo‘lmagan materialni tekshirish uchun qo‘llaniladi.

**Og‘zaki tekshirish** – nazoratning eng o‘zgaruvchan usuli bo‘lib, ta‘lim berishning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi va talabalar bilan aloqani onson ushlab turishga, ularning fikr va harakatlarini kuzatishga, javoblarini to‘g‘rilashga yordam beradi.

**Yozma nazorat** (*diktant, bayon yozish, savollarga yozma javob berish va yozma nazorat ishlari*) – vaqt bo‘yicha tejamli bo‘lib, butun guruhni va har bir talabani ta‘lim olishga tayyorligini bir vaqtda aniqlash imkonini berib, topshiriqni individual bajarish xususiyati bilan ajralib turadi, biroq topshiriqni tekshirishga ko‘p vaqtni talab qiladi.

**Boshqaruv** - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli.

**Maqsadni belgilash** - didaktik vazifalarni aniqlash, o‘quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo‘lib, ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo‘naltiradi.

**Tashxis** - ta‘lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o‘rganish. Bu maqsadni to‘g‘rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

**Bashorat qilish** - o‘rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o‘quv faoliyati natijalarini oldindan ko‘rish.

**Loyihalash** - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash.

**Rejalashtirish** - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

**Tashkillashtirish** - ta'lim beruvchi tomonidan talabalarni belgilangan ishga jalb qilish, belgilangan maqsadga erishishda ular bilan hamkorlik qilish.

**Axborotli ta'minlash** - o'quv axboroti va qaytar aloqani yetkazib berishning yo'l va vositalarini amalga oshirish. Bunda yig'ilgan axborot jarayonining borishini tezkorlikda o'zgartirishni, ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni, samarali vositalarni kiritishga imkon beradi.

**Nazorat, baholash va o'zgartirish kiritish** - rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan rag'batlantiruvchi omillarni yaratish, pedagogik ta'sir etish ob'ekti o'zgarishini muvofiqlash.

**Tugallangan jarayon tahlili**- samarasizlikni, ularni paydo bo'lish sababini aniqlash, kelgusi takror ishlab chiqiladigan davrda unga yo'l qo'ymaslik choralarini aniqlash.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziëev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. —O'zbekistonl NMIU, 2017. — 485 b.
2. Mirziëev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiëti va xalq farovonligining garovi. —O'zbekistonl NMIU, 2017. — 47 b.
3. Mirziëev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. —O'zbekistonl NMIU, 2017. — 29 b.
4. Azizxodjaeva N.N. —Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratl. - T. 2003. 120-b.
5. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma / M. Aripov; red. Sh. Mansurov. - T. : Noshir, 2009. - 368 s.
6. G'ulomova F.G'. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. Toshkent: —NORMAI MChJ, 2012.- 512 b.
7. Ishmuxamedov, R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Ta'lim muassalari pedagog-o'kituvchilari uchun amaliy tavsiyalar / R. Ishmuxamedov, A.
8. Abdukodirov, A. Pardaev. — T. : Iste'dod, 2008. — 180-b.
9. Talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2014.
11. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- T.:O'zbekiston, 2000.
12. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. — T.: CHo'lpon, 2005.
13. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. — Qarshi.: Nasaf, 2000.
14. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. — T.: O'qituvchi, 2004.

15. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004
16. «Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi» fanining namunaviy dasturi. TTESI, T., 2012.
17. Tolipov O'., Barakaev M., SHaripov SH., “Kasbiy pedagogika” – T., 2001 yil.
18. Xadjaboev A., Xusanov I. “Kasbiy ta'lim metodologiyasi” – T., 2007 yil.
19. Barakaev M., Qurbanova G. ““Kasbiy ta'lim” yo'nalishi bo'yicha pedagogik amaliyotni o'tkazish metodikasi”. – T., 2007 yil
20. G'aybullaev N.R. va boshqalar. “Pedagogika”. – T., 200 yil
21. Ochilov M. “Muallim – qalb me'mori” – T., 2001 yil.
22. Ziyamuhammedov B., Abdullaeva SH. “Pedagogika” – T., 2006 yil.
23. Barakaev M. va boshqalar. “Zamonaviy ta'lim tizimida axborotlar texnologiyasi” – T., 2001 yil.
24. Davlatov K. va boshqalar “Mehnat va Kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi” – T., 1992 yil.
25. Karimova V. “Psixologiya” – T., 2002 yil.
26. Roziqov O. va boshqalar “Ta'lim texnologiyasi” – T., 1999 yil.
27. Tolipov O'.Q., Usmanbaeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” – T., 2006 yil.
28. D.Tojibaeva, A.Yo'ldoshev “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi”, Toshkent, 2009 yil.
29. Z.K.Ismailova, R.S.Musaev, A.A.SHOyusupova “O'qitishning zamonaviy texnologiyalari”, Toshkent, 2010 yil.
30. “Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” treningining o'quv-metodik materiallari, Toshkent, 2013 yil.

31. K.J. Mirsaidov «Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi» Toshkent «O'qituvchi»1996 yil.
- 32.Xo'jaev N, Tojiboeva D. Mamaraximov B,SHomuratova N. Kasbiy ta'lim metodikasi. O'quv qo'llanma T, TDIU.- 2007. 190 b.
- 33.Xoshimova M.K. Keys-stadi "Optimal metodni tanlash" T. 2010 y.
- 34.Mirsaidov K.J. "Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi" – T., 1996 yil.
- 35.Козырев V.P. Stanovlenie i razvitie kursa metodiki prepodavaniya texnicheskix dissiplin. Mejevuzovskiy sbornik nauchnyx trudov-M, 1990-42-53s.
- 36.Sokolov V.A. Osnovnye etapy razvitiya injenerno-pedagogicheskogo obrazovaniya. Mejevuzovskiy sbornik nauchnyx trudov-. M.,-1990. S 3-10.
- 37.Zaplatkin I.V., Madraximov X.S. Podgotovka injenerno-pedagogicheskix kadrov v Uzbekistane. S 10-14.
- 38.Mominbaev V.K. Sostoyanie i razvitie problemy podgotovki injenerno-pedagogicheskix kadrov dlya sistema proftekbrazovaniya. S -69-73.
- 39.www.bilimdon uz. -O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining veb sayti.
- 40.www.de.uz-Masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt.
- 41.www.plekhanov.ru.-Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.
- 42.www.glef.org. Djordj Lukasning Ta'limning fondi.
- 43.www.newhorizons.org. Ta'limning yangi ufqlari.
44. www.rhecherswithoutborders.org

